

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI


«IQTISODIYOT NAZARIYASI» KAFEDRASI

Katta o'qituvchi N.Murodova

Hozirgi zamon iqtisodiy ta'limoti

FANIDAN

MA'RUZA MATNLARI



Navoyi-2008

MAVZULAR MUNDARIJASI

- 1-Mavzu. Qadimgi dunyo va feodal jamiyati davridagi iqtisodiy ta'limotlar
.....
- 2-Mavzu. Merkantilizm va ilk klassik iqtisodiy maktabning vujudga kelishi
.....
- 3-Mavzu. Adam Smit va David Rikardoning iqtisodiy ta'limotlari.
.....
- 4-Mavzu. Mayda ishlab chiqarish nazariyalarining vujudga kelishi va
XU111-X1X asrlar bo`sag`asida yangi iqtisodiy yo`nalishning paydo
bo`lishi
- 5-Mavzu. Marks, Engels, Lenin asarlaridagi iqtisodiy g`oyalarining mohiyati va
tarixiy taqdiri.
.
- 6-Mavzu. X1X asr oxiri -XX asr boshidagi jahon iqtisodiy g`oyalari
mohiyati
- 7-Mavzu. Jaxon xo`jaligi to`g`risidagi iqtisodiy ta'limotlar . . .
- 8-Mavzu. O`zbekiston Respublikasida erkin bozor iqtisodiyotini
yaratishning kontseptsionalari va uning shakllanish xususiyatlari

KIRISH

Hozirgi zamon iqtisodiy ta'limoti kursi iqtisodiy fanlar tizimida muhim o`rin egallaydi.

Insoniyat o`zining ming yillik tarixi davomida katta iqtisodiy va ijtimoy taraqqiyot yo`lini bosib o`tgan. Xar bir davrda u yoki bu mamlakatlarda ayrim shaxslar (olim yoki hokimlar) tomonidan shunday iqtisodiy ahamiyatga molik fikr, g`oya, nazariya, kontseptsiyalari ilgari surilgan va amalga oshirilganki, bir holda shular tufayli davlat va xalqaro ravnoq topgan, ba'zida tushkunlikka uchragan. Ana shu iqtisodiy

g`oyalar har tomondama chuqur o`rganish, taxlil etish, ular orasidan umumbashariy ahamiyatlarini ajratib olib, xozirgi davrda, ya'ni hayotga tadbqiq etish nixoyatda ham nazariy ham foydalidir. Chunki ulardan ko`p yillik tajriba mujassamlashgan bo`ladi.

Hozirgi zamon iqtisodiy ta'limoti kursi iqtisodiyot mutaxassislari tayorlashda muhim fan sifatida o`rganiladi. Iqtisodchi bakalavr yo`nalishida bu fan uchun o`quv rejalarida 56 soat vaqt ajratilgan bo`lib, uning 38 soati ma'ruzalardir. Kafedra tomonidan tayorlangan va qabul qilingan namunaviy dastur bo`yicha o`nta mavzu berilgan. Ushbu dastur asosida ma'ruza matnlari tayorlandi, kafedra a'zolaridan prof. A.Razzoqov, dots. X.Jomboqiev, dots. Sh. Toshmatov, dots. N.O`rmonovlar ishtirok etishdi.Yordamchi materiallarni tayorlashda kafedra aspiranti X.To`raxanova ham qatnashdi.Ma'ruzalar matnida qadimdan, to hozirgi davrgacha paydo bo`lgan iqtisodiy fikr, g`oya, qarash va ta'limotlarning mazmuni, mohiyati, ularning evolyutsiyasi (rivojlanishi) va bugungi kundagi ahamiyati mantiqiy va tarixiy ketama-ketlik va namunaviy dastur asosida ifoda etiladi. Mustaqil O`zbekistonning bozor munosabatlariga o`tish kontseptsiyasi yoritilgan.Keltirilgan materiallarda mavzu, unga oid reja, rejadagi savollarga qisqacha javob, muhim tushuncha va matnlar ro`yxati shaklida tuzildi. Adabiyotlar ro`yxati oxirida (asosiy va qo`shimcha) to`laroq shaklda berildi.

1- Mavzu. QADIMGI DUNYO VA FEODAL JAMIYATI DAVRIDAGI IQTISODIY TA'LIMOTLAR (2 soat)

REJA

1. " Hozirgi zamon iqtisodiy ta'limoti "ning predmeti, uslubi (metodi) va ilmiy davrlash.
2. Qadimiy Sharq mamlakatlarida iqtisodiy g'oyalarning shakllanishi.
3. Antik dunyo davlatlaridagi dastlabki iqtisodiy qarashlar.
4. Arab va G'arbiy Evropa davlatlarida feodalizm davridagi iqtisodiy g'oyalar.
5. 1X-XU asrlarda O'rta Osiyodagi iqtisodiy fikrlar.

1 Hozirgi zamon iqtisodiy ta'limotining predmeti, uslubi (metodi) va ilmiy davrlash.

Hozirgi zamon iqtisodiy ta'limoti fanning predmeti bo'lib, ma'lum davrlardagi u yoki bu sinflar ijtimoiy qatlamlar insonlar manfaatlarini ifoda etuvchi iqtisodiy g'oyalarning vujudga kelishi, rivojlanishi va almashuvining tarixiy jarayoni hisoblanadi. Hozirgi zamon iqtisodiy ta'limotimustaqil fan sifatida eng qadimgi davrdan boshlab, to hozirgi zamongacha vujudga kelgan asosiy iqtisodiy fikr, g'oya, qarash. nazariya va ta'limotlarni o'z ichiga oladi. Bu fan boshqa iqtisodiy va tarixiy, ayniqsa iqtisodiy nazariyasi fani bilan bevosita bog'liq. Iqtisodiy tarix ancha keng davrni qamrab olgan va mustaqil xarakterga ega. Bu fanni o'rganish orqali ekonomiks, xalq xujaligi tarixi, iqtisodiy tarix va iqtisodiy kontseptsionalari hamda aniq iqtisodiy predmetlarni o'zlashtirish osonlashadi, u yoki bu iqtisodiy o'zgarishlarni shart-sharoitlari va oqibatlarini taxlil etishga katta ko'mak beradi. Masalan: bizga bugun yangidek tuyilgan bozor iqtisodiyoti to'g'risidagi fikrlar Adam Smit tomonidan 1776 yili chop etilgan "halqlar boyligi" asarida asosan to'la tahlil etib berilgan. Ba'zi iqtisodiy g'oyalar esa qadimdan ma'lum, ularni o'rganishda eng muhimi hayotga tadbiq etish yaxshi samara beradi, ko'p xollarda Amerikani yangidan kashf etishga xojat qolmaydi. Bu fanni o'rganish metodologiyasi asosida tarixiylik, ob'ektivlik va dialektik usuli yotadi. "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi"ni o'rganishda ma'lum davrlash tizimidan foydalaniladi. Hozircha eng maqbul usul ijtimoiy iqtisodiy formatsiyalarning o'zgarishiga qarab ish yuritishdir. Chunki qaysi formatiya ustun, ilg'or boshqarishning amalga oshirish bo'lsa o'sha(masalan, quldorlik yoki kapitalizm) davrga xos jamiyatning sinfiy tuzilishi iqtisodiy manfaatlari va boshqalar yotadi.

Quldorlik va feodalizm davrida g'oyalarning tarqalishi (migratsiyasi) juda qiyin bo'lgan. Shuning uchun bu davrlardagi iqtisodiy fikrlarni mamlakatlar miqyosida alohidi-alohida o'rganishmoqda.

2. Qadimgi Sharq mamlakatlarda iqtisodiy g'oyalarning shakllanishi.

Iqtisodiy fan manbalarni avvalo jahon sivilizatsiyasining beshigi bo'lgan qadimgi Sharqdan izlamoq mantiqan to'g'ridir. Iqtisodiy g'oyalarning shakllanishi insoniyatning paydo bo'lishi bilan bog'langan ammo hozirgi paytda qo'l yozmalarda aks ettirilgan g'oyalargina tahlil qilingan. Shu sababli iqtisodiy ta'limotlar tarixi quldorlik jamiyati paydo bo'lishi bilan bog'lanadi.

Dastlabki quldorlik jamiyati Sharqda sinfiy ajralish boshlagan joylarda, Mesopatomiya(Tigr va Evfrat daryolari oralig`ida) va Misrda eramizdan avvalgi 1V ming yillikda yuzaga keldi. Bunga asosiy sabab shuki, bu erda texnologik inqilob ro`y berdi. Metall qurollar ishlatila boshlandi, qishloq xo`jaligida intensiv ko`p hollarda sug`orma dehqonchilikka o`tildi. Shu asosda nisbatan turg`un qo`shimcha mahsulot olish imkoni tug`ilgan. Oqibatda jamiyatda mehnat taqsimotini

rivojlantirishga, ko`pgina xunarmandchilik sohaslarining ajralib chiqishiga, sinfiy tabaqalanishiga turtki bo`ldi. Bu davrda qo`shimcha mahsulot olishning asosiy usuli jamoaga birlashgan dehqonlarni ekspluatatsiya qilish yo`li bilan renta soliq olish (Osiyo) bo`lsa, qullarni (davlat yoki xususiy) beayyov ishlatish bilan (Evropa) katta boylik ortirilgan. Sharqda davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasiga qarab, ayrim"erkin"aholining ahvoli qullranikidan deyarli farq qilmagan (umuman Sharq mamlakatlarida qulchilik masalasi hali uzul-kesil hal etilgan emas). Akademik V.V.Struve uni tan oladi. Lekin ko`pgina olimlarning fikricha, Sharqda quldorlik klassik shaklda rivoj topmagan, patriarxal, ya'ni uy xo`jaligida ustun bo`lgan.

Sharq, jumladan O`rta Osiyo mamlakatlaridagi xo`jalik faoliyatida nisbatan erkin odamlar ishtirok etgan. Masalan, dehqonchilik, qurilish sohasida qullar mehnatidan foydalanilmagan. Antik dunyo (G`arbiy Evropadagi) ayrim regionallarda halqaro savdoni olib borish bilan bog`liq ravishda tovar-pul munosabatlari ham anchagina rivojlangan (masalan, Gretsiyaning ayrim shaharlari). Shu asosda qulchilikka asoslangan xususiy mulkchilik rivoj topdi. O`z mahsulotini mo`ljallab ishlab chiqargan qulchilik xo`jaliklari ekspluatatsiyani kuchaytirishi talab etilgan. Oqibatda klassik yoki antik qulchilik yuzaga kelgan (Gretsiya va Italiya).Qadimgi Misrdan farqli ravishda Mesopatamiyada xususiy mulkchilik va tovar-pul munosabatlarining nisbatan tez rivojlanishi xarakterlidir. Bu-Bobil (Vavilon)da podsholik qilgan Xammurapi qonun to`plamlari (jami 282ta) diqqatga sazovar. Bunda ishlab chiqarishni, birinchi navbatta qishloq xo`jaligini rivojlantirishni qo`llab quvvatlash bo`lgan, ya'ni mehnatsiz daromat topishga qarshi kurashilgan.

Qarzni qarz hisobiga uch yildan ortiq ushlab turish mumkin bo`lmagan umuman, xususiy mulkchilik shu jumladan erga xam tan olingan. Birovning xususiy mulkiga ko`z olaytirgan, unga zarar etkazganlar iqtisodiy jihatdan jazolangan. Bu qonunlar to`plami davlatning, amlakatlarning

iqtisodiy boshqarish sohasidagi dastlabki tajribasini ko`rsatadi. Oqibatda shu davrda mamlakat ham siyosiy jipslashgan ham iqtisodiy ravnoq topdi. Qadimgi Hindistonning " Manu qonunlari "da (e.a.1U-111 asrlar) ijtimoiy mehnat tahsimotining hukmronligi va bo`ysunush

institutlarining mavjudligi aytiladi. Hindistondagi iqtisodiy g`oyalarni aks ettiruvchi qadimgi yodgorlik "Arxashastra "dir (e.a.1V-III asrlar oralig`ida) unda qulchilikni mustaxkamlash asosiy vazifa qilib qo`yilgan. Asarda "Buyumning qiymati" muammosi, qiymat miqdori, davlatning boshqarish bo`yicha takliflar va bir qancha iqtisodiy g`oyalar ilgari surilgan. Qadimgi indistonda yaratilgan "Veda"larda bir qancha muhim iqtisodiy g`oyalar keltirilgan. Qadimgi Xitoydagi iqtisodiy g`oyalari Konfutsiy yoki Kun-Tszi (e.a. 551-478 y y.) va boshqa

iqtisodchilarning asarlarida jamlangan bo`lib, tabiiy huquq nazariyasi ilgari suriladi. Ularda mehnat tahsimoti, davlatning roli, halq boyligi va hunarmandlar mulki o`rtasidagi bog`lanish, iqtisod va qonun masalalariga bag`ishlanadi. Respublikamiz olimlarining tadqiqotlariga ko`ra, Zardushtiylik

(zaroastrizm) dinning (islomgacha) muqaddas kitobi bo`lgan "Avesto" (asli "Ovesta")da ham muhim iqtisodiy fikrlar bayon etilgan.

Jumladan, sun'iy sug`orish asosida dehqonlik yuritish, ona tabiatni ezozlash, hayvonlarni asrash, noo`rin so`ymaslik, unga zulm qilmaslik, tuproq sharoitini yaxshilash masalalari yoritilgan. Bu kitob eramizdan avvalgi 11 ming yillik oxiri - 1 ming yillik boshlaridagi voqealarni aks ettiradi va juda qadimiy yodgorlikdir. Bu dinning ta'sir doirasi juda keng bo`lib, Hozirgi Eron, Markaziy Osiyo Kavkaz orti yurtlari (ayniqsa Ozarboyjon) va boshqa joylarda tarqalgan. Avesto ma'lumotlariga qarab shu davrdagi jamiyatning ijtimoiy ahvolini bilib olish mumkin. Bu davrda urug` jamoasi emirilib, dastlabki sinf( kasta)lar paydo bo`lganligi ayondir, ular kohinlar,

harbiylar, chorvadorlar va hunarmandlar, demak ilk sinfiy jamiyat yuzaga kelayotgan davr bo`lgan. Aholi ko`proq yarim ko`chmanchilik asosida kun kechirgan. Ekstesiv chorvachilik etakchi edi.

3. Antik dunyo davlatlaridagi dastlabki iqtisodiy g`oyalar.

Platon(Aflotun) "Davlat" va "Qonunlar" asarlarida ideal davlat qanday bo`lishi erakligini ochib bermoqchi bo`ldi. U aholini uch toifaga ajratgan:

1. Faylasuvlar-davlatni boshqaruvchilar.
2. Harbiylar- davlatning boshqarish apparatining bir qismi bo`lib ular biror mulk egasi huquqiga ega emas, iste'mol qilish esa ijtimoiy xarakterga ega bo`lishi kerak .
3. "Qora" toifa - dehqon, hunarmand va savdogarlardan bo`lib, ular mulk egasi bo`lishi kerak.

Bu olimning mehnat taqsimoti tovar, pul va savdogarlarning ajralib chiqishi, o`rtasidagi aloqadorlik to`g`risidagi fikrni o`sha davr uchun buyuk kashfiyot - deb baholash mumkin. Ammo Aflotun qulchilikka asoslangan natural xo`jalikni himoya qildi, pul funktsiyasini maomala doirasidagina deb bilishga xarakat qildi. Pulni jamiyatdagi dushmanchilikning bosh sababchisi deb bildi. Agar Osiyoda quldorlik ko`proq patriarxal shaklda bo`lsa, antik dunyoda u klassik ravishda ro`y bergan, natural hunarmandchilik-dehqonchilik xo`jaligi qo`llangan, ammo bu davr oxirida sudxo`rlik xam qo`llab-quvvatlangan. Pulning asosan almashuv(Ksenofond jamg`armasi) funktsiyasi tan olingan. U sudxo`rlik operatsiyalarini inkor etdi va baholarni me'yorida saqlash yo`li bilan savdogarlarning foydasini chegaralashni talab qildi. Aflotun qullarni fuqarolar deb tan olmadi va ular biror toifaga kiritmadi. Shunday qilib, Aflotun o`zinig ideal, ya'ni bakamu-ko`st davlatini barpo etar ekan, qulchilikni abadiy saqlash tarafdori edi. Platonga nisbatan Aristotel pulning mohiyatini kengroq va chuqurroq anglab etdi. Ammo u tovar ishlab chiqarishning rivojlanmaganligi va qiymatni to`la tushunmaganligi tufayli tovarlar pul tufayli bir biri bilan solishtirilishi mumkin degan xato xulosaga keldi. Rim(hozirgi Italiya)da quldorlik munosabatlari yuksaldi, lekin tanazzulga ham

uchray boshladi. Osiyoda feodalizm munosabat o'zgardi. Erkin sohibkorlik ustunligi oydin bo'lib qoldi, dehqonchilik bilan chorvachilik, yirik savdo sudxo'rlik jamiyati qo'llangan (tsitseron). Mayda ishlab chiqarishga o'tish jarayoni, islohotlar (Grakxlar) yo'li boshlandi. Katon tomonidan foyda tushunchasi kiritilgan, ammo uni xato ravishda qiymatdan ortiq mahsulot deb bilgan. Undan tashqari Rimning iqtisodiy g'oyalari Varron, Kolummela, Sitseron va boshqalarning asarida ham ko'rsatilgan.

4. Arab va G'arbiy Evropa davlatlarida feodalizm davridagi iqtisodiy g'oyalar.

Feodal munosabatlar Sharqda nisbatan erta tarkib topdi va uzoqroq davom etdi. Arab mamlakatlarining iqtisodiyotiga islom aqidalari ijobiy ta'sir etdi. Qur'oni Karim va Hadislarda keltirilgan iqtisodiyotga aloqador qonun - qoidalar "hidoya" va shu kabi boshqa fikr keng o'rganildi, amalga oshirdi, natijada muhim iqtisodiy g'oyalar ilgari surildi. Mehnat, ayniqsa qishloq xo'jaligi hunarmandchilik va savdo qo'llab - quvvatlandi. Isrovgarchilik, mehnatsiz daromat, ayniqsa sudxo'rlik xarom deb e'lon qilindi.

Bu davr uchun Ibn Xoldunning iqtisodiy g'oyalari nihoyatda muhimdir, u o'z asarlarida ijtimoiy ishlab chiqarish, mehnat unumdorligi, oddiy va murakkab mehnat, zaruriy va o'shimcha mahsulot, tovarning iste'mol qiymati va umuman qiymatning farqini ta'riflab beradi, ayirboshlash tamoyirini (sarflangan mehnatning yarimi) to'g'ri talqin etdi, sarflangan mehnat bilan birga shu tovarning odamlarsha zarurligi ham muhimligini ta'kidladi. Uning asarlarida mehnat taqsimoti, tovar pul munosabatlari, soliq tizimining halq farovonligi ta'siri asosan to'g'ri tahlil etib berilgan. G'arbiy Evropadagi feodal munosabatlar nisbatan kech tarkib topgan bo'lsa ham, uning rivoji tezroq bo'ldi. Dehqonchilik umuman qishloq xo'jaligi ustun bo'lishiga qaramay, hunarmandchilikda sex tizimi, keyinroq manufaktura vujudga keldi, mehnat taqsimoti tamoyillari tarkib topdi. Bu davrda g'arbda natural xo'jalik (iste'mol qiymati ishlab chiqarish) qo'llangan, oltin va kumush, zeb-ziynat sun'iy boylik deb qaralgan. "Adolatli baho" masalasi ko'tarilgan. Bu erda ham din va din ahli tomonidan iqtisodiyotda muhim fikrlar ilgari surilgan. Masalan, F. Akvinskiy "adolatli baho" masalasini naf va manfaatlar tengligini asosida hal etdi. Protsent (foizni) oqlaydi, uni qo'llaydi va tavakkalchilik to'lovi deydi. U shuningdek rentani ham qo'llaydi, uning ekpluatatorlik mohiyatini inkor etadi. Rossiyada shu davrdagi iqtisodiy g'oyalarda ham dehqon mehnati - boylikning asosi ekanligi ko'rsatiladi. Natural renta miqdori 2 foiz belgilanadi, tovar pul munosabatlariga ayniqsa savdoga qarshi g'oyalar ko'p edi.

5. IX-XU asrlarda O'rta Osiyodagi iqtisodiy g'oyalar.

O'rat Osiyoda dastlabki uyg'onish davrida olamga mashhur donishmandlar etishib chiqdi, ularning faoliyatida iqtisodiyot masalalari asosan to'g'ri talqin etildi. Isrofgarchilik, soliq, xisob-kitob muammolari ko'tarildi. Markazlashgan davlat asoschisi Amir Temur va uning avlodlari davrida muxim iqtisodiy g'oyalar vujudga keldi. Bu erda boshqa mamalatlardan ancha ilgari ishlab chiqarish bilan birga savodga ham e'tibor berildi, foydaning katta qismi shu sohaga (ya'ni muamola sohasi) bilan bog'liq

ekanligi aytilди va "Buyuk ipak yo`li" ni avj oldirishga ahamiyat berildi. Jahonda birinchi marta byudjet (davlat xazinası), kirim-chiqim daftari, hisob-kitob, maosh, sog`liq, taqsimot, nazorat masalalari ilmiy darajaga ko`tarildi. Sog`liq tizimi daromad katta yordam berdi, ya'ni sog`liq daromadning o`shishiga xalaqit bermagan. Bu davlatda

iqtisodiy g`oyalar asosida shunday iqtisodiy siyosat olib borilganki, davlat va xalqning turmush darajasi ancha yuksaklikka ko`tarilgan. Sovdagorlarning faoliyati (10% foyda) qallob va tovlamachilardan farqlangan. Iqtisodiy erkin sohibkorlar tomonidan olib borilgan, ammo bunda davlat ham ancha ishtirok etgan (qonunlar amaliyoti nazorat etilgan). Ayniqsa er, suv munosabatlarida muhim g`oyalar bulgan, masalan, yangi er olganlar dastabki uch yil dovamida soliقدan ozod etilganlar. Ishlab chiqarishning shaxsiy manfaatdorlik tamoyiliga amal qilinganligi juda muhim narsa bo`lib, u rivojlanishning bosh omili edi. Mamlakatlar rivojida tinch osoyishtalik va birlikning ahamiyati tushinib etilgan (A.Navoiy).

Xulosa

Dastlabki iqtisodiy g`oyalar insoniyatning paydo bo`lishi bilan shakllangan, ammo bizgacha etib kelganlari e.a. 2-ming yillikka to`g`ri keladi, ko`proq qadimiy Osiyo xalqlarining xo`jalik faoliyatini aks ettiradi. Antik dunyoga ma'lum darajada birinchi iqtisodiyot mushohadalar, ayrim iqtisodiy tushunchalar, kategoriyalar shakllana boshlagan. Qullikka asoslangan natural xo`jalik , ayniqsa qishloq xo`jaligi ko`llab-quvvatlangan, boylikning asosiy manbai mehnat deb hisoblangan Hindistonda "buyumning qiymati"ni "ish kunlari" bilan belgilash, mahsulotning bozor bahosi bilan uning tabiiy qiymati o`rtasidagi farq aytilgan, foyda masalasi ko`tarilib, uning miqdori cheklangan. Davlatning iqtisodiga aralashuvi qo`llab-quvvatlangan. Feodal er egalari davrida natural xo`jalik, ayniqsa qishloq xo`jaligi asosiy edi, ammo shu bilan birga bu paytda shaharlar soni o`sdi, tovar-pul munosabatlari ham ancha rivojlandi, nisbatan erkin va samarali ishlab chiqarish usuli bo`lgan krepostnoylikka o`tildi. Avvalgi davrdagi natural xo`jalik ishlab chiqarishni (T-T) asta-sekin T-P-T munosabatlari bilan almasha bordi (agrar yo`nalish xal qiluvchi) , iste'mol qiymatlarini yaratish baribir asosiy maqsad bo`lgan va shu g`oya himoya etilgan, mehnat qurollari takomillashgan davrda bu tabiiy bir hol edi. Feodal munosabatlar Sharqda nisbatan erta tarkib topdi va uzoqroq davom etdi. Arab mamalakatlari iqtisodiyotiga Islom aqidalari faol ijodiy ta'sir etdi. Qur'oni Karim va Hadislarda keltirilgan iqtisodiyotga aloqador qonun qoidalar "Hidoya" va shu kabi boshqa fiqh kitoblarida keng o`rganilib, amalga oshirildi, natijada muhim iqtisodiy g`oyalar ilgari surildi. Mehnat, ayniqsa, qishloq xo`jaligi, xunarmandchilik va savdo qo`llab quvvatlandi. Isrofganchilik, mehnatsiz daromad, ayniqsa sutxo`rlik xarom deb e'lon qilindi. Tayanch ibora va tushunchalar. Konfutsiylik; boylik taqsimoti; legistlar; daosizm; "Manu qonunlari"; "Artxoshastra"; "buyumning qiymati"; sudxo`rlik; "gapiruvchi qurollar"; "ekonomika"; "xrematistika"; "Buyuk ipak yo`li"; A.Temur davrida er egaligining besh ko`rinishi; A.Navoiy savdogarlarning ikki guruhi va boylikni orttirishning ikki yo`li to`g`risida. Nazorat va mulohaza savollari

1. Dastlabki iqtisodiy g'oyalar qayerda va qachon paydo bo'la boshladi?
2. Sharq quldorligining antik dunyo mamalakatlaridagi quldorlikdan asosiy farqlar nimadan iborat? Shu davrdagi g'oyalar bo'yicha boylikning asosi nima?
3. Xammurabi qonunlari qachon va qaysi davlatda yuzaga keldi, uning asosiy mazmunini aytib bering.
4. Pulning almashuv qiymatidan boshqa qanday funktsiyasi tan olingan va uning muallifi kim?
5. Qaysi omil mehnat taqsimotiga aloxida urg'u beradi. mehnat taqsimoti qaysi omillarga bog'liq?
6. Ekonomika va xrematistika nima, ulardagi qarama-qarshilik va umumiylik.

Adabiyot

Asosiy adabiyot

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q.T., 1998.
2. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. T., TDIU, 1992 (1-mavzu).
3. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. T., Fan, 1997. 446 b.(1,2 -boblar 72-76 betlar).
- 4.A.Razzoqov, Sh.Toshmatov, N.O'rmonov. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. «Darslik». Toshkent. «Moliya»- 2002 y.

Qo'shimcha adabiyot

- 1.Qur'oni Karim. O'zbekcha izohli tarjima T., Cho'lpon, 1992.
- 2.Ibn Xoldun «Ibrat» kitobi muqaddimasidan. «Hayot va iqtisod» jurnali, 1990. № 6
- 3.Yusuf Xos Xojib. Qutadg'u bilig. T., Fan, 1991.
- 4.Temur tuzuklari. T., 1991.
5. Titova N.E. Istoriya ekonomicheskix ucheniy (kurs lektsiy). Moskva, 1997.
- 6.Razzoqov A.A. Nizomulmulkning iqtisodiy qarashlari. «O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi» . 1999yil 11-soni.

2-Mavzu. MERKANTILIZM VA ILK KLASSIK IQTISODIY MAKTABNING VUJUDGA KELISHI (2 soat)

R E J A

1. Merkantilizm iqtisodiy ta'limotining asosiy mohiyati.
- 2.Angliya va Frantsiyada klassik iqtisodiy maktab vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari.
- 3.V.Petti - Angliya klassik iqtisodiy maktabining asoschisi.
- 4.XVII-XVIII asrlarda Frantsiya ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining xususiyatlari va uni P.Buagilberg qarashlarida aks etishi.
- 5.Fiziokratizm. F.Kene va A.Tyurgingon iqtisodiy ta'limotlari.

1.Merkantilizm iqtisodiy ta'limotining asosiy mohiyati.

XU asr oxiri-XU11 asrlar davomida yangi iqtisodiy ta'limotlar merkantilizm va u bilan bog'liq siyosat paydo bo'ldi. Bu ta'limot bo'yicha milliy - xalq boyligi muomala sohasida yuzaga keladi (avvalgi qarashlardan printsiptial farq qiladi). Bu

ta'limotda ikki davrni ajratish mumkin: 1. Ilk merkantilizm yoki monetarizm (ya'ni pul degani) XU -XU1 asrlarda (qisman XU11 asrda) mavjud bo'ldi va boylik asosan oltin, kumush va boshqa qimmatbaho javohirlardan iborat bo'ladi, degan g'oya ilgari suriladi. Shunga oid siyosat ham olib borilgan, unda chetdan imkoni boricha ko'proq-ko'proq nodir metallar keltirish va ularni chetga kamroq chiqarish targ'ib qilingan. 2. Rivojlangan merkantilizm ta'limotida boylik savdo-sotiq sohasidagi savdo

balansi asosida yuzaga keladi, imkoni boricha ko'proq eksport qilish va mumkin qadar kamroq import qilish g'oyalari ilgari surilgan. Merkantilizm ayrim mamalakatlardagi ko'rinishi milliy xususiyat kasb etgan, ayniqsa Frantsiyada kolbertizm, Germaniyada kameralistika shakllari yaxshi ma'lum. Bu ta'limot yangi tug'ilayotgan jamiyat-kapitalizm rivoji uchun ijobiy progressiv xarakterga ega bo'ldi. Kapitalning dastlabki jamg'arilishiga imkon yaratdi, mustamlakachilik tizimini qo'llab-quvvatladi, tovar muomalasi rivojiga olib keldi, moliya tizimining rivoji tufayli iqtisodiyot jonlandi. Merkantilizm davlat iqtisodiyotga faol ishtirok etish shart, shunga oid iqtisodiy siyosat xam yuzaga keldi. Merkantilizm tarixan cheklangan bo'lsa ham (u XVIII asrda to'g'ri va qattiq tanqidga uchradi). Iqtisodiy ta'limotlar tarixida munosib o'rinni egallaydi. Lekin bu ta'limot va unga asoslangan siyosatni to'la amolga oshirish qanday oqibatlariga olib kelishi mumkinligi Jon Lo tajribasidan ma'lum. Merkantilizm moliya tizimi va savdo rivojiga muxim qissa qo'shdi.

2. Angliya va Frantsiyada ilk klassik iqtisodiy maktabning shakllanishi.

a) V. Pettining iqtisodiy ta'limotlari;

b) P.Buagilberning iqtisodiy g'oyalari.

XU11-XU111 asrlarda qulay ijtimoiy iqtisodiy sharoitlarda dastlab Angliyada klassik iqtisodiy maktab kurtaklari paydo bo'la boshladi. Bu yangi iqtisodiy g'oyalar V.Petti nomi bilan bog'liq (burjua inqilobi, manufaktura va savdoning rivojlanganligi, agrar islohot, dehqonlarning chegaralanishi, mustamlakachilik siyosati, qulay tarixiy-tabiiy va geografik hamda iqlimiy sharoitlar tufayli). Klassik iqtisodiy maktabning shakllanishi avvalgi g'oya merkantilizmdan printsiptial farq qiladi, agar merkantilizmda boylikning asosi muomala sohasi (javohir, oltin, kumush, pul, savdosi)da vujudga keladi deb qaralgan bo'lsa, endi boylik ishlab chiqarish sohasida vujudga keladi deb isbotlab berildi. V.Petti yangi kapitalistik jamiyatni, erkin tadbirkorlikni, kapitalistlarni himoya qildi. Xususiy mulkni "Muqaddas" va "Dahlsiz" deb bildi. U iqtisodiy tadqiqotda tabiiy fanlarni ya'ni abstrakt usullarni qo'llab, har bir masalaning ichki bog'liqligiga asosiy e'tiborni qaratdi. Matematik va statistik usullardan keng foydalaniladi. V.Petti «tabiiy baho», «(qiymat)», «siyosiy baho» tushunchalarini kiritdi, tovar qiymatining unga sarflangan mehnat miqdori bilan o'lchanishi g'oyasiga, ya'ni qiymatning mehnat nazariyasiga asos soldi.

"Mehnat boylikning otasi, er esa uning onasidir" degan fikrni bildirdi. Qiymatni aynan almashuv qiymati (pul) shaklida tushungan. Ish haqini ishchilarga tirikchilik uchun zarur bo'lgan jismoniy minimum, ya'ni "yashash, mehnat qilish va ko'paytirish" uchun kerakli darajada to'lansa, bas, degan g'oyani ilgari surdi. Kapitalistlarning foydasini imkoni boricha oshirishni, ishchilarni soliq to'lashlarini zarur deb bildi.

Pulning roli va uning mamlakatdagi miqdori masalalarini asosan to'g'ri hal etdi, ya'ni pul miqdori ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga to'g'ri, pulning aylanish aborotiga esa teskari proportsionalligini aniqladi. Pulning meyorida bo'lishini qo'llab quvvatladi. Er va renta

masalalarini ancha puxta ishlab chiqdi. Ish haqi va rentaning bir-biriga qarama-qarshiligini isbotladi (er bahosini to'g'ri hal etmadi).

Petti "Siyosiy arifmetika" va boshqa asarlarida statistika, aniqrog'i demografik statistika faniga asos soldi (aholi boyligi asosiy masalasini to'g'ri qo'ydi). Milliy daromad masalasini qo'ydi va uni qisman hal etdi.

Frantsiyadagi klassik iqtisodiy maktabning dastlabki vakili P. Buagilber ham muhim g'oyalarni ilgari surdi. Bu mamlakat ahvoli Angliyanikidan ancha katta farq qiladi. Shu sababli iqtisodiy qarashlarda o'ziga xoslik seziladi. Agar V. Petti ko'proq sanoat va savdoni qo'llagan bo'lsa, Buagilber asosan qishloq xo'jaligi soxasini tadqiq etdi va o'zining muxim xulosalarini chiqardi. Qiymatni aynan iste'mol qiymati shaklida tushindi. "Proportsional baholar" tarafdori edi, erkin tadbirkorlik,

raqobat va erkin baxolarni qo'lladi. Ortiqcha ishlab chiqarish inqrozini to'g'ri tushuntirib berdi. Pulga salbiy munosabatda bo'ldi, oltin va kumushlarni yovuzlik sababi deb bildi. Noto'g'ri ravishda faqat qishloq xo'jaligini qo'llab quvvatladi, sanoat va savdoga kam e'tibor berdi.

Buagilberning iqtisodiy islohotlari bo'yicha takliflari o'z davri uchun nihoyatda ahamiyatlidir.

3. Fiziokratlarning umumiy ta'rifi;

a) F. Kenening iqtisodiy ta'limoti. Uning "iqtisodiy jadval" asaridagi g'oyalari.

b) Tyurgoning iqtisodiy qarashlari.

XVIII asrning o'rtalarida Frantsiyada iqtisodiy ta'limotlar tarixida fiziokratizm yo'nalishi yuzaga keldi. Bu ta'limot klassik iqtisodiy maktabning tarkibiy, butun zanjirning ajralmas qismi

sifatida muhim ahamiyatga egadir. Bu oqimning asosiy vakillari F. Kene, A. Tyurgo mamlakatdagi usha davr iqtisodiy holatini har tomonlama taxlil etib iqtisodiyotning muhim kategoriyalari bo'yicha qimmatli fikrlarni berdilar. Ular fermerlarni ximoya qilgan xolda

avvalo merkantilizmdan vos kechib, boylikning asosiy manbai mehnat va er ekanligini ko'rsatdilar. "Tabiiy tartib" kontseptsiyasi asosida "unumli mehnat", "sof mahsulot", kapital to'g'risidagi ta'limotlar ilgari surildi. Kapitalistik munosabat, xususiy mulk, erkin baholar, erkin

raqobat davlatning iqtisodga kam aralashuvi "tabiiy xol" deb tan olindi. Ularning fikricha, qiymat iste'mol qiymati bo'lib, xatto tabiat, er in'omi sifatida talqin

etiladi. Shundan dextqonchilikdan boshqa sanoat, savdo va xizmat tarmoqlari unumsiz soxa deb qaraladi.

Bunday noto'g'ri fikrning paydo bo'lishi Frantsiyaning o'sha davrdagi axvoli (agrar mamlakat) bilan bog'liqdir. Kapital tushunchaning kiritilishi va uning boshlang'ish va yillik bo'nak kabi ikki qismga bo'linishi iqtisodiyot tarixida muxim qadamdir. Shundan doimiy va aylanma kapital g'oyalari ham kelib chiqadi. F.Kening asosiy "iqtisodiy jadval" asarida jamiyatdagi sinflar masalasi ko'tariladi, ammo bunda ba'zi kamchiliklar bor, uni A. Tyurgo rivojlantirib, o'sha davr uchun to'g'ri xulosalar chiqardi. Takror (uzliksiz) ishlab chiqarish jarayoni va yalpi ijtimoiy maxsulot muomalasi birinchi bor kun tartibiga qo'yildi. Oddiy takror ishlab chiqarish chizmasi beriladi va tayor maxsulotning aylanish tamoyillari ko'rsatiladi, bu o'sha davr uchun katta kashfiyat edi. Tarmoqlar, ya'ni sektorlararo taqsimotning aniq proportsiyalari bo'lishi zarurligi qayd etiladi, ma'lumki bu tamoyil hozirgi davrda ham muxim. Olim va davlat arbobi A. Tyurgoning iqtisodiy g'oyalari ancha mukammal bo'lib o'sha davrdagi jamiyat va iqtisodiyatdagi jarayonlarni ancha izchil tahlil etadi va sanoatda kapitalistlar va yollanma ishchilar mavjudligi hamda beshta sinf borligi e'tirof etiladi. Bu xulosa to'g'ri xulosadir. A. Tyurgo sanoat va xizmat soxalariga ijobiy yondashadi. U kapital va qo'shimcha mahsulot (qiymat) masalalarini ancha mukammal hal etadi, sanoat, ssuda va kapital xaqida fikr yuritadi. Lekin oxir oqibatda fizokratizm qobig'idan chiqa olmaydi, qo'shimcha mahsulotning asosiy mahsulotining asosiy shakli yana erga, er rentasiga qaytadi. A. Tyurgo davlat chinovnigi, aniqrog'i moliya vazirligi sifatida ham bir qancha iqtisodiy islohotlarni o'tkazishga erishdi. Ammo mamlakatdagi ijtimoiy tuzum bu islohatlarga to'siq edi. Hozirgi davr tili bilan aytganda, fizikatorlar sof bozor munosabatlarini qo'lladilar, ammo ularning g'oyasi asosan qishloq xo'jaligi bilan cheklab qo'yildi, barcha fikrlarda mukammallik etishmas edi. Bu vazifalar esa keyingi olimlar tomonidan xal etildi.

Xulosa

XU asr oxiri XU11 asrlar davomida yangi iqtisodiy ta'limot merkantilizm va u bilan bog'liq siyosat paydo bo'ldi. Bu ta'limot bo'yicha millat (xalq) boyligining asosi muomala sohasida yuzaga keladi (avvalgi qarashlardan printsipial farq qiladi). Bu ta'limotda ikki davrni ajratish mumkin.

1. Ilk merkantilizm yoki monetarizm (ya'ni pul degani) XU-XU1 asrlarda (qisman XU11 asrda) mavjud bo'ldi va boylik asosan oltin, kumush va boshqa qimmatbaho javohirlardan iborat bo'ladi, degan g'oyani ilgari surdi, shunga oid siyosat ham olib borilgan, unda chetdan imkoni boricha ko'proq nodir metallar keltirish va ularni chetga kamroq chiqarish targ'ib qilingan.

2. Rivojlangan merkantilizm ta'limotida boylik savdo - sotiq sohasida savdo balansi asosida yuzaga kelgan, imkoni boricha ko'proq eksport qilish va mumkin qadar kamroq import qilish g'oyasi ilgari surilgan.

XU11-XU111 asrlarda qulay ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda dastlab Angliyada klassik iqtisodiy maktab kurtaklari paydo bo'la boshladi. Bu yangi iqtisodiy g'oyalar V.Petti nomi bilan bog'liq (burjua inqlobi, manufaktura va savdoning

rivojlanganligi, agrar islohot, dehqonlarning chegaralinishi, mustamlakachilik siyosati, qulay tarixiy, tabiiy va geografik hamda iqtisodiy sharoitlar). V. Petti "tabiiy baho" (qiymat), "siyosiy baho" tushunchalarini kiritdi, tovar qiymatining unga sarflangan mehnat miqdori bilan o'lanishi g'oyasiga, ya'ni qiymatning mehnat nazariyasiga asos soldi. "Mehnat boylikning otasi, er esa uning onasidir" degan fikrni

bildirdi, qiymatni aynan almashuv qiymati (pul) shaklida tushuntirdi.

Tayanch ibora va tushunchalar

Ilk merkantilizm; monetarizm; rivojlangan merkantilizm; savdo kapitalining asosiy tamoyili; kolbertizm; aktiv savdo balansi; V.Pettining ish haqi nazariyasi; renta nazariyasi; er bahosiga oid

fikrlar; F.Kenening "Iqtisodiy jadvali" va "tabiiy tartib" kontsepsiyasi; A. Tyurgo qiymat tarkibi to'g'risida.

Nazorat va mulohaza savollari

1. Merkantilizm ta'limotining mazmuni va uning bosqichlari, umumiylik va farqlari nimadan iborat?
2. Merkantilizm bo'yicha boylikning asosi nima?
3. Merkantilizm ta'limotining asosiy namoyandalari kimlar?
4. Merkantilizm ta'limotining tarixiy ahamiyati va taqdiri.
5. Klassik iqtisodiy maktab vujudga kelishining shart-sharoitlari. Bu maktabning merkantilizmdan asosiy farqi nimadan iborat?
6. V.Pettining iqtisodiy qarashlari, uning uslubi.
7. «Fiziokratizm» so'zining mazmuni va bu ta'limotning muhim xususiyatlari nimadan iborat?

Adabiyot

Asosiy adabiyot

1. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., O'zbekiston, 1998.
2. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. T., Fan, 1997 (3-bob, 78-98- betlar).
3. A.Razzoqov, Sh.Toshmatov, N.O'rmonov. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. «Darslik». Toshkent. «Moliya»- 2002 y.

Qo'shimcha adabiyot

1. Blaug M. Ekonomicheskie misli v retrospektive. M., Delo, LTD, 1994.

3-MAVZU. ADAM SMIT VA DAVID RIKARDONING IQTISODIY TA'LIMOTLARI (2 soat)

REJA

- 1.A.Smit va D.Rikardo g'oyalari shakllanishining tarixiy shart-sharoitlari. Klassik iqtisodiy maktabning to'la shakllanishi.
- 2.A.Smitning iqtisodiy g'oyalari. Uning «Xalqlar boyligi» asaridagi iqtisodiy qarashlari.
3. D.Rikardoning iqtisodiy ta'limoti.
- 4.Smit va Rikardo ta'limoti va hozirgi zamon.

I.A.Smit va D.Rikardo g'oyalari shakllanishining tarixiy shart-sharoitlari.

Klassik iqtisodiy maktabning to'la shakllanishi.

XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi choragida Buyuk Britaniyada boshqa davlatlarga nisbatan iqtisodiy g'oyalarning rivojlanishi uchun nihoyatda qulay sharoitlar yuzaga keldi, bu g'oyalar A.Smit va D. Rikardo ta'limotlarida o'z aksini topdi. Ular tomonidan yaratilgan ta'limot ingliz klassik iqtisodiyotining asosi bo'ldi va jahon iqtisodiyoti fikriga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu olimlar o'zlaridan oldingi merkantilizm, ilk klassik maktab va fiziokratizm

g'oyalarini mukammal o'rganib, shular asosida yangi iqtisodiy maktabning shakllanishini nihoyasiga etkazdilar. Klassik maktabning shakllanishida ayniqsa sanoat inqilobi katta rol o'ynadi.

R.Xeylbroner va L.Turoularning fikriga ko'ra, shu davrda bozor jamiyati vujudga keldi. Bu tizimda kapital bozori paydo bo'ldi va ishlab chiqarishda doimo boylik oqimi, ya'ni banklar va boshqa moliya kompaniyalari tomonidan tashkil etiladigan jamg'arma va investitsiyalar oqimi vujudga keladi, qarz oluvchilar bu boyliklardan foydalanganliklari uchun foiz to'laydilar.

Tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishda ishlatiladigan mehnat sarflari, er va kapitallar ishlab chiqarish omillari deb ataladi. Kapitalizmgaacha ishlab chiqarish omillari umuman bo'lmagan, degan xulosa chiqariladi. Albatta inson mehnati, tabiiy resurslar, shuningdek er va ishlovchilar san'ati doim bo'lgan, ammo mehnat, er va kapital tovar emas edi. Qanday qilib, haq to'lanmaydigan mehnat, renta puli keltirilmaydigan er va shaxsiy xazina ishlab chiqarish omiliga aylanib qoldi? Bu kapitalistik tuzumni keltirib chiqargan inqilob bilan bog'liq. O'z erlaridan mahrum bo'lgan ijarachilar shaharlarga ketishga va u erda o'z ishchi kuchini ishlab chiqarish faktori sifatida sotishga majbur edilar. Bozor jamiyati uchun hayotiy zarur bo'lgan ishlab chiqarish omillari tarixiy o'zgarishlar tufayli yuzaga keldi. Oqibatda mehnat tovarga aylandi, er ko'chmas mulk bo'lib qoldi. Ammo kapitalizmning iqtisodiy erkinligi ba'zilar uchun yutuq, ko'pchilik uchun esa qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Bozor tizimi bir tomondan ishonchsizlik, azob-uqubat sababi bo'lsa, shu vaqtning o'zida taraqqiyot, imkoniyat va yutuqlari manbai hamdir.

XVIII asrning ikkinchi yarmida «texnik yo'nalishda» gi ishbilarmonlar guruhi iqtisodiyot tarixida butunlay yangi insonlarni vujudga keltirdi.

Sanoat inqilobi dastlab engil sanoat, xususan, to'qimachilik sohasida boshlandi va mashinasozlik vujudga kelishi bilan nihoyalandi, J.Key to'qimachilik mokkisini, 1733 yilda J.Xargrivs o'z qizining nomi bilan atalgan «Jenni» mexanik to'quv dastgohini kashf etdi, sanoat

inqilobi iqtisodiyot va ijtimoiy hayotga keskin o'zgarishlarga olib keldi.1701-1802 yillar oralig'ida to'qimachilik rivoji tufayli Angliyada paxta tolasidan foydalanish 6000 foizga o'sdi.

1788-1838 yillarda cho'yan eritish 68 ming tonnadan 1347 ming tonnagacha oshdi.

2. A.Smitning iqtisodiy g'oyalari. Uning «Xalqlar boyligi» asaridagi iqtisodiy qarashlar.

A. Smit (1723-1790) Shotlandiyaning Kerkoldi shahrida bojxona chinovnigi oilasida dunyoga keldi. Glazgo va Oksford universitetlarida ta'lim oldi.1759 yilda o'qigan lektsiyalari asosida etikaning falsafiy muammolariga bag'ishlangan o'zining birinchi «Ahloqiy hissiyot nazariyasi» kitobni yaratdi. U 1766 yilda o'zining bosh asari -« Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risidagi tadqiqot»ni yozishga kirishdi. Bu asar 1776 yil martda Londonda chop etildi. Smitning bu asari 5 kitobdan iborat bo'lib, birinchisida qiymat va qo'shimcha daromad muammolari tadqiq etildi, ikkinchisida - kapital jamg'arilishining shakllanishi davrida Evropaning iqtisodiy rivojlanishi, uchinchisida - kapitalizm taraqqiyotining tarixiy shart-sharoitlari, to'rtinchisida- merkantilizm va fiziokratlarning ta'limotlariga munosabati, beshinchisida esa davlat moliya tizimi tadqiq etilgan. A.Smit tomonidan tadqiq etilgan insonning tabiati, inson va jamiyat orasidagi munosabatlar klassik (mumtoz) maktab qarashlarining asosini tashkil etdi. Bunda «iqtisodiy odam» tushunchasi keninroq paydo bo'lishiga qaramasdan, uning kashfiyotchilari A.Smitga tayanganlar.

Smit o'z asarlarida va tadqiqotlarida odamlar ba'zi bir shunday tabiiy xususiyatlarga egaki, ular ijtimoiy tuzumga bog'liq emas, degan xulosaga asoslandi. Ana shunday xususiyatdan biri egoizm bo'lib, odamlar o'z xo'jalik faoliyatlarida unga amal qiladilar. Har bir odam o'z shaxsiy manfaatini ko'zda tutadi, ammo bu xolatda ko'p boshqa holatlardagi kabi, u «ko'rinmas qul» tomondan uning niyatida ham bo'lmagan maqsad sari yo'naltirildi.

Smitning ta'rificha foyda ketidan quvish va raqobat butun jamiyatga naf keltiruvchi faoliyat deb qaraladi (sho'rolar davrida, markscha-lenincha g'oyada tanqid qilinardi).

A.Smit kapitalistik jamiyatni tabiiy tuzum bilan bir deb tushungan, shuning uchun kapitalistik munosabatlar adabiy, kapitalistik xo'jalik namoyandalarining xususiyatlari odamning tabiiy xususiyatlari kabi, deb izohlaydi.Bu fikrni bozor munosabatlariga ham tadbqiq etish mumkin.

A.Smit abstraktsiya usulidan foydalanib qator chuqur ilmiy xulosalarga keldi, hodisalarning ichki bog'lanishi masalalariga kirib bordi. Shunga parallel ravishda u boshqa yo'ldan ham bordi, kapitalistik haqiqat to'g'risidagi bevosita kuzatish natijalarini umumlashtirdi.

Birinchi metod izoterik, ikkinchisi- ekzoterik usullar deb ataladi. Mehnat taqsimoti va pul to'g'risidagi ta'limot. Smit o'z davri uchun mos ravishda manufakturani ishlab chiqarishning eng ilg'or shakli deb baholaydi, uning tarixan o'tkinchiligini tushunmaydi. A.Smitning

iqtisodiy qarashlari asosida shunday g'oya yotadiki, unga ko'ra jamiyat boyligi ishlab chiqarish jarayonida mehnat tufayli paydo bo'ladi. A.Smit mehnatni barcha sohalarda (sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish sohalari) boylikning asosi deb biladi. U kapitalistik ishlab

chiqarishning manufaktura bosqichini tahlil qilish asosida iqtisodiy progress (taraqqiyot)ning muhim omili mehnat taqsimotidir, degan xulosaga keldi. Birinchidan, mehnat taqsimoti tufayli ayrim ishchilarning chaqqonligi va mohirligi oshadi. Ikkinchidan, bir turdagi ishdan boshqasiga o'tish uchun ketadigan vaqt iqtisod qilinadi. Uchinchidan, mehnat taqsimoti mashinalar ixtiro qilishga imkon tug'diradi, ya'ni takrorlanadigan jarayonlar mashina qo'llashga qulaylik yaratadi.

A.Smit asarida mehnat taqsimotining salbiy tomonlari ham berilgan (bir xil mehnat, toliqish...) Manufaktura-dagi mehnat taqsimoti va endigina rivojlanib kelayotgan mashina sanoatining salbiy

oqibatlari ham tan olinadi. Smit tovar dunyosida pulning stixiyali ravishda, uzoq rivojlanish jarayoni natijasida ajralishini ko'rsatib berdi. Smit pulning muomala vositasi funksiyasini boshqalarga nisbatan alohida ta'kidlaydi. Oqibatda Smitning fikricha, pul texnik qurol bo'lib, iqtisodiy jaraenlarni engillashtiradi, uni «muomalaning buyuk g'ildiragi» deb baholaydi. A.Smit qiymatning mehnat nazariyasini V.Pettining nazariyasiga nisbatan ancha chuqur va to'laroq ishlab chiqdi. A.Smit qiymatni daromad bilan ham tenglashtirishga uringan. U aytadiki, ish haqi, foyda va renta har qanday daromadning, xuddi shuningdek har qanday almashuv qiymatining dastlabki uch manbaidir. Demak, Smit kapitalizmga xos yana bir qiymat- daromad nazariyasini o'ylab topdi, bu erda daromad ish haqi darajasi, foyda, renta bilan aniqlanadi. qiymatni daromadlar asosida tushuntirish olimning qiymatning mehnat nazariyasiga qarama - qarshidir.

Daromadlar to'g'risidagi ta'limot A.Smit jamiyat a'zolarining ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan munosabatlariga ko'ra uch sinfni ajratib berdi: ishchilar, kapitalistlar va er egalari. Har bir sinf o'zining asosiy daromadini: ishchilar, ish hakini, kapitalistlar foydani, er egalari esa rentani oladilar. Ular o'rtasida nomuvofiqlik yo'q. Ish haqi, ya'ni ishchining daromadi

Smitning fikri bo'yicha mehnat mahsuloti bo'lib, mehnat uchun to'lanadigan tabiiy mukofotdir, oddiy takror ishlab chiqarishda ham mehnat haqi mavjuddir. U oddiy ishlab chiqaruvchi bilan yollanma ishchining daromadlarini bir deb bildi. U oddiy takror ishlab chiqarishda «ish haqi» ishchining butun mehnat mahsulotiga teng.

Smit ta'limotida ishchi kuchi degan kategoriya yo'q, u kapitalist va ishchi o'rtasidagi munosabatda ishchi kuchi sotilishi jarayonini tushunmagan. Ammo ish hakining normal darajasini aniqlashda u amalda ishchi kuchining qiymatidan foydalangan, ish haqining miqdori to'g'risida gap borganda esa tirikchilik xarajatlari qiymati hisobga olinishi

kerak, deydi. Smit foyda normasi va protsent (foiz)ning past darajasini iqtisodiy rivojlanish va «Millatning ravnaqi» ko'rsatkichi deb xarakterladi, ammo foyda normasining pasayib borish

tendentsiyasini tushuntirib bera olmadi. Unumli va unumsiz mehnat to'g'risidagi ta'limot.

Smitda bu masala ancha mukammal tahlil etilgan. Fiziokratlarda qiymatning manbai u yoki bu konkret mehnat shakllari emas, qaysi sohada bo'lishining farqi yo'q, balki umuman mehnat ekanligini ko'rsatib berdi. Smitning fikricha, qiymat foyda umumiy ijtimoiy mehnat bilan

yaratiladi. Avvalo kapitalga almashuvni, ya'ni foyda yaratuvchi mehnat unumli deb e'lon qilinadi, maqsadidan qat'iy nazar odamlarning boshqa turdagi faoliyati unumsiz mehnat xarajatlari deb aytiladi. Unumli va unumsiz mehnatning farqi shundaki, birinchisi kapitalga

almashtiriladi. Tovarda o'z aksini topgan mehnat unumli, xizmat sohalari unumsiz mehnat bo'lib chiqadi (marjinalizmda boshqacha fikr). Smitning tasdiqlashicha davlat daromadining deyarli hammasi unumsiz elementlarni ta'minlash uchun sarf bo'ladi, shu sababli jamiyatda bunday guruhlar imkoni boricha kam bo'lishi kerak, deydi, ya'ni u arzon

davlat tarafdori bo'lgan, bunga qo'shilish mumkin.

A.Smit erkin raqobat davridagi Buyuk Britaniyadagi iqtisodiy siyosatni asoslashga katta e'tibor berdi. U ishlab chiqaruvchilarga iqtisodiy erkinlik ta'minlashni, davlatning iqtisodiy haetga aralashmasligini ta'rifladi, ammo mamlakat xavfsizligi iqtisodiyotdan ustun, deyiladi.

Smit merkantilizmga, shu bilan birga savdodagi proteksionizmga (davlat tomonidan cheklashlar, soliq,bojxona va boshqalar), tashqi savdodagi har qanday cheklashlarga qarshi edi, demak erkin iqtisodiyotni qo'llaydi.

Smit nochor ahvolga tushib qolgan iqtisodiyotni rivojlantirish uchun quyidagi uch omilni ko'rsatib bergan edi:

1. Mamlakatda tinchlik, osoyishtalik bo'lishi va saqlanishi.
2. Me'yoridagi engil soliqlar tizimi.
3. Davlat iqtisodiyot ishlariga hadeb aralashavermasligi zarur, iqtisodiyot tabiiy ravishda amalga oshaveradi.

3.D.Rikardoning iqtisodiy ta'limoti.

Ingliz klassik iqtisodiyotining mashhur namoyondasi D. Rikardo (1772-1823) Petti va Smitning iqtisodiy g'oyalarini yanada rivojlantirdi. U Londonda burjua dalloli oilasida tug'ildi. Ikki yil Amsterdam (Gollandiya)da savdo maktabida ta'lim oldi. D.Rikardo dastlab birja dalloli, keyinroq matematika o'qituvchisi bo'ldi.

Tarixiy manbalarga qaraganda, D.Rikardo 1799 yilda kurortda A.Smitning "Xalqlar boyligi" asarini ko'rib qoladi va unda bu fanga ishtiyoq paydo bo'ladi. U jamiyat moddiy boyligi o'sishi uchun ijtimoiy va taqsimotning qanday sharoitlari eng qulay va optimal degan masalaga

to'xtaladi. Rikardo yagona iqtisodiy kontseptsiya asosi-pul muammosi va kredit, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, soliq, er rentasi, xalqaro mehnat taqsimoti to'g'risida fundamental fikrlar berdi.

Smitdan keyinroq yashagan Rikardo sanoat inqilobi natijalarini to'laroq tushundi. Uning fikrlari nisbatan teran bo'lib, klassik iqtisodiyotni nihoyasiga etkazdi; uagar A.Smit manufakturasini qo'llasa, Rikardo sanoat davrining iqtisodchisi edi va fabrika afzalligini tushundi. Uning dastlabki «Oltin ajdahosi to'g'risida uch hat» (1809) va boshqa asarlari pul va muammolarining tahlil qilishga bag'ishlangan. 1807 yilda uning asosiy asari bo'lgan «Siyosiy iqtisod va soliq solishning boshlanishi» chop etildi. 1824 yilda yozilgan «Milliy bank tuzishning rejasi» asari esa uning vafotidan keyin bosilib chiqdi.

Rikardo qiymat qonunini ishlab chiqishda Smitning xulosalariga, garchi ularni qisman rad etsada, suyardi va ularni rivojlantirdi. U tovarning ikki faktori: iste'mol va almashuv qiymatlarini yanada aniqroq o'rgandi.

Rikardo Smit kabi qiymatning mehnat nazariyasini kapitalistik ishlab chiqarish sharoitida qo'llashda katta qiyinchiliklarga uchradi. qiymatning ishlab chiqarish bahosiga aylanish muammosiga e'tibor berdi va uni hal etishga urindi. Real hayotda kapitaldan olinadigan foyda shu kapitalning miqdori bilan aniqlanadi yoki foyda normasi mutaddillashish tendentsiyasiga ega.

Rikardo ish haqi, foyda va renta masalalarini echishga katta hissa qo'shdi. U Smit kabi asosiy uch sinfning dastlabki daromadlari masalasiga e'tibor berdi. U mehnatni tovar deb (aslida ishchi kuchi tovar) hisoblab mehnatning bozor bahosi (ish haqi) tabiiy baho bo'ladi va shu atrofda o'zgaradi deb hisoblagan; tabiiy baho deganda ishchi kuchining qiymatini tushungan. Rikardo masalaga tarixiy an'analar asosida yondoshishga urinsa ham mehnatning tabiiy bahosini jismoniy minimumga tenglashtiradi: masalan, nonning bahosi va ish haqining pul miqdori o'rtasida bevosita bog'liqlik bor, - deydi u,- agar nonning bahosi oshganda ish haqi o'zgarmasa ishchilar och qoladi va o'linga mahkum etiladi. Rikardo pul va pul muomalasi masalalariga katta e'tibor qildi. U dastlabki asarlarida pulni ichki qiymatga ega bo'lgan tovar deb qaragan. Pul qiymati uni topishga sarf qilingan mehnat bilan aniqlangan Rikardo pulning xususiyati shundaki, u alohida tovar, boshqa tovarlarning qiymat o'lchovi va muomala vositasi sifatida harakat qiladi,- deydi. Rikardo Angliyaning tashqi aloqalar iqtisodiyotida katta rol o'ynashini alohida o'rgandi. U birinchilardan bo'lib ayrim tovarlarni ishlab chiqarishdagina emas, (korxona doirasida), balki mamlakatlar o'rtasidagi xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvining foydaliligini ishlab chiqdi. Bu tamoyil ko'ra, ayrim mamlakatlar tovarlarni ishlab chiqarishda ayrim qiyinchiliklarga ega bo'ladi va kam xarajat sarf qilinadi. Nisbiy ustunlik nazariyasini yaratdi. Misol sifatida Angliyada tekstil, Portugaliyada vino ishlab chiqarish ustunligini isbotlab berdi.

Rikardonin 1815 yilda yozilgan «Nonga bo'lgan past bahoning kapital foydasiga bo'lgan ta'siri to'g'risidagi tajriba nomli pamfletida sinflarning iqtisodiy munosabatlari va kapitalizm rivojlanish nazariyasi qisqa, ammo lo'nda tarzda

bayon etilgan. Uning asosiy xulosalari quyidagilardan iborat: agar iqtisodiyot rivoji o'z holiga qo'yilsa, aholining o'sishi va kam unumdor erlarga ishlov berilishiga o'tishi tufayli qishloq xo'jaligi mahsulotlarining bahosi oshib boradi. Buning barcha foydasi er egalari bo'lgan lendlordlarga o'tadi. Vaholanki, kapitalga bo'lgan foyda normasi pasayadi. Bundan esa ishchilar ham ziyon ko'radi, chunki ularning mehnatiga talab pasayib boradi.

4.A.Smit va D.Rikardo ta'limoti va hozirgi zamon.

A.Smit va D.Rikardo Angliya klassik iqtisodiyotining eng buyuk va eng so'nggi namoyondalari edilar, ularning g'oyalari Sey, Sismondi va qisman Maltus tomonidan davom ettirildi, ammo bu g'oyalarga katta biror yangilik kiritilmadi. A.Smit va D.Rikardo asarlarida klassik iqtisodiy maktab eng yuksak kutarildi va jahon iqtisodiy tafakkuriga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Klassik iqtisodiy maktab uchun shu narsa xarakterliki, unda mantiqiy abstraktsiya uslubi yordamida iqtisodiy voqealar imkoni boricha katta ob'ektivlik va xolislik bilan taxlil etildi va mavjud tizimni ataylab ongli maqtash bilan shug'ullanilmadi.

Klassik iqtisodiyotning poydevori qiymatning mehnat nazariyasi asosida qurilgan. Bu ta'limot daromatlarni taqsimlash nazariyasiga ham asos deb qaralgan. Bu maktab birinchi marta o'sha davrdagi ilg'or burjua jamiyatining sinfiy tuzilishini to'g'ri yoritib berdi, kapitalistlar, er egalari va yollanma ishchilarning daromad manbalari ochib berildi (ish haqi). Daromadlar o'rtasida qarama-qarshilik yo'q deb qaraldi.

A.Smit o'z asarida iqtisodiyot fanini har tomonlama to'la tahlil etib, hozirgi davr tili bilan aytganda bozor iqtisodiyoti va uning amal qilish tamoyillarini to'g'ri ko'rsatib berdi. Ular ta'limotining mohiyati qisqacha quyidagilardan iborat: 1. Tanlov va tadbirkorlik erkinligi; 2. Baholarning erkinligi (ya'ni bahoning bozorda talab va taklif asosida shakllanishi); 3. Erkin raqobat; 4. Mulk shakllarining turli - tumanligi va ularning qonun oldida baravarligi (ya'ni davlat, jamoa, xususiy va boshqa mulklarning hayotiyli); 5. Davlatning imkoni boricha iqtisodiyot masalalariga kam aralashuvi.

Klassik (mumtoz) maktab vakillari inson xohishiga bog'liq bo'lmagan ob'ektiv iqtisodiy qonunlarning mavjudligini tan oladilar. Bu qonunda iqtisod tizimida tabiiy turg'unlikni ta'minlashga, o'z-o'zini boshqarishga qodir ekanligi tan olinadi. Shu sababli davlatning iqtisodiyotga aralashuvi iloji boricha inkor etiladi va erkin savdo-sotiq qo'llaniladi. "Ko'rinmas qo'l" yordamida iqtisodiyot avtomatik ravishda erkin bozor munosabatlari doimo rivojlanish qobiliyatiga egadir (ammo bu fikr J.M.Keyns tomonidan rad etiladi).

Birinchi bor erkin bozor iqtisodiy taraqqiyot asosi sifatida to'g'ri ko'rib chiqilgan.

Iqtisodiyotning muhim kategoriyalari bo'lgan qiymat, pul, foyda, baho, ish haqi, renta, kapital va boshqalarga asosan to'la va to'g'ri ta'rif berilgan.

Yangi jamiyatning progressiv tomonlari bilan birga bozor iqtisodiyotining bekamu-ko'st emasligi, uning jiddiy kamchiliklari borligi ham qayd etilgan.

Xulosa

XVIII asr oxiri - XIX asr boshlarida klassik iqtisodiy maktab to'la shakllandi, bu ingliz olimlari A.Smit va D.Rikardlar tomonidan amalga oshirildi. Bu tasodifiy voqea bo'lmay, shu davrda Angliyada ob'ektiv shart-sharoitlar mavjud edi: burjua inqilobi, manufakturadan fabrikaga o'tilishi, agrar islohot, kapitalning dastlabki jamg'arilishi, sinfiy va mulkiy differentsiatsiya va boshqalar.

Birinchi bor erkin bozor iqtisodiyoti taraqqiyotining asosiy tamoyillari aniqlab berildi. Mehnat taqsimoti iqtisodiy taraqqiyot asosi sifatida to'g'ri ko'rib chiqilgan.

Iqtisodiyotning muhim kategoriyalari bo'lgan qiymat, pul, baho, foyda, ish haqi, renta, kapital va boshqalarga asosan to'la va to'g'ri ta'rif berilgan.

Yangi jamiyatning progressiv tomonlari bilan birga bozor iqtisodiyotining bekamu-ko'st emasligi, uning bir qancha jiddiy kamchiliklari borligi ham qayd etilgan. Tayanch ibora va tushunchalar A.Smit; «Ko'rinmas qul»; qiymatning mehnat nazariyasi; mehnat taqsimoti; pul va daromadlar to'g'risidagi ta'limotlar; unumli va unumsiz mehnat; Smit dogmasi; D.Rikardo; qiymat qonuni; ish haqi; foyda renta masalari; nisbiy ustunlik printsipli.

Nazorat va mulohaza savollari.

1. Klassik iqtisodiy maktabning Angliyada vujudga kelishi qanday ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarda ro'y berdi?
2. A.Smit bosh iqtisodiy asari qachon yozib tugallandi va undagi asosiy iqtisodiy g'oyalar nima? Olimning tadqiqot metodologiyasi nimaga asoslanadi?
3. Nima uchun A.Smit manufaktura ishlab chiqarishning mafkurachisi bo'lib qoldi?
4. Mehnat taqsimotining ustunlik tomonlari nima va kamchiligi nimada?
5. «Smit dogmasi» nima? Uning kamchiligi nima?
6. «Lassefaire» va «Ko'rinmas qo'l» tamoyillari nimani anglatadi?

Adabiyot

Asosiy adabiyot

1. Karimov I.A O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., O'zbekiston, 1998
2. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi T., Fan, 1997 (6-bob, 144-178 betlar).
3. A.Razzoqov, Sh.Toshmatov, N.O'rmonov. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. «Darslik». Toshkent. «Moliya»- 2002 y.

Qo'shimcha adabiyot

1. Antologiya ekonomicheskoy klassiki. V dvux tomax T1 M. Ekonov. 1991 (Petti, Smit, Rikardo)
2. Anikin A.V. Yunost nauki. M., Politizdat, 1985.

**4-MAVZU. MAYDA ISHLAB CHIQRISH NAZARIYALARINING
VUJUDGA KELISHI VA XU111-X1X ASRLAR BO`SAG`ASIDA
MUQOBIL
IQTISODIY YO`NALISHLARNING PAYDO BO`LISHI (2 soat)
R E J A**

1. Mayda ishlab chiqarish nazariyalari vujudga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari.
2. Simond de Sismondining iqtisodiy qarashlari va uning nazariyasi.
3. Per Jozef Prudon. Prudonning iqtisodiy nazariyasi.
4. G`arbiy Evropa hayoliy sotsialistlarning iqtisodiy ta'limoti.
- J.B.Sey va T.R. Maltusning iqtisodiy g`oyalari.

**1. Mayda ishlab chiqarish nazariyalarining vujudga
kelishining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari.**

XU111 asr oxiri va X1X asr boshlaridagi sanoat to`ntarishi katta iqtisodiy-ijtimoiy o`zgarishlarga olib keldi. Proletariat bilan burjuaziya jamiyatning asosiy sinflari bo`lib, qaror topdi. Mashina ishlab chiqarishi vujudga keldi Ijtimoiy ziddiyatlar keskinlashdi. Mehnatning kapitalga rasman bo`ysunishi haqiqatga aylandi. Proletariatning qashshoqlashuvi, ishsizlik, ijtimoiy ishlab chiqarishning tartibsizligi, ijtimoiy tabaqalanish kuchaydi. Kapitalistik takror ishlab chiqarish asta-sekin mayda ishlab chiqarishning ijtimoiy negizlarini qo`pora boshladi. Mashina industriyasi iqtisodiyotning umuman o`shishiga, ammo aholi katta qismining qashshoqlashuviga olib keldi, byudjet holatni tushuntirib berish talab etildi va yangi

iqtisodiy qarashlar paydo bo`ldi. Kapitalistik rivojlanishdan orqada qolgan va mayda tovar ishlab

chiqarish ustun bo`lgan sharoitda sanoat to`ntarishi davriga kirayotgan mamlakatlarda bu jarayonlar, ayniqsa, o`tkir tus oldi. Bunday mamlakatlarda go`yoki proletariat manfaatlarini himoya qilib kapitalizmni tanqid qiluvchi qarashlar paydo bo`lishi tabiiy bir xol edi. Mayda ishlab chiqaruvchilar nazariyasini yaratgan olimlar sotsialistlarga ham shuningdek, klassik iqtisodiy maktabga ham bab-baravar qarshi turuvchi ta'limotni ilgari surishga intildilar. Mayda

ishlab chiqarish nazariyotchilari kapitalistik jamiyatda yirik sanoat mayda tovar ishlab chiqarishni siqib chiqarishini, yollanma qullikni kengaytirish bilan bog`liq bo`lgan ko`pgina belgilarni tanqid qildilar, biroq xususiy mulkchilikni, sohibkorlikning erkinligini va shu

kabilarni tanqiddan tashqari qoldirdilar (ya'ni bozor munosabatlari qo`llab-quvvatlangan).

Paydo bo`lgan mayda burjuaziya ijtimoiy-iqtisodiy mavqei mayda ishlab chiqarish,, siyosiy iqtisodning ziddiyatligi va noizchilligini oldindan belgilab qo`ygan edi, uning rivoji bir necha bosqichni o`z ichiga oladi. Avvali insonparvarlik, so`ngra esa xayr-ehson maktabi

shakllandi. Agar birinchi maktab hali kapitalizmdan voz kechishni orzu qilgan, uni chetlab qo`yishga intilgan, proletariatning kulfatlari xususida astoydil ko`z yoshi

qilgan bo'lsa, ikkinchi maktab kapitalizmni isloh qilish loyihasini ilgari surib, hammani o'rta xollarga aylantirmoqchi bo'lgan, u "kichik kapitalizm" tarafdori edi. Mayda ishlab chiqarish nazariyotchilari xayolparast sotsialistlarning g'oyalariga qarshi turar edilar. marksizm ta'limoti ommalashuviga qarshilik qilishga urindilar. Bu oqim uzoq davr mobaynida turli mamlakatalardagi iqtisodiy qarashlarning shakllanishiga katta ta'sir o'tkazib keldi. Bu g'oyalar ayniqsa kam rivojlangan mamlakatlarda uzoq saqlangan.

2. Simond de Sismondning iqtisodiy qarashlari va uning nazariyasi.

Simond de Sismondi (1773-1842) shvetsariyalik iqtisodchi, frantsuz klassik iqtisodiy maktabini nihoyasiga etkazuvchi va ayni vaqtda mayda ishlab chiqaruvchilar iqtisodiy maktabi asoschilaridan biridir. U mo'tabar protestant pastor oilasida tug'ilib voyaga etdi, protestantlar kollegiyasini bitirib chiqdi, Jeneva universitetida o'qidi. Siyosat bilan unchalik ko'p vaqt shug'ullanmadi, Frantsiya ma'naviy va siyosiy fanlar akademiyasining a'zosi etib saylandi. S. Sismondi iqtisod va tarix fanlari sohasida katta ishlarni amalga oshirib, boy ilmiy adabiy meros qoldirdi. "Toskani qishloq xo'jaligining ko'rinishi"(1801), "Savdo boyligi yoki siyosiy iqtisod printsiplari va ularni savdo qonunchiligida qo'llanish to'g'risida"(1803), "Italiya respublikalarining tarixi" (1807), 1818 yilda esa Edinburg entsiklopediyasi uchun "siyosiy iqtisod" maqolasini tayyorladi. Lekin "Siyosiy iqtisod yangi ibtidolari yoki boylikning aholi nufusiga munosabatlari to'g'risida" (1819) kitobining nashr qilinishi uning shuhratini keskin oshirdi. Keyingi yillarda "Siyosiy iqtisoddan etyudlar" (1837) va fundamental tarixiy asarlar "Frantsuzlar tarixi" (31 tom), "Rim imperiyasi qulashining tarixi" va boshqa asarlari nashr qilindi.

S.Sismondi g'oyalarining shakllanishi sanoat to'ntarilishi davri bilan, shuningdek, mayda ishlab chiqaruvchilarining iqtisodiy kuchsizlanishi bilan bog'liq bo'lib, bu esa o'z navbatida kapitalizmni feodalizm ustidan, yirik mashinalashgan ishlab chiqarishni mayda ishlab chiqaruvchilar ustidan g'alabasini anglatar edi. S.Sismondi mayda ishlab chiqaruvchilar tomonida turib kapitalizmni tanqid qilib, mayda tovar ishlab chiqarishga qaytishni orzu qildi.

Sismondi odamlar baxt va tenglikni ta'minlash uchun birlashadilar, degan fikrga asoslandi. Olim klassik maktab g'oyalarini qo'llaydi, ammo taqsimotning ko'pdan-ko'p muammolari xususida o'z fikrini bildirdi. Kapitalni, inqirozlarni, mahsulotni realizatsiya

qilish masalalarini tadqiq etadi, jamiyatni o'zgartirishni mayda burjuacha dasturini ilgari suradi. A. Smitning ta'limotida qiymat va boylikning birdan-bir manbai mehnat deb tahlil qilingan edi. Zarur ish vaqti tushunchasi birinchi bor joriy etildi. Sismondi pul-ichki qiymatga ega bo'lgan mehnat mahsuloti va shu sababli u qiymatning umumiy mezoni tarzida namoyon bo'ladi, degan to'g'ri xulosa chiqaradi. Pulning qadrsizlanishi ortiqcha qog'oz pullar muomalaga chiqarilishi xaddan ortib ketishining natijasi, deb talqin etiladi. Ammo u pulning vujudga kelish jarayonini, uning vazifasini tadqiq etmaydi. Sismondi iste'mol qiymati bilan qiymat o'rtasidagi ziddiyatlarni ko'ra bilgan bo'lsa ham, ammo uning mohiyatini

tushunmadi. U qiymatdan chetga chiqishni qiymat qonunining buzilishi deb hisoblaydi. S. Sismondi ta'biricha, ijtimoy fan ikki qismdan: oliy siyosat va siyosiy iqtisoddan iborat. Agar siyosat davlat tarkibini qanday vujudga kelishini o'rgatsa, fuqarolarni diyonat va din to'g'risida tarbiyalash, siyosiy iqtisod xo'jalikni qanday boshqarishni, ijtimoy tartibni saqlashni hukumatga tavsiya qilishi kerak. Umuman, siyosiy iqtisod-ma'naviy fan bo'lib, u odamlarni xis tuyg'ulari, ehtiyojlarini va ehtiroslarini o'rganishi kerak. S. Simondining fikricha "odamlarning moddiy farovonligi, inson tabiati" siyosiy iqtisod predmeti bo'lishi kerak, "odamlarning moddiy farovonligi esa" davlatga bog'liq, S. Sismondi siyosiy iqtisod predmetini davlatning iqtisodiy siyosati bilan aini bir narsa deb biladi, uni sinflardan ustun turadigan fan deb talqin etdi. U ishlab chiqarish munosabatlari, iqtisodiy qonunlarni bilish zarurligini inkor qiladi. U insonning fe'l-atvorini birinchi o'ringa qo'ydi.

S. Sismondi uslubiyatiga quyidagilar xosdir:

- 1) ijtimoy-iqtisodiy jarayonlarni sub'ektiv-idealistik talqin etish;
- 2) ilmiy abstraktsiya usulining yo'qligi;
- 3) tarixdan tashqari yondashuv;
- 4) ayirboshlash kontseptsiyasi ustunligi. Mayda ishlab chiqaruvchilar nazariyatchisi bo'lgan

S. Sismondi iqtisodiy qonunlarning sub'ektiv xarakterini tan olmadi. U kapitalistik iqtisodiyot notekis rivojlanishini xaqli ravishda ko'rsatgan bo'lsa ham, bu narsa iqtisodiy qonunlar amal qilinishining o'ziga xos tarzida namoyon bo'lishi ekanini ko'ra bilmadi. S. Sismondi klassik maktabga qarama-qarshi o'laroq, mayda tovar ishlab chiqaruvchilarning xonavayron bo'layotganligini " ortiqcha" aholi paydo bo'laётganini, mashinalar ishchilarni siqib chiqarayotganini ko'rsatdi. S. Sismondi klassik maktabning inqirozlar bo'lishi mumkin

emas va kapitalizm ziddiyatlar nima ekanligini bilmaydi degan mulohazalarini tanqid qildi. Uning tarixiy xizmati mana shundan iborat. Olim o'z g'oyasini isbotlashda ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi tafovutni 1-o'ringa qo'yadi. Yirik ishlab chiqaruvchilar iste'moli pasayadi, oqibatda mamlakat va dunyoda inqiroz ro'y beradi, deydi u. Shuning uchun yirik ishlab chiqarishni to'xtatish va mayda ishlab chiqarishga qaytishni taklif etadi, kapitalizmni inkor etadi.

S. Sismondi yakka tartibdagi daromadlardan, boyliklardan olingan foyda va ishchi ish haqining yig'indisi bo'lgan daromad muammosiga o'tadi. Bu milliy daromad bilan yalpi maqsulotni aynan bir narsa deb bilganligi uning asosiy nazariy xatosidir. Agar u birlamchi mahsulotda

A. Smit izidan borib, uch qismdan: xom material va mehnat qurollarining o'rni qoplanishini, ish xaqi va foydani ajratgan bo'lsa yig'indi maxsulotda faqat so'nggi qismni ajratadi. Doimiy qism yo'q bo'lib ketadi. Kapital deganda S. Sismondi ishlab chiqarish zapaslarini (ishlab chiqarish vositalarini) tushunadi. U kapital jamg'arilishini tejamkorlik bilan bog'laydi, S. Sismondi asosiy (mashinalar, ish qurollari) va aylanma (urug'lik, xomash'yo, ish haqi) kapitalini bir-biridan ajratib A. Smitning hamma xatolari va yutuqlarini takrorlaydi. U kapitalni doimiy va

o'zgaruvchi kapitalga ajrata bildi. Oxir oqibatda Sismondi kapitalni milliy daromaddan farqini izohlay olmadi va uning ustiga Smitning shu ikki o'rtadagi tafovutini nazariy jihatdan isbotlash yo'lidagi intilishlarini pisand qilmay, orqaga qadam tashladi. "Uchinchi shaxslar" nazariyasi Sismondi nazariy qarashlarida asosiy o'rinni egallaydi, u ishlab chiqarish va ijtimoiy daromad hajmlarining birligini ijtimoiy mahsutotni to'la-to'kis realizatsiya qilishning asosiy sharti deb hisoblaydi. "Uchinchi shaxslar" yana mayda ishlab chiqaruvchilarga madad berishiga umid bog'laydi, turli

mamlakatlarning hukumatlariga murojat etib, ularning kapitalistik rivojlanishini to'xtatsinlar, deb so'raydi (masalan, Napoleondan) Jamiyat mayda ishlab chiqarishga qaytgan taqdirdagina go'yo mo'l-ko'lchilik boshlanar emish (mulkni bo'lish kerak). Ishlab chiqarish bilan taqsimot o'rtasidagi ziddiyatni shaxsiy istemolning takror ishlab chiqarish jarayonlari uchun muhimligini tan olganini Sismondi o'rtaga tashlagan kontseptsianing ijobiy jihatidir. Sismondi kapitalistik yo'ldan voz kechishni taklif qildi. Kapitalizmni tartibga solishga, ishchilar bilan kapitalistlar o'rtasidagi patriarxalchilik munosabatlarini o'rganishga, ishchilarni foydani taqsimlashda qatnashtirishga ishsizlar, invalidlar haqida g'amxo'rlik qilishda va buning uchun maxsus fondlarni vujudga keltirishga, mayda ishlab chiqarishni saqlab qolish va qo'llab-quvvatlashga,

manufakturagacha bo'lgan yirik mulkchilikni ko'p sonli kapitalistlar o'rtasida taqsimlashga chaqirdi. U yollanma ishchilarni ham mulkdorlar safiga qo'shishni orzu qildi. Sismondi davlatning yordamiga umid qildi. Bu g'oyalar insoniy jihatdan sog'lom, ammo amalga oshmas fikr edi. Uning ijtimoiy tadbirlar dasturi reaksiya - xayolparastlik xarakteriga ega. Sismondi ob'ektiv tarixiy jarayonga to'sqinlik qilishga urinadi. O'z mulohazalarini Frantsiyada hali ham kuchli bo'lgan feodal tuzum ximoyachilariga qo'l kelishini sezmaydi.

Per Jozef Prudon (1809-1855)- frantsuz publisisti, mayda ishlab chiqaruvchilar nazariyatchisi, kambag'al kosib oilasida tug'ilgan. Moddiy jixatdan nochorligi sababli kollejdagi o'qishni bitira

olmagan. Sherik hamkorining mablag'i hisobiga kichik bir bosmaxonani ishlatgan. Zo'r berib o'z maxsulotini oshirish bilan shug'ullangan. Ilm- fanni o'rganishni avvalo muxtojlikdan qutilish usuli deb biladi. K. Marks bilan shaxsan tanish bo'lgan. P. Prudon feodalizmga qaytib bo'lmaslikni, kapitalizmni tan oladi. Ammo u mayda ishlab chiqarishni saqlab qolishni taklif qiladi. P. Prudon qarashlari butun tuzum reformizmi, ishchilar sinfiga dushmanlik ruhi bilan sug'orilgandir. P. Prudon proletariatning o'z siyosiy va iqtisodiy manfaatlari uchun kurashiga qarshi. U ishchilarning ish tashlashini g'ayri qonuniy deb e'lon qiladi. P. Prudon avval kapitalizmning tanqidchisi bo'lib maydonga chiqdi. "Mulkchilik nima" (1840) degan asari unga zo'r shuhrat keltirdi. Bu asarda hali Prudonning amaliy dasturi bayon qilinmagan edi.

"Iqtisodiy ziddiyatlar sistemasi yoki qashshoqlik falsafasi" asarida P. Prudon kapitalizmni isloh qilishning amaliy dasturini ishlab chiqishga, siyosiy kurashning bexudaligi va davlat xokimiyatiga extiyoj yo'qligi to'g'risidagi anarxiyachilik qarashlarini asoslashga urindi,

Frantsiya xukmdorlarini o'zining siyosiy xayrixohligiga ishontirishga urindi.

P. Prudonning nazariy qarashlariga xos xususiyatlar quyidagilar:

- 1) sub'ektivizm;
- 2) iqtisodiy qonunlar ob'ektivligini inkor etish;
- 3) "eklektizm" (fikrlar korishmasi);
- 4) mantiqiylikning tarixiylikdan ajralib qolishi;
- 5) "iqtisodiy kuchlar", mehnat taqsimoti, raqobat, ayirboshlash, kredit, mulkchilik kabi muhim nazariyalarning mavjudligi;
- 6) ayirboshlash nuqtai nazaridan yondoshdi. P. Prudon siyosiy iqtisodni "aql-zakovotning abadiy qonunlari" to'g'risidagi fan deb bildi, iqtisodiy xodisalarga nemis faylasufi Gegelning dialektikasi nuqtai nazaridan qaraydi. Prudon Sismondi kabi mayda ishlab chiqarishni qo'llaydi, ammo kapitalizmni (yirik ishlab chiqarishni) islohotlar yo'li bilan to'g'rilash mumkin, degan xulosaga keladi. P. Prudon o'zining mayda ishlab chiqaruvchilar kontseptsiyasini maydonga tashlar ekan, juda ko'p masalalar xususida fikrlarni bayon etadi. Mehnat taqsimoti, tovarning xususiyati, ish haqi, mulkchilik, kapital, foyda, foiz, qiymat va boshqa muammolarni o'z iqtisodiy romantizm pozitsiyalarida turib aktiv tadqiq qiladi. "Belgilangan qiymat" nazariyasini P. Prudon o'zining butun iqtisodiy negizi deb hisoblaydi. Bunda klassik maktabdan o'zib ketish pinxona istagini emas, shu bilan birga, iqtisodiy o'zgarishlarning yo'llarini belgilab berish istagi namoyon bo'ldi. Binobarin, tovar ishlab chiqarishning hamma qiyinchiliklarini bartaraf qilish uchun har bir tovarga "belgilangan" qiymat qo'yib qo'yish yoki uni bozarda sotilishga kafolat berish, tovar bilan pul o'rtasidagi ziddiyatni tugatish zarur. P. Prudon tilla bilan kumushni "belgilangan" qiymatga ega bo'lgan dastlabki tovarlar deb ataydi. U pulga qarshi edi, ammo davlat banki tuzish, «Ishchi puli» (talon)ni joriy qilishni taklif etadi, aholi o'z mahsulotini bankka topshirib, ishchi puli oladi va unga kerakli boshqa mahsulotlarni oladi, maqsad iste'mol mollari ishlab chiqarishni qo'llashdir. Aslida esa Prudon o'z g'oyasiga qarshi chiqmoqda.

4.G'arbiy Evropa xayoliy sotsialistlarining iqtisodiy ta'limoti.

Sotsialistik jamiyat qurish g'oyasi XVI asrda T.Mor va T. Kompanella tomonidan kapitalning dastlabki jamg'arilishi davrida vujudga keldi. Ular xususiy mulkni inkor etishgan, 4-6 soatli ish kuni joriy etishni taklif qilgan. Sanoat to'ntarilishi davrida frantsuz olimlari Sen-Simon va

Fure hamda ingliz R.Ouenlar bu masalaga qaytdilar. Anri Klod de Rebrua Sen Simon (1760-1825) Frantsiya hayoliy sotsializmining namoyondasi bo'lib, 1789-1794 yillardagi frantsuz

revolyutsiyasi bilan zamondosh edi. U aristokratlar oilasidan kelib chiqib quyidagi mashhur asarlarning muallifidir: « Sanoat sistemasi haqida » , «Inson haqidagi fan ocherklari» , «Sanoat yoki siyosiy, ma'naviy va falsafiy mulohazalar», «Yangi xristianlik» va boshqalar.

Sen-Simonning bo`lajak adolatli jamiyati «industrial sistema» deb nomlanib, u industrial jamiyat yirik sanoat ishlab chiqarishi asosida rivojlanadi, sanoat - alohida reja asosida, boshqaruv esa -

yagona industrial markaz orqali amalga oshiriladi, deb hisoblagan edi. Sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish va mahsulotlarni taqsimlash olimlar tomonidan olib boriladi. Katta tajribaga ega

bo`lgan sanoat kapitalistlari boshqaruvni tashkil qilish bilan mashg`ul bo`ladilar, ishchilar esa ishlab chiqarish rejalarini bajarish uchun astoydil mehnat qilishlari zarurdir. Sen-Simon yangi ijtimoiy tashkilotni vujudga keltirishda ayniqsa sanoatda anarxiyaga (hokimiyatsizlikka) yo`l qo`ymaslikka va reja asosidagi markaziy boshqaruvga katta e'tibor berishni taklif qiladi.

Sen-Simonning yangi industrial sistemasida xususiy mulkchilik, kapital jamg`arish, bankirlar va tadbirkorlar sinflari hali mavjud edi. Bu esa o`z navbatida umumxalq mehnatiga asoslangan rejali keng ishlab chiqarishni inkor etadi. Sen-Simon asarlarining asosida kapitalizmni tanqid qilish

yotadi. U ishlab chiqarish va taqsimotdagi anarxiyani, raqobat, xalq ommasi qashshoqlashuvi va ishchilarning ayanchli ahvoldaligini kapitalizm illati deb hisoblaydi. Frantsuz hayoliy sotsializmining yana bir yirik namoyondosi Fransua Mari Sharl Furedir (1772-1837). Sh. Fure o`zining «To`g`ri harakat va mushtarak taqdirlar nazariyasi», «Umumiy birlik nazariyasi»,

«Savdo qallobligi haqida», «Yangi sanoat dunyosi va ijtimoiy dunyo» nomli asarlari va qator maqolalarida kapitalistik jamiyatni keskin tanqid qildi va ijtimoiy adolatli jamiyat barpo etish dasturini ishlab chiqdi. Uning tasvirlashicha, inson o`zi yashayotgan jamiyatning barcha yaramas

illatlaridan tozalanishi lozim, shunday ijtimoiy tuzum o`rnatish kerakki, bu tuzum inson kamol topishiga, extiroslarini to`liq namoyon qilishga, ehtiyojlarini qondirishga imkoniyat bersin.

Fure sistemasida xususiy mulkni saqlagan holda, jamiyat falangalari bo`linadi. Barcha daromad 12 qismdan iborat bo`lib, uning 5 qismi kapital egasiga, 4 qismi ishchilarga va 3 qismi yaxshi

ishlaganlarga mukofot sifatida berilishi kerak. Aqliy va jismoniy mehnat (sanoat va q.h.) almashib turadi. Birgalashib ovqatlanish, bolalarni tarbiyalashda jamiyat roliga alohida

e'tibor beriladi. Angliya xayoliy sotsializmining vujudga kelishi va rivojlanishni Robert Ouen (1771-1858) hayoti va ijodiy faoliyati bilan bog`liqdir. U Shimoliy Uelsda hunarmand oilasida dunyoga keldi. Maktabni tugatgach, o`zi mustaqil shug`ullangan, yoshlik yillaridayoq mehnatkashligi, tadbirkorligi bilan ajralib turgan. R. Ouen 1800 yildan boshlab, yigiruv korxonasida boshqaruvchi bo`lgan. O`sha yillarda insoniyatni qutqarishni maqsad qilgan, unda islohotchilik g`oyalari shakllandi. Biroz keyinroq (1820 yildan boshlab) hayoliy sotsializmga xos bo`lgan fikrlar va tashviqotga asosiy e'tiborni qaratdi. R. Ouenning «Jamiyatga yangicha qarash yoki xarakterni shakllantirish haqida tajribalar», «Yangi ahloqiy dunyo kitobi», «Adolatni almashuv bozori», «Ulug` milliy hunar ittifoqi» asarlarida uning sotsialistik loyihalari bayon etilgan. R. Ouen iqtisodiy qarashlarining xarakterli xususiyati shundan iboratki, u frantsuz hayoliy sotsialistlaridan farq qilib, o`z

nazariyalarini yaratishda Rikardoning qiymatning mehnat nazariyasiga tayanadi. Qiymatning asosiy manbai deb mehnatni hisobladi. Xususiylar mulkka qarshi chiqadi. R. Ouen qiymatning so'nggi o'lchovi bo'lmish puldan voz kechib,

mehnat xarajatlarining ekvivalenti sifatida - «ishchi pullarini» joriy etishni taklif etadi. U kapitalistik ishlab chiqarishni qaytadan tuzib, «ishlab chiqarish uyushmalarini» tashkil etishga harakat qildi. R. Ouen birinchilar sifatida T. Maltusning «aholi nufusi» qonuniga qarshi chiqdi. U mehnatkashlarning og'ir ahvolda tushib qolishlariga aholi soni ortib borishi emas, balki mavjud mahsulotlarning adolatsiz taqsimlanishini sabab qilib ko'rsatadi. R. Ouen hayoliy sotsializmi va uning islohotchilik faoliyati qarama-qarshi xarakterdadir. U ishchilarning manfaatlarini himoya

qilib, boylik mehnatda yaratiladi deb ko'rsatish bilan birga, ayni vaqtda ishchilarga e'tiborsiz passiv rol belgilaydi, kapitalistlarni esa asosiy kamchiligi qoniqarsiz tarbiyada deb, ularni oqlashga harakat qildi. 5. J. B. Sey va T. R. Maltusning iqtisodiy g'oyalari. XVIII asr oxiri - XIX asrda ro'y bergan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar oqibatida iqtisodiy ta'limotlarda ham klassik iqtisodiy maktabni qayta ko'rib chiqish, zamonga moslash istaklari bilan o'ziga xos muqobil (alternativ) g'oyalar yuzaga kela boshladi.

Frantsiyalik Jan Batist Sey (1767-1832) g'oyalari yangi yo'nalishni ko'rish mumkin. Uning «Siyosiy iqtisod risolasi» (1803), «Siyosiy iqtisod katexizi» (1817), «Siyosiy iqtisod kursi» (1828-30) asarlarida A. Smit g'oyalari qo'llab-quvvatlanadi, ammo qiymat va daromadlar

masalasida «Foydalilik nazariyasi» ga asos solinadi. U qiymatni iste'mol qiymati bilan aynan tushunadi (A. Smitda almashuv qiymati ham bor). U har qanday ekspluatatsiyani inkor etadi, garmoniya (uyg'unlik) ni «isbotlaydi». Seyning eng muhim kashfiyotlaridan biri «Sey qonuni», «Bozorlar qonuni» yoki «Sotish nazariyasi» hisoblanadi. Uning fikricha, «taklif shunga mos talabni yaratadi», oqibatda ortiqcha ishlab chiqarish inqirozlari «printsipda bo'lmasligi» go'yo isbotlanadi, ya'ni taklif avtomatik ravishda talabni vujudga keltiradi, mahsulot darhol

realizatsiya qilinadi. Ammo Sey o'z hayoti davomida bu fikrning unchalik to'g'ri emasligini ko'radi, 1825 yili Angliyada tarixda birinchi marta kuchli iqtisodiy inqiroz ro'y beradi va takrorlanib turadi. Ishlab chiqarish va xarid qilish vaqt va makon jihatdan ajralib turadi, shu tufayli inqirozlarga abstrakt imkoniyat tug'iladi (J. M. Keynes ta'limotiga qarang). Ingliz iqtisodchisi Tomas Robert Maltus (1766-1834) ming asosiy asarlari «Aholi nufusi qonuni to'g'risida tajriba» (1798), «Er rentasining tabiati va o'sishi to'g'risidagi tajriba» (1815), «Siyosiy iqtisodning boshlanishi» (1820) asarlarida «aholi nufusi» nazariyasi va «Tuproq unumdorligini pasayib borish qonunlari» ni «kashf» etdi. Uningcha tirikchilik vositalariga nisbatan aholining doimo tezroq ko'payishga intilishi «aholining nufus qonuni» dir, bu qonun jamiyat paydo bo'lganidan buyon mavjud bo'lib, doim va qudratli harakatdadir. Aholining ortiqcha qismi zarurat tufayli ochlik, yalong'ochlik va qirilishga mahkum etilgan. Maltusning fikricha, qashshoqlikning asosiy va doimiy sababi, boshqarish tarzi yoki mulkning notekis taqsimlanishiga xech ham bog'liq

emas, bu jarayon «Tabiiy qonunlar va insoniy xirs», tabiatning nochorligi va insoniyatning favqulotda tez ko'payishi bilan bog'liqdir. Shu sababli xalq azob uqubatlari uchun o'zini- o'zi ayblashi kerak. Uni to'g'rilashga hech qanday inqilob va sotsial islohotlar yordam bera olmaydi. Bunda faqat bitta to'g'ri yo'l bor - bu aholi sonini qisqartirish. Uningcha ko'payishning oldini olish vositasi, chorasi sifatida «ahloqiy chidam» (kambag'allar nikohdan o'zlarini tiyishlari, kech turmush qurishlari), og'ir mehnat yoki turli baxtsizliklar (ochlik, qashshoqlik, kasallik, epidemiya, urush va boshqalar) qo'llab-quvvatlanadi. Maltusning fikricha tabiiy biologik instinktga ko'ra, insoniyat ko'payish imkoniyatiga ega va doimo shunga intiladi, ammo jonivor va o'simliklar qarama-qarshi ravishda bu jarayonni cheklash imkoniga ham ega bo'lib, hayvonot dunyosidan ajralib turadi. Shunday qilib, Maltus ta'limoti bo'yicha kapitalizm illatlari insoniyatning beixtiyor qismatidir. Nazariy jihatdan bu fikrlarda hech qanday ilmiylik yo'q. Bu «qonun»dagi asosiy g'oyalar ungacha bo'lgan olimlardan to'g'ridan-to'g'ri o'g'irlangan, chunki o'z davrida Styuart, Uolles, Taunsend va boshqalar bu masalani yoritgan edilar. Maltusning bu nihoyatda reaksion xulosalari qattiq tanqidga uchradi. Tug'ulishni kamaytirish uchun u nikoh yoshini oshirishni, davlat tomonidan bolalarga beriladigan nafaqalarni butunlay bekor qilishni taklif etdi. Maltus bu tanqidlardan xulosa chiqarib, 1820 yilda o'z asarini qayta ishlab chiqdi va unda o'z fikrlarini ancha yumshatishga intildi; ayniqsa ustiga dam-badam yog'ilib turadigan va aholini o'linga mahkum etadigan balo-ofatlarni zaruriy deb hisoblashdan voz kechdi va kechirim so'radi, uni noto'g'ri tushunganliklarini aytib o'tdi, ammo u o'zining bosh fikridan qaytmadi. Maltus «doktrinasini» avvalo metodologik jihatdan noto'g'ri edi, chunki hech qanday isbotsiz tabiat qonunlari jamiyat hayotida qo'llaniladi, vaholangki insonlar o'simlik va hayvonot dunyosidan farqli o'laroq, faqat iste'mol qilmaydilar, balki o'zlari ishlab chiqadilar va tirikchilik vositasini ko'paytirish imkoniyatlariga egadirlar. Maltus progressiyalari statistik va amaliy (faktik) materiallarni ochiqdan-ochiq sohtalashtirishdir(falsifikatsiya). Unda berilgan ma'lumotlar AQShning XVI-XVIII asrlardagi aholi o'sishiga nisbati sifatida keltiriladi, bu mamlakat aholisining asosan Evropa aholisining emmigratsiyasi hisobiga ko'payganligi haqidagi «arzimas» fakt esa hisobga olinmagan (tabiiy o'sishi bor, emmigratsiya bor).Maltus iqtisodiyotining bir qancha boshqa masalalari bo'yicha ham o'z fikrlarini beradi, uning ayniqsa qiymat, foyda va realizatsiya bo'yicha g'oyalari diqqatga sazovardir. Maltus o'z masalalarini hal etishda D. Rikardoning g'oyalariga qarshi chiqdi va bunda A.Smitdan foydalanadi. Uningcha tovarning qiymati shu tovarni sotib olishga ketgan mehnat bilan aniqlanadi. Maltus g'oyasining «yangiligi» shu «qimmat o'lchovi»ni izohlashdir. Smitning fikricha, tovarni sotib olish uchun sarflangan mehnat uni ishlab chiqarishga ketgan mehnatga tengdir. Maltusning fikricha, tovarlardagi mehnat miqdori uni ishlab chiqarishga ketgan xarajatlardan iborat bo'lib, bu ko'rsatkich tirik va jonsiz mehnat plyus avanslangan kapitalga foydadan jamlanadi Bunda qiymatning hosil bo'lishi ishlab chiqarish sohasidan muomala sohasiga ko'chiriladi, iste'mol qiymati esa almashuv qiymati bilan

qorishtirilib yuboriladi. Maltus tovarning qiymatini ishlab chiqarish xarajatlaridangina iborat deb ko'rsatadi va xaridor tovar sotuvchiga ish haqidan tashqari foydani ham to'lashi kerak, deb o'ylaydi, foyda tovarning qiymatiga nominal qo'shimcha deb hisoblanadi. Foyda mehnatdan ajratib qo'yiladi, ya'ni kapitalistning foydasi qo'shimcha emas, balki tovarni o'z qiymatidan ortiqqa sotish tufayli payda bo'ladi, noekvivalent ayriboshlashning mavjudligi isbotlanadi. Shunday qilib, aslida merkantilizm g'oyalariga qaytish ro'y beradi, qiymatning hosil bo'lishida mehnatning roli ikkinchi darajali qilib ko'rsatiladi. Maltus g'oyalaridagi bu ilmiy chalkashliklarga qaramasdan, unda bir qancha ijobiy fikrlar mavjud. Hozirgi davrda rivojlanayotgan mamlakatlardagi og'ir ahvolni tushuntirishda bu olimning qarashlariga asoslanish mumkin. Ayniqsa Janubiy Koreya davlatining rivoji xarakterlidir. Agar bu erda 1950-60 yillarda aholi o'sishi yiliga 3% ni tashkil etgan paytda, iqtisodiy rivojlanish past bo'lgan bo'lsa, 90- yillarda aholining o'sishi 1%ga tushgan paytga kelib, iqtisodiy o'sish keskin oshdi. Markaziy Osiyo mamlakatlarida ham aholining o'sishi katta bo'lib, iqtisodiy rivojlanish muammolarini hal etishda bu olimning ba'zi g'oyalaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Xulosa

Mayda ishlab chiqaruvchi nazariyotchilar kapitalizmni, to'g'rirog'i yirik ishlab chiqarish tomonidan har tomonlama keng o'rganilishi iqtisodiy ta'limotlar tarixida bu maktabning munosib o'rnini belgilab berdi. S.Sismondi va uning g'oyalari sanoat inqilobi, kapitalizmning nihoyatda tez sur'atlarda rivojlanish davrida birinchilardan bo'lib, shu jamiyat iqtisodiy negizini va ijtimoiy tuzumini tahlil qilishda o'z aksini topdi. Kapitalizmning ijobiy tomonlari bilan birga salbiy jihatlari ham ochib berildi. P.J. Prudonning mayda ishlab chiqarish g'oyalari Frantsiyada va G'arbiy Evropaning boshqa mamlakatlarida keng yoyildi. Prudon qarashlarida ham ikkiyoqlamalilik va fikrlar qorishmaligini uchratishimiz mumkin. Shunday bo'lsa xam prudonizm g'oyalaridan kapitalizmni isloh qilish to'g'risidagi fikrlardan hozir ham sotsial isloxotchilik ayrim ko'rinishlari keng foydalanmoqdalar. XU111 asr oxiri -X1X asr o'rtalarida klassik iqtisodiy maktabga muqobil iqtisodiy g'oyalar paydo bo'la boshladi va hozirgacha davom etmoqda. Bunday bo'lishning birinchi sababi dialektik rivojlanish bo'lsa, ikkinchidan klassik maktab g'oyalari ham, ya'ni bozor iqtisodiyoti tamoyillarining bekamu-ko'st emasligida, shart-sharoitga qarab u yoki bu tamoyilning amaliy ta'siri xar xil bo'lishidadir. Ayrim olimlar bo'layotgan qiyinchiliklarga aholining o'zi aybdor, chunki uning ko'payishi tez, tirikchilik vositalari esa sekin o'sishi tabiiy bir hol, deyдилar (Maltusning "nufus nazariyasi"). Bu fikr boshqa g'oya - "tuproq unumdorligining pasayib borishi" nazariyasiga olib keldi. O'z g'oyalariga teskari "uchinchi shaxslar" nazariyasi vujudga keldi, ishlab chiqarmaydigan sinflar ravnoq asosi qilib ko'rsatiladi.

Tayanch ibora va tushunchalar

Mayda ishlab chiqarish va uning imkoniyatlari; yollanma mehnatning kengayishi; Sismondi uslubiyoti; Sismondi milliy daromad va kapital to'g'risida;

"uchinchi shaxslar" nazariyasi; Prudonning kapitalizmni isloh qilish kontseptsiyasi; qiymatning abadiy g'oyasi (talab va taklif); belgilangan qiymat.

Nazorat va mulohaza savollari

1. Mayda iqtisodiyot nazariyotchilariga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
 2. S.Sismondining metodologiyasiga xos xususiyatlar nimalardan iborat? Uning fikricha boylikning manbai nima?
 3. S.Sismondi kapitalizmni qanday tarzda tanqid qildi?
 4. Prudon o'z ta'limotida qanday iqtisodiy muammolarga e'tibor bergan?
- J.B. Seyning asosiy iqtisodiy g'oyalari nimadan iborat? Qiymat tushunchasi nima bilan almashtiriladi?
6. T.R.Maltusning iqtisodiy ta'limoti, uning «aholi nufusi» nazariyasi mohiyatini tushuntirib bering.

Adabiyot

Asosiy adabiyot

1. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., O'zbekiston, 1998.
2. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. T., Fan, 1997 (7-bob, 179-195- betlar).
3. A.Razzoqov, Sh.Toshmatov, N.O'rmonov. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. «Darslik». Toshkent. «Moliya»- 2002 y.

Qo'shimcha adabiyot

1. Anikin A.V. Yunost nauci. M., Politizdat, 1985.

5- MAVZU. XIX ASR IKKINCHI YARMI- XX ASR BOSHIDAGI JAXON

IKTISODIY

GOYALARI MOXIYATI. (2 SOAT)

REJA

1. Marksizm vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari.
2. K.Marks va F.Engels iqtisodiy g'oyalarining mohiyati.
3. V.Leninning sotsialistik jamiyat iqtisodiyoti to'g'risidagi g'oyalari.
4. Markscha iqtisodiy g'oyalarning tarixiy taqdiri.

1.Marksizm vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari.

Angliya, Frantsiya, Germaniya kabi Evropa mamlakatlarida XIX asr boshlaridayoq kapitalistik munosabatlar etakchilik mavqeini egallay boshladi. Mashina industriyasi tufayli sanoatning iqtisodiyotdagi o'rni beqiyos oshdi. Biroq mazkur o'zgarishlar tekis va ravon amalga oshirilmayotganligi xam oydinlasha bordi. 30-40 yillarda vuddistlar va chartistlar (Angliya) harakati, 1831-1834 yy. Lion (Frantsiya) va 1844y. Sileziya (Germaniya) dagi to'quvchilar qo'zg'olonlari bo'lib o'tdi. Mehnatkash xalqning kapitalizmga nisbatan noroziligi va nafrati ko'payib bordi. Ish vaqtining uzunligi, maoshning kamligi, mulkiy va sinfiy tabaqalashuvning kuchayishi, ishsizlik, iqtisodiy inqirozlar noroziliklarning sabablari edi.

Ayni paytda, mehnatkashlarning qashshoqlashuvi jarayonini kuchayishi bilan bir qatorda nisbiy ortiqcha ishlab chiqarish mavjudligi oddiy holga aylanib qoldi. Mavjud ziddiyat va illatlar echimi A.Smit,

D.Rikardo, Sey, Prudon kabilarning tadqiqotlarida o`tkinchi va nojiddiy holda zamonga moslashtirish nuqtai nazaridan talqin etildi. Xayoliy sotsialistlar (Sen-Simon, Sharl Fure va R. Ouen) faoliyatida esa, mavjud tuzum negizlarini (xususiyl mulkchilik, sinfiyl tabaqalashuv) o`zgartirmay jamiyatni isloh qilish yo`li bayon etiladi. Mavjud tadqiqotlar ishchilarning kapitalistik munosabatlarga nafrati bilan bog`liq muammolar echimini topishda etarli bo`lmay qoldi. Bu esa kapitalizm tubdan islox qilish sohasidagi yangi tadqiqotlarni yuzaga keltirdi.

K.Marks va F.Engels asarlarida bunday tadqiqot amalga oshiriladi. V.I.Lenin esa Markscha g`oyani kapitalizm rivojining keyingi bosqichiga bog`lab rivojlantiradi.

2.K.Marks va F.Engels iqtisodiy g`oyalarining mohiyati.

K.Marks(1818-1883) va F.Engels (1820-1895) iqtisodiy g`oyalarning manbaini "klassik iqtisodiy maktab" vakillari (A.Smit va D.Rikardo) ning asarlari tashkil etadi. Chunki klassik maktab vakillarining tadqiqot predmetini ham qiymatining ham qiymatning mehnat nazariyasi, doimiy va o`zgaruvchan kapital, foyda normasining pasayishi qonuni, mehnat unumdorligi to`g`risidagi qoidalar tashkil etadi. "Kapital" asari K.Marks va F.Engels g`oyalarining batafsil majmui hisoblanadi. Asarning birinchi tomi 1867 yilda nashr etilgan. 11 va 111 tomlari esa (1885 va 1894) keyin nashr ettirilgan. Ikkala olimning iqtisodiy g`oyalari bir-biri bilan chambarchas bog`liq. Masalan, "Anti-Dyuring" asarining iqtisodiy qismida Engels kapitalizmning ashaddiy dushmani sifatida tahlil etadi. Ularning fikricha asosan XU1 asrdan manufaktura bilan bog`liq boshlangan kapitalizm ishlab chiqarish vositalariga xususiyl mulkchilik va boshboshdoqlik tufayli jamiyatni insonparvarlik va demokratiyadan uzoqlashtiradi. Kapital kategoriyasi ishchiga zolimlik va ishchi kuchiga xukmronlik vositasi ma'nosida talqin qilindi. Bu ma'noni quyidagi taqqoslashdan ham kuzatish mumkin.

Klassik maktab vakillari va ularning tarafdorlari iqtisodiy g'oyalarida (A.Smit).	Marks va Engels g'oyalari
1.Kapitalizmni tartibga solish mumkin va u taraqqiy eta boradi	1.Kapitalizm qobig'i jamiyatdagi ziddiyatlar va illatlar tufayli portlaydi.
2.Insoniyat ovchilik va baliqchilikning ilk va sodda jamiyatidan oliy jamiyat sari boradigan yo'lni bosib o'tdi	2.Insoniyat tarixi sinflarning to'xtovsiz kurashi zolim va mazlum sinflarning angonistik raqobati hisobiga rivojlanadi.
3.Kapitalizm uzoq vaqt davomida shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar uy g'unligini ta'minlaydi.	3.Sinfiy kurash, antogonistik ziddiyatlar ish haqi va foyda o'rtasida qarama-qarshilik kapitalizmni o'zgartiradi va yakson qiladi.
4.Ayrim shaxslar va jamiyat manfaatining mos tushishi-"ko`rinmas qo`l" orqali tartibga solib turiladi.	4.Ishlab chiqarish vositalari markazlashuvi va mehnatning ijtimoiylashuvi kapitalizmni inqilobiy yo`l bilan boshqa jamiyatga o'tishini taqozo etiladi.
5.Xususiy mulkchilik himoya qilinadi.	5.Umumhalq mulki afzal deb Hisoblanadi.

Kapitalning organik tuzilishi S(SQU) yoki U(SQU) shaklida ifodalangan. Bunda ?-asosiy (doimiy) kapital, U-aylanma (o'zgaruvchan) kapitalni anglatadi. Marks iqtisodiy g'oyalarining asosiy qo'shimcha qiymat nazariyasi tashkil etadi. Bunda S-qo'shimcha qiymat. Qo'shimcha qiymatning paydo bo'lishi quyidagicha asoslangan. Kapitalizm ishchi kuchi tovar sifatida sotishga majbur bo'ladi. Bozor ishchi kuchi ma'lum bahoda sotiladi va sotib olinadi.

Marks fikricha yollanma ishchining ishchi kuchiga belgilanadigan baho ish haqqiga teng bo'ladi. Aslida, ishchi kuchi bajargan mehnat natijasida ish haqidan ortiq qiymat yaratiladi. Ishchi kuchi yaratgan qiymat bilan ishchi kuchi

bahosi orasidagi farq qo`shimcha qiymatni, ya'ni haq to`lanmagan mehnatni hosil qiladi.

Foyda esa, haq to`lanmagan mehnatning bir qismidan iborat bo`ladi. Qo`shimcha qiymat ish soatlarini cho`zish (absolyut) yoki zaruriy ish vaqtini yoki ikki mehnat unumdorligini oshirish (nisbiy hisodga)

vujudga kelishi ham bayon etilgan. Marks va Engels g`oyalari xalq ommasining absolyut va nisbiy qashshoqlashuvi masalasi, bazis va ustqurma, takror ishlab chiqarish xususiyatlari va boshqa iqtisodiy tushunchalar ko`rib chiqilgan. Ularning g`oyalari o`sha davrlardayoq muxoliflar tomonidan (Yu.Volf, V.Leksis, A.Aorisni) qattiq tanqidga uchragan. Marks va Engels g`oyalarining hayotiy emasligi va tajovuzkorligi tasdiqlanganligidan qat'iy nazar, bir qancha olimlar (V.Xeylbroner, L.Turou, M.Blaug) tomonidan o`rganib hozirgi davrda ham dolzarbligi e'tirof etilmoqda.

3.V.Leninning sotsialistik jamiyat iqtisodiyoti to`g`risidagi g`oyalari.

V.I.Ulyanov (Lenin) (1870-1924) ning iqtisodiyot sohasidagi tadqiqotlarini ikki qismga: kapitalizm va imperializm iqtisodiyotning taqdiri to`g`risidagi hamda sotsialistik iqtisodiyotning taqdiri to`g`risidagi g`oyalarga ajratib ko`rsatish mumkin. "Rossiyada kapitalizmning taraqqiyoti" (1899), "Imperializm kapitalizmning yuqori boqichi" (1916) asarlarida bozor munosabatlari va kapitalizmning rivojlanish xususiyatlari bayon etilgan. Imperializmning iqtisodiy belgilariga quyidagicha ta'rif berilgan.

1.Ishlab chiqarish va kapitalning kontsentratsiyalashuvi, monopoliyalar vujudga kelishi.

2.Bank kapitali va sanoat kapitali qo`shilib moliya oligarxiyasi paydo bo`lishi.

3.Chetga tovar emas, kapital chiqarishning ahamiyati ortishi.

4.Xalqaro monopolistik ittifoqlar tuzilishi.

5.Er yuzining yirik kapitalistik davlatlar tomonidan bo`lib olinishi.

Imperializmning uch xususiyat (monopolistik kapitalizm, tekinxo`r yoki chirib borayotgan kapitalizm va o`lib borayotgan kapitalizm)ga alohida urg`u berilgan. Umuman Lenin insoniyat taraqqiyotida imperializm va kapitalizmni o`tkinchi iqtisodiy tizim deb isbotlashga uringan. Leninning kapitalizmdan sotsializmga o`tishga oid iqtisodiy g`oyalari "Sovet hokimiyatining navbatdagi vazifalari"(1918), "Kommunizmda bolalarcha so`llik kasali"(1919) kitoblarida berilgan. Iqtisodiy vazifalarni hal etishda proletariat diktaturasiga tayanish kerakligi qayd etilgan. O`tish davri uchun ko`p ukhlilik xosligi (patrialxal xo`jalik, mayda tovar ishlab chiqarish, davlat kapitalizmi va sotsializm), ulardan ayrimlari mayda tovar ishlab chiqarish kapitalistik va sotsialistik (ko`pchilik kapitalistik) mamlakatlar uchun zaruriy hisoblanadi.

Sotsialistik iqtisodiyot yaratish vazifalariga quyidagilar kiritilgan: mahsulotni ishlab chiqarish va taqsimlash ustidan umumxalq hisob-kitobi va nazoratini

o'rganish, mehnat unumdorligini oshirish, sotsializm manfaatlari uchun chet el kapitaliga yo'l berish va ulardan foydalanish, burjuaziya mutaxassislarini ishga jalb etish, kredit-pul, moliyaviy, mukofot, mehnatga ishbay haq to'lash tamoyillarini keng qo'llash, shahar va qishloq o'rtasidagi tovar almashuvini yo'lga qo'yish.

Mulkni umumlashtirishda avval eng muhim sohalar (moliya, bank, og'ir sanoat, temir yo'l transporti, tashqi savdo) qo'lga olinishi, sharoit etilishi borasidagi qolgan tarmoqlarni egallash zarurligi uqtirilgan.

Lenin "Oziq-ovqat solig'i to'g'risida (yangi siyosatning ahamiyatlari va uning sharoitlari)" (1921) risolasi va boshqa ko'pgina maqolalarda Rossiyadagi fuqarolar urushidan so'ng yangi iqtisodiyotga o'tishning mohiyati va xususiyatlarini yoritib berdi. Yangi iqtisodiy siyosatning eng muhim tomonlari, bu xo'jalik hisobiga o'tish, tovar-pul munosabatlarini rivojlantirish, ayrim korxona va tarmoqlarda,

savdoda xususiy kapitalizmga yo'l berish, chet el kapitaliga yo'l berish.

"Oziq-ovqat razvertkasi"ning yagona soliq bilan almashtirilishi dehqonlar psixologiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Lenin o'z g'oyasini jiddiy va uzoq muddatga mo'ljallagan siyosat deb baxoladi.

Markscha iqtisodiy g'oyalardagi tub mezonlar tarix sinovida o'zini oqlamadi mavjud sotsialistik iqtisodiyot (126 davlat) tajribasida ko'rish mumkin. Tub mezon deyilganda, albatta xususiy mulkchilik munosabatlari ko'zda tutiladi. Mazkur olimlarning g'oyalarida barcha ziddiyatlarning asosi, illatning sababchisi xususiy mulkchilik deb hisoblab kelingan. U insoniyat taraqqiyotining, jamiyat rivojining bosh to'g'onog'i sifatida tushuntirilgan. Rivojlangan mamlakatlarning taraqqiyoti bu fikrning xatoligini ko'rsatdi. Kapitalizmning muqarrar halokati to'g'risidagi bashorat ham ro'yobga chiqmadi.

Shu sababli sobiq SSSR, sotsialistik deb atalgan mamlakatlar iqtisodiyotga inqirozga uchradi, bozor iqtisodiyotiga o'tish zaruratga aylandi.

Kapitalistik iqtisodiy tizim o'z muammolarini hal etishda mavjud imkoniyatlardan kengroq foydalanib olish qobiliyatiga egaligi tarix tajribasida ayon bo'ldi. Albatta, erkin tadbirkorlik iqtisodiyoti uzoq vaqt davom etgan rivojlanish jarayonini bosib o'tgan. Bu jarayonda feodal munosabatlariga qarshi qonli kurash, ish kuchi mehnatidan foydalanishning og'ir usullari, ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar va mustamlakachilik siyosati kabi vositalar ham o'rin olgan. Katta tajribaga ega bo'lgan mulkdorlar ilmiy texnika progressida unumli foydalandi, ishlab chiqarishni o'stirdi; jamiyatdagi barcha tabaqalarning moddiy turmush darajasini oshirishga erishdi, ijtimoiy masalalarga e'tibor berdi.

Sotsialistik iqtisodiyot deb ataluvchi tizimda umumhalq (90-95%) mulkini joriy qilishga qaramay, barcha ishlab chiqarish vositalari davlatga ixtiyoriga o'tdi. Bozor iqtisodiyoti o'rniga markazlashgan va rejalashtirilgan ma'muriy buyruqbozlik iqtisodiyot vujudga keltirildi. Ijtimoiy adolat g'oyasi ijtimoiy tekilikni keltirib chiqardi. Moddiy manfaatdorlik va

rag'batlantirish omillariga e'tibor berilmadi, chunki har «kimdan qobiliyatiga yarasha, har kimga mehnatiga yarasha» shiori amalda ijro etilmadi.

Shaxsning manfaatdorligi kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning moddiy omili soyasi qolib ketdi, ya'ni shaxs manfaatdorligini faollashtiruvchi sharoitlarga etarlicha imkon berilmadi. Mehnat shaxs istiqbolidan huzur-halovat va ijobiy faoliyat manbai bo'la olmadi. Xususiyl mulkchilik yo`qotilsada, ijtimoiyl mulkchilik shaxsga ilhomlashtiruvchi kuch baxsh etmadi. Rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda buning aksi bo`ldi. Masalan, Yaponiyalik yirik tadbirkorlardan biri S. Idemitsu o`zining "Agar K. Marks yaponiyada tug`ilganda" degan kitobida: bunday holni ko`rgan Marks haqiqiy tadbirkor bo`lgan bo`lar edi. Chunki bu erda sinfiyl ziddiyatlar o`rnini mehnat va kapitalning uyg`unligidagi gurkirashi egallagan" - deb aytgan. Oqibatda Markscha iqtisodiy g`oyalar tarix sinovida o`zini himoya qila olmadi.

Xulosa

XIX asrning o`rtalarida marksizm iqtisodiy ta'limoti vujudga keldi. Bu ta'limot bo`yicha kapitalizmning o`z davri uchun avvalgi formatsiyalarga nisbatan ustunligi ijobiy tomonlari ko`rsatib berildi. Qiymatning mehnat nazariyasi asosida ishchilarning ishlab chiqarish vositasidan mahrum qilinishi (yoki kapitalistlar tomonidan egallanishi) natijasida kapitalistlar qo`shimcha qiymat olish yo`li bilan doimo boyib borishar, ishchilarning " ekspluatatsiya qilinishi va qashshoqlashib borishi " qonuni ochildi.

XIX asrning oxiri XX asr boshida kapitalizmning monopoliyalashgan davrida leninizm ta'limoti yuzaga keldi, unda marksizm g`oyasi to`ldirildi va rivojlantirildi. Unga ko`ra, kapitalizmning emirilishi va proletar inqilobi nisbatan past rivojlangan, imperializm zanjirlari bo`sh bo`lgan ayrim mamlakatlarda ham ro`y berishi mumkinligi ko`rsatildi. Bu bashorat XX asr boshida qisman Rossiya, Mongoliya, II Jahon urushidan keyin bir qancha Evropa, Osiyo va Amerika mamlakatlarida oqlandi. 70 yildan ortiq davom etgan "sotsialistik jamiyat qurish" tajribasi esa o`zini to`la oqlamadi.

_Tayanch ibora va tushunchalar

Marksning jamiyat rivoji munosabati; qo`shimcha qiymat nazariyasi; asosiy va aylanma kapital; kapitalning organik tuzilishi; aholi-ning absolyut va nisbiyl qashshoqlashuvi; Monopolistik kapitalizm; "xarbiyl kommunizm"; Yangi iqtisodiy siyosat.

Nazorat va muloxaza savollari

1. Marksizm vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari nimalardan iborat?
2. K. Marks va F. Engels iqtisodiy ta'limotlarning asosini nimalar tashkil etadi?
3. Ishchilar sinfining absolyut va nisbiyl qashshoqlanishi deganda nima tushuniladi?
4. V. Leninning kapitalistik iqtisodiyot to`g`risida g`oyalari qanday?

Adabiyot

Asosiy adabiyot

1. Karimov I. A. O`zbekiston buyuk kelajak sari. T. , O`zbekiston, 1998.

2. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. T., Fan, 1997 (11-bob, 254-274-betlar).
3. A. Razzoqov, Sh. Toshmatov, N. O'rmonov. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. «Darslik». Toshkent. «Moliya»- 2002 y.

Qo'shimcha adabiyot

1. Blaug M. Ekonomicheskie misli v retrospektive. M. Delo LTD. 1994.

6-MAVZU. XIX ASR OXIRI - XX ASR BOSHIDAGI JAHON IQTISODIY G'OYALARI MOHIYATI (2 soat) REJA

- I. Muqobil iqtisodiy maktablarning vujudga kelishi.
2. Garmaniyadagi yangi tarixiy maktab. V. Zombartning g'oyaviy evolyutsiyasi.
3. Marjinalizmning vujudga kelishi. Avstriya maktabi.
4. Kembridj maktabi. A. Marshalli va uning narx, ish haqi va foyda haqidagi nazariyalari.
5. Amerika maktabi. J. B. Klark nazariyasi.
6. Iqtisodiyotda ekonometrik usullarni qo'llanilishi

I. Muqobil iqtisodiy maktablarning vujudga kelishi.

XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida iqtisodiyotning tarixiy rivojlanishi (evolyutsiyasi) kapitalizm iqtisodiyoti asoslaridaro'y berayotgan tub siljishlarni aks ettirar edi. Bu o'zgarishlar asosan to monopolistik (monopoliyalar vujudga kelishdan avvalgi) kapitalizmning o'sib imperializmga aylanish bilan bog'liq. Bu jaryon kapitalizm ziddiyatlarining, ayniqsa mehnat bilan kapital o'rtasidagi ziddiyatlarning chuqurlashuvi bilan ayni bir vaqtda ro'y berdi. Shuningdek bu davr faqat Angliya ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarining intensiv rivojlanishi bilangina emas, balki bu rivojlanish Evropaning boshqa mamlakatlarida va AQShda ham bo'lganligi bilan xarakterlanadi. Monopolizatsiya jarayonlari iqtisodiyotdagi tub o'zgarishlariga sabab bo'ldi. Bir tomonda markscha (yuqorida barilgan) iqtisodiy qarashlar yagona yanada rivojlangan bo'lsa, bo'lsa, ikkinchi tomondan unga alternativ (muqobil) g'oyalar yuzaga keldi.

Aynan mana shu davrlarda XIX asrning 70-yillaridan boshlab klassik (mumtoz) qiymatning mehnat nazariyasida chinakam inqilobiy o'zgarishlar yuz bergan edi. Bu yangi ilmiy tahlilni maydonga tashlagan va rivojlantirgan shaxslar Uilyam Stenli Djevons (1835-1882), Alfred Marshall (1842-1924), Karl Menger (1840-1921), Fridrix Fon Vizer (1851-1926), Evgeniy Fon Bem Baverk (1851-1914) edilar.

Qiymat nazariyasini ilmiy tahlil qilishda yaratilgan eng yuqori foydalilik, ya'ni marjinalizm ta'limotining keng tarqalishi ham mana shu olimlar nomi bilan bog'liqdir. Bu boradagi o'zining ilk fikrlarini (deyarli bir vaqtda, turli davlatlarda) U Djevons 1863 yilda nashr etilgan «Siyosiy iqtisod nazariyalari» nomli asarida bayon etgan edi, ya'ni «Kapital» asarining birinchi tomi nashr qilinishidan 4 yil avval, A. Marshall, K. Menger, J. B. Klark, L. Valraslar o'z qarashlari shakllanayotgan ilk davrda K. Marks qarashlari bilan hali tanish emas edilar. Siyosiy iqtisoddagi yangi yo'nalishning o'ziga xos xususiyati shundan iborat ediki, ular moddiy ne'matlar qiymatini unga zarur bo'lgan ijtimoiy mehnat

chiqimlari va mehnat miqdori bilan belgilamasdan, balki tovarning foydaliligi (nafli) va noyobliligi bilan bog'lanadi. «Eng yuqori foydalik» tushunchasi keltiriladi. Monopoliyalar davriga o'tilganligi, kapitalistik mamlakatlarning ijtimoiy turmushida shu bilan aloqador yangi hodisalar ro'y berganligi burjua mavkurasiga katta ta'sir o'tkazadi. Iqtisodchilar siyosiy iqtisodni «sof» fanga aylantirishga intildilar. «Ekonomika», «Siyosiy iqtisod» iborasi o'rniga «ekonomiks» degan yangi ibora vujudga keldi, bu narsa undan ijtimoiy, sinfiy muammolarni istisno etishni ta'kidlar edi.

Shu asosda kapitalizmni ilmiy tahlil qilishning yangi shakllarini zo'r berib ishlab chiqishga kirishildi, bu yangi shakllar avvalo monopoliyani himoya qilish va oqlashi zarur edi. Bu tahlillar yangi marksizm iqtisodiy ta'limotiga ham qarshi qaratilgan edi. Siyosiy, iqtisodiy, metodologik va nazariy vositalarning yangilanishi XIX asrning 70-yillarida barpo etilgan bir qancha maktablar doirasida amalga oshirildi. Germaniyada tarixiy, yangi tarixiy maktab, Avstriya, Angliya-Amerika maktabi va boshqa maktablar shular jumlasiga kiradi.

2. Germaniyadagi tarixiy, yangi tarixiy maktab. V. Zombartning g'oyaviy evolyutsiyasi.

Yuqorida keltirilgan ta'limotlari e'tibor qilinsa, Germaniyada klassik maktab yuzaga kelmadi, tarixiy maktab yaratilda va unda iqtisodiyot nazariyalari halq xo'jaligi tarixi bilan shug'ullanishi zarurligi qayd etiladi. Bunda asosiy e'tibor millat ruhiga bog'lanadi. XIX asrning ikkinchi yarmida Germaniyadagi nemis iqtisodchilari avvalgi davrdagi iqtisodiy adabiyotda vujudga kelgan reaksion, millatchilik an'alarini davom ettirib, uni yanada kuchaytirdilar, Prussiya harbiylarining tajovuzkorlik muddaolarini qo'llab-quvvatladilar va ko'klarga ko'tarib maqtadilar. Siyosiy iqtisodning rivojlanishi Germaniya ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining o'ziga xosligini aks ettirar edi, monopolistik kapitalning tez o'sishi, Germaniya imperializmining tajovuzkorligi, feodal sarqitlarining uzoq vaqtdan beri saqlanib kelayotganligi mana shu o'ziga xoslikni belgilab bergan edi.

Oqibatda ijtimoiy ziddiyatlar, nemis proletariyatining sinfiy kurashi keskinlashdi. Shu davrda Germaniya iqtisodiy ta'limotlarida yangi tarixiy maktab etakchi o'rinni egallar edi. Berlin dorilfununining professori Gustav Schmoller (1838-1917) shu maktabning asoschisidir. Bu professor ochiqdan-ochiq iqtisodchilarning konservativ qanotiga boshchilik qilar edi. «Xalq xo'jaligi to'g'risidagi umumiy ta'limot asoslari» kitobi (1900-1904) uning siyosiy iqtisodga oid asosiy asaridir. G. Schmoller, o'zidan avvalgi B. Rosher bilan B. Gildebrandning eski tarixiy maktab asosiy qoidalari va usullarini meros qilib olgan edi. U yirik burjuaziya, zamindorlar, «er egalari», amaldorlar manfaatlarining ifodachisi, Prussiya monarxiyasi tarafdori edilar. Schmoller markcha qarashlarga jon-jahdi bilan kurashar, ijtimoiy, sinfiy muammolarni siyosiy iqtisoddan olib tashlashga, uni xalq xo'jaligi tarixi faniga aylantirishga urinar edi. U iqtisodiy ta'limotning ahamiyatini pisand qilmay, siyosiy iqtisodning nazariy ruhini inkor etib, faktlarni va statistika materiallarini o'rganish, xalq xo'jaligidagi hodisalarni bayon etib berishni siyosiy iqtisodning boshvazifasi deb hisoblar edi.

G. Schmoller ilmiy tarixiylikka hech qanday aloqasi bo'lmagan tarixiy usulga tayanar edi. U marksizmning iqtisodiy-ijtimoiy formatsiyalar to'g'risidagi

ta'limotiga keskin hujum qiladi, jamiyat taraqqiyotidagi sifat siljishlarini qat'iyon rad etdi.

G.Shmoller siyosiy iqtisod xalq xo'jaligidagi jarayonlarni va iqtisodiy kategoriyalarni o'zicha talqin qilish g'oyasini ilgari surdi. U iqtisodiyotda odob-huquq omilini belgilovchi omil deb hisoblar, chunki har bir xalqning hayotiy tarzi odob qoidalarida, xo'jalik huquqida asosiy ifodasini topadi, deb ta'kidlar edi. Bu qoida yangi iqtisodiy maktab namoyondalarining asarlarida hukmron g'oya edi.

Yangi tarixiy maktab iqtisodchilari xo'jalik turmushida burjua-pomeshchik davlati hal qiluvchi rolni o'ynaydi, deb bilar edilar. Ular Germaniya imperiyasini tinimsiz maqtashar, kuchli milliy davlat barpo etilsin, deb da'vat qilishar, uning agressiv davlat bo'lishi kerakligini oqlashar edilar. Shmollerning fikricha, Prussiya (garmon) davlati jamiyat-taraqqiyotning asosiy kuchi, «Oliy nemis irqi ruhiy odob-ahloqlarining» barqarorligini ta'minlaydigan «eng salmoqli mulkiy kapital» dir. Faqat kuchli milliy davlatgina iqtisodiy ravnaqini, nemis burjuaziyasining hukmronligini ta'minlashi, sinfiy ziddiyatlarni tugatishi mumkin, deb hisoblar edi u.G.Shmoller iqtisodiyotda axloq va huquq omillari belgilovchi rolni o'ynaydi, deb hisoblaydi, ishlab chiqarishni pisand qilmasdan, uning tabiiy va ijtimoiy jihatlarini qorishtirib tashlar edi. G'ayri ilmiy ayirboshlash kontseptsiyasining vakili bo'lmish L.Brentano realizatsiya va ayirboshlash sharoitlarining o'zgarishi xo'jalik turmushida, ishlab chiqarish shakllarida belgilovchi ahamiyatga ega bo'ladi, deb hisoblaydi. L.Brentano liberal (erkin) burjuaziyaning manfaatlarini ifodalab, nemis ishchilari sinfini unga bo'ysundirishga intilar, ishchilar sinfining revolyutsion chiqishlarini pasaytirishga urinar edi. U «ijtimoiy inoqlik» g'oyasini targ'ib qilar, ingliz tred-yunionlarining tajribasini tashviq etar edi. Brentano o'rta tashlagan islohotlar programmasi (dasturi) kasaba soyuzlari, fabrika qonunlari orqali korxona egalari tomonidan ishchilarga qisman yon berishni ko'zda tutar edi. Shu maqsadda u matbuot kooperatsiyasida, uy-joy qurilishi va boshqalardan ham foydalanishni tavsiya etar edi (bu fikrlar institutsionalizga xos bo'lib, qo'yida to'laroq qarab chiqiladi).

G.Shmollerning shogirdi Verner Zombart (1863-1941) Germaniyadagi yangi tarixiy maktabga yaqin edi. Bratislav, so'ngra esa Berlin dorilfununlarining professori Zombart K.Marksning iqtisodiy ta'limotiga qarshi kurashning nozik usullarini nemis burjuaziyasiga xizmat qildirdi, marksizmga tilyog'lamalik bilan hushomad qilish orqali uni buzib ko'rsatadi, uning revolyutsion mazmunini siqib chiqarishga urindi. K.Marksning olimligini uning revolyutsionligidan ajratishga urinib, marksizm asoschisi ta'limotidagi mana shu ikki negiz to'g'risidagi mana shu revolyutsionlik go'yo «mutafakkirning o'tkir zehni» ni xiralashtirib qo'yganligi haqidagi da'voni ko'tarib chiqdi. Chunonchi qiymatning mehnat nazariyasi «ishning g'oyasi» deb e'lon qilinib, «fikran mantiqiy bir ish»dan iborat etilib ko'rsatiladi. qo'shimcha qiymatni Zombart tahlil uchun yaroqli bo'lgan nazariy timsol, mavhumlik debgina hisoblash ishchilarni ekspluatatsiya qilishning manbai ekanini inkor qildi. U ishlab chiqarishning uch omili (kapital, mehnat,er) xususidagi nazariyaning tarafdori edi. Zombartning asarlarida antagonistik

ziddiyatlar, iqtisodiy inqirozlarning muqarrarlari inkor etiladi, kapitalizm tartibga solingan, rejali rivojlanib boradigan xo'jalik tarzida tasvirlanadi (bu fikrlar tarix sinovdan o'tdi).

Markcha kapitalizmning muqarar o'limi bashoratiga qarama-qarshi, uning rivoji va ravnaqi yo'llari isbotlab berilgan.

3.Marjinalizmning vujudga kelishi.

Avstriya maktabi.XIX asrning 70-yillarida G'arb siyosiy iqtisodining nufuzli maktablaridan biri Avstriya maktabi (avstraliyalik omillar nomidan) vujudga keldi. Avstriya maktabini sub'ektiv-psixologik maktab ham deb ataydilar, uning mafkurachilari qo'llagan usul munosabati bilan unga mana shunday nom berilgan. 70-yillarda Avstriya maktabining asoschisi Karl Menger (1840-1921) bu g'oyani rivojlantirib, uni sub'ektiv-psixologik maktabning asosiy nazariyasiga aylantirdi. Evgeniy Byom-Baverk (1851-1914), Fridrix fon Vizer (1852-1926) va boshqalar ham shu nazariyani ishlab chiqdilar. Avstriya maktabining kontseptsiyalari Mengerning «Siyosiy iqtisod asoslari» (1871), Vizerning «Xo'jalik boyligining kelib chiqishi va asosiy qonunlari to'g'risida» (1884), Byom-Baverkning «Kapital va foyda» (1884-1889), «Xo'jalik ne'matlari nazariyasining asoslari» (1886), «K.Marks nazariyasi va uning tanqidi»(1896) va boshqa asarlarida bayon etilgan, Avstriya maktabining

ta'limoti Angliya, Germaniya, AQSh, Rossiyada va boshqa mamlakatlardaham yoyildi. Bu ta'limot g'arb siyosiy iqtisodining shundan keyingi rivojiga katta ta'sir o'tkazdi. Ularning kontseptsiyasiga

ko'ra siyosiy iqtisod xo'jalik sub'ekti tajribasining butun xilma-xilligi bilan uni idork etishni o'rganishi lozim edi.Byom-Baverkning fikricha, siyosiy iqtisod sub'ekt hislarida iqtisodiy hodisalarni izohlaydigan ildizlarni izlashi kerak. Alohida xo'jalik tadqiqot ob'ekti qilib olindi va shu xo'jalik jamiyatning eng oddiy tipik elementi deb talqin qilinardi. Jamiyatdan mutlaqo ajralgan shaxs-Robinzon xo'jaligi mana shunday xo'jalikning oliy maqsadi deb ataladi. Avstriya maktabi kapitalistik xo'jalikni mana shunday eng oddiy elementlarning mexanik yig'indisi deb talqin etiladi. Umuman iqtisodiy qonunlarini o'rganish uchun alohida olingan bir xo'jalik misolida shu qonunlarni ko'rib chiqish etarli deb hisoblanadi, ya'ni jamiyat alohida olingan robinzonlar xujaligi yig'indisidir, degen xulosa chikariladi.

Tadqiqotning bu usuli ROBINZONAD usuli deb nom oldi. Shu usul yordamida siyosiy iqtisoddan ijtimoiy, ishlab chiqarish munosabatlari chiqarib tashlanadi, iqtisodiy kategoriyalarning ijtimoiy-sinfy mazmuni kuchaytiriladi, ijtimoiy ishlab chiqarishning roli soxtalashtiriladi.Biz yukorida merkantilizm (boyluk asosi muomala soxasida), fiziokratizm (er), iktisodiy ta'limotlarini kurdik.Avtriya maktabining nazariyotchilari esa yukoridagilardan farklikapitalizmni faqat bozor munosabatlari bilangina bog'langan yakka xo'jaliklarning mexanik yig'idisi deb tasvirlab, mehnatning kiymatni belgilashdagi rolini inkor etdilar.Qadriyat nazariyasi Avstriya maktabining kontseptsiyalarida markaziy o'rinni oldi, bu nazariya «eng yukori foydalilik» nomini oldi.Siyosiy iqtisodda qabul qilingan «tovar» va «qiymat» kategoriyalari ijtimoiy mazmundan mahrum bo'lgan «ne'mat» va «qadriyat» kategoriyalari (foydalilik) naf

tushunchalari bilan almashtirildi. Bunda tovarning kadr kimmati shu maxsulotning foydaliligi va noyoblighi bilan o'lanadi.K.Menger, E.Byom-Baverk va boshqalar qiymat-ijtimoiy zarur mehnatning ifodasi, mehnat esa uning birdan-bir manba ekanligi to'g'risidagi qoidani noto'g'ri deb e'lon qildilar.Ular qiymat kategoriyasini sub'ektiv mazmun (kimmat) bilan

to'ldirdilar. Uning ustun omili sifatida iste'mol qiymat yoki moddiy ne'matlarning foydaliligi (nafi) qabul etildi. Bem-Baverkning fikricha, Avstriya maktabi iste'mol qiymatiga murojaat etish orqali qadriyatni «Lozim bo'lgan daraxtdan, ildizning o'zidan» taxlil eta boshladi.

Shunday qilib Avstriya maktabining iqtisodchilari avalgi davrdagi ilmiy nazariyaning qiymat-tovarlarning ob'ektiv xususiyati bo'lib, mana shu xususiyat bu tovarlarning ichki mazmunini belgilaydi, degan tub qoidani rad etish orqali qiymat hosil bo'lishi jarayonini qayta ko'rib chiqiladi. Yangi yo'nalish hozirgi zamon iqtisodiy ta'limotlari

asosidir.Ular buni baho beruvchilik mulohazalariga va individlarning psixogiyasiga bog'liq bo'lgan sub'ektiv kategoriyaga aylantirib qo'yidilar. Bu esa navbatdagi yangi nazariya bo'lib, bu nazariya qiymatni u hosil bo'ladigan sharoit va manbadan ishlab chiqarish va mehnat sohasidan butunlay ajratib qo'yadi. Byom-Baverkning hamma mulohazalari jarayonni oydinlashtiradigan, ushbu kategoriyada ifodalanadigan ishlab chiqarish munosabatlarini kengaytiradigan fikrlar asosiga qurilgan. «Eng yuqori foydalilik», «noyoblik» nazariyalari Avstriya maktabi va boshqa yangi kontseptsiyalar uchun asos bo'ldi, Byom-Baverkning ta'biricha, qadriyat to'g'risidagi ta'limot daromadni taqsimlash, shu jumladan, er rentasi, ish haqi, kapitaldan olinadigan foyda to'g'risidagi butun o'z doktrinasining markaziy bandidir.

4.Kembridj maktabi. A.Marshall va uning narx, ish haqi hakidagi nazariyalari.

Tomonopolistik (monopoliyalar vujudga kelishidan avvalgi) kapitalizmdan imperializmga o'tish davrida Angliyada Kembridj dorilfununida vujudga kelgan iqtisodchilar maktabi vujudga keldi. Maktabning nomi ham shu dorilfununning nomidan olingan. Unga nufuzli iqtisodchi, qirollik iqtisodiy jamiyatining asoschisi Alfred Marshall (1842-1924) boshchilik qildi. Uning asosiy asari «Siyosiy iqtisod printsiplari» (1890) deb ataladi (rus tiliga ham tarjima qilingan uch jildlik asar).Metodologiya va iqtisodiy nazariya sohasida Marshall tipik eklektik, qorishma nazariyasining vakilidir. U iqtisodiy jarayonlarga sub'ektiv qarashlarga asoslangan funktsional tadqiqot usullarni qo'llaydi.Narx nazariyasi Marshallning nazariy mulohazalari markazida turadi. U qiymat va narx kategoriyalarini aynan bir narsa deb ko'rsatib, aslida, qiymatni chetlashtirib qo'ydi va narxni bozor iqtisodiyotining eng muhim elementi, deb hisoblaydi. Olim avvalgi tadqiqotlarda qiymatning iste'mol va almashuv (ikkita) shakllari alohida-alohida qaralgan edi, Marshallda esa bu fark yo'q. Ob'ektiv qiymat kategoriyasidan foydalanadi. Bu narsa uning nazariyasida muvozanat narxi rolini bajaradi. Marshallning nazariyasi sintetik nazariya nomini oldi, chunki muallif bu nazariyada o'zidan avvalgi mavjud narx nazariyalari «eng yuqori foydalilik (naf)», "ishlab chiqarish chiqimlari", "talab va taklif" nazariyalarni birlashtirib, ularning hammasini to'g'ri deb

ko'rsatdi. Narx nazariyasi bilan bir qatorda Marshall foyda va ish haqi nazariyalarini ilgari surdi.

A.Marshallning va uning maktabdoshlari o'z uslublari (metodologiya)da umuman, Avstriya maktabini qo'llab-quvvatlaydilar, lekin unga ayrim jiddiy o'zgarishlarni ham kiritishni lozim topdilar. Jumladan, faqat funktsional tadqiqot usulinigina tan olish bilan birga, bozor munosabatlarining uch asosiy zaruriyatlarini: narx, talab, taklifni o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqadilar.

Ularining fikricha, avvalo ishlab chiqarish iste'mol harakatini aniqlaydi, keyinchalik u eng yuqori foydalilik va talab doirasi ko'rinishiga kiradi. Kembridj maktabi tadqiqotlariga ikki tomonlama qarash lozim. Agar biz unga bozor iqtisodiyotida baholashni ichki mexanizmini tushuntirish uchun urinish sifatida qarasak, haqiqatni biroz siyqalashtirilayotganini ko'rishimiz mumkin. Lekin bu izlanishlarga boshqacha nuqtai-nazardan qarashimiz ham mumkindir, bunda biz e'tiborni tovar-bozorlardagi aniq muammolarni hal etishga qaratilganligiga va natijada amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy xulosalar vujudga kelganligining guvohi bo'lamiz.

Marshall tadqiqotlarida talab va taklif o'rtasidagi munosabat (birinchilik) qaraladi, qaychida yuqori va pastki keskichlar qanday rolni o'ynasa (barovar), bu erda ham ahvol shunday, ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq.

A.Marshall g'oyalari bozor munosabatlarini o'rganishni maqsad qilgan nazariy maktablarga keng yo'l ochib berdi va katta ahamiyatga ega bo'ldi. Kembridj maktabining g'oyalari XX asrning 30-yillarigacha g'arb iqtisodiyot fanida asosiy mavqeini egallab turdi.

5. Amerika maktabi. J.B.Klark nazariyasi.

Shu davrdagi AQSh dagi ta'limotlar to'g'risida fikr yuritmadi, chunki bunday g'oyalar faqat XIX asr oxirida vujudga keldi. XIX asrning oxirlari (so'nggi 35 yili)da AQSh monopolistik rivojlanish bosqichiga kirdi. Monopolistik birlashmalar soni tez ko'payib bordi, (masalan, 1% monopoliyalar qo'lida 60 % boylik to'plandi).

Iqtisodiyotda ularning tanho hukmronligi kuchayib bordi. Kolumbiya dorilfununining professori Jon Beyts Klark (1847-1938) boshchiligidagi etakchi iqtisodchilar guruhi siyosiy iqtisodda etakchilik mavqeini egalladi, mana shu guruh siyosiy iqtisodning Amerika maktabini vujudga keltirdi. Shu davrdan AQSh iqtisodchilarining tadqiqotlari jahon bo'yicha etakchidir (Nobel mukofotlari sovrindoriga e'tibor bering). J.B.Klarkning «Boylik falsafasi» (1886), «Boylikning taqsimlanishi» (1889), «Iqtisodiy nazariyaning muhim belgilari» (1907) asarlari o'ziga xos yangicha kontseptsiyalarni ishlab chiqishda katta rol o'ynaydi. Amerikaning monopolistik burjuaziyasi shu kontseptsiyalarni o'ziga qurol qilib oldi. J.B.Klark Amerika iqtisodiy uyushmasini tuzish (1885) ilhomchilardan biri bo'ldi. U mehnatkashlarning qisuviga zarba berish maqsadida kapitalning ekspluatatorlik mohiyatini niqoblashni shu uyushmaning vazifasi deb bildi.

Bu erda gap sotsialistik qarashlarga qarshi, bozor munosabatlarga ustunligini ko'rsatish masalari etakchidir. Klark iqtisodiyotda ma'naviy omillarni hal qiluvchi

omillar deb hisoblab, Avstriya maktabining asosiy metodologik usullariga qo'shiladi. U ishlab chiqarish munosabatlarini inkor etdi, uning kontseptsiyasi notarixiy xarakterda bo'lib o'zining qorishmaligi (eklektizmi) bilan ajralib turar edi. Klark taqsimotni siyosiy iqtisodning asosiy maqsadi deb bildi. U «Boylikning taqsimlanishi» asarida ijtimoiy daromadning taqsimlanishi mojarolarsiz amal qiladigan va ishlab chiqarishning har bir omiliga o'zi yaratgan boylik yig'indisi beradigan tabiiy qonun vositasi bilan boshqariladi, deb isbotlashga urindi. J. Klark avvalgi iqtisodiy ta'limotlarni metodologik va nazariy jihatdan yangilashga intilib, uni tabiiy ravishda tenglashtirdi. Nazariy mexanikaga o'xshatib siyosiy iqtisodni uch bo'limga:

- 1) universal iqtisodiyotga,
- 2) iqtisodiy statikaga va
- 3) iqtisodiy dinamikaga bo'ldi.

Birinchisiga umumiy universal qonunlar, ikkinchisiga shu qonunlarning statik (harakatsiz) iqtisodiyot sharoitidagi, uchinchisida rivojlanish holatidagi qonunlar amal qilishini ko'rsatadi.

Siyosiy iqtisodni bunday bo'limlarga bo'lish, iqtisodiy fan vazifalariga yangilik kiritishdir. Bu narsa siyosiy iqtisodni ijtimoiy sinfiy muammolardan holi qildi (keyinchalik qarab chiqiladigan ijtimoiy-institutsional yo'nalishga e'tibor bering).

Klark jamiyat taraqqiyotida sifat siljishlari, inqilobiy sakrashlar bo'lishi mumkin emas, deb hisoblaydi. U mo'tadillik-sobitlikni jamiyatning asosiy holati deb hisoblaydi va muvozanat nazariyasining nusxalaridan birini rivojlantiradi. Iqtisodiy dinamikaga qilingan murojaat qilinishi muhim yangilik bo'ldi, chunki u iqtisodiyotning ishlab chiqarishdagi holatini juz'iy hodisa deb hisoblaydi.

J. B. Klark boshchiligidagi Amerika maktabi namoyondalari yo'l qo'ygan kamchiliklardan qat'iy nazar bu iqtisodchilar erishgan ilmiy natijalar katta ahamiyatga egadir.

Avstriya va Kembridj maktabi iqtisodchilari tovarlar bozori va ayrim korxonalar tajribasida qo'llanilgan ilmiy taxlilni J. B. Klark o'zgacha, ya'ni makroiqtisodiyotni o'rganishga olib kirishga harakat qildi. Ijtimoiy mehnat, ijtimoiy kapital va befarqlik zonalarini tushunchalari yuzaga keldi, shuningdek, «eng yuqori unumdorlik» nazariyasida qo'llanilgan ilmiy tahlil va tushunchalarni hozirgi davr iqtisodiy nazariyalarida uchratishimish mumkin, bu esa Amerika maktabining yuksak ilmiy ahamiyatini belgilaydi.

6. Iqtisodiyotda ekonometrik usullarni qo'llanilishi

XVIII asrga kelib, tovar-pul munosabatlarining rivojlanishida iqtisodiy ko'rsatkichlarning miqdoriy o'zgarishda o'zaro bog'liqlikda qonuniyatlar asosida ro'y berishi to'liq va aniq ayon bo'ldi. Bu qonuniyatlarni matematik izohlashdagi dastlabki mukammal tadqiqotlar frantsiyalik olim Antuan Ogyusten Kurpo (1801-1877) ning «Boylik naxzariyasi matematik printsiplarining tadqiqoti» (1838) asarida bayon etildi. Kurpo bozordagi xaridor va sotuvchining turlicha imkoniyatlari asosida tovar bahosining iste'molchi-xaridor talabiga bog'liqlik masalasini taxlil etdi. Ma'lumki, bozor munosabatlari amaliyotida tovar bahosi hamda talab orasidagi bog'liqlik quyidagicha namoyon bo'ladi. Ya'ni, tovar

bahosining oshuvi iste'molchi talabining kamayishiga olib keladi. Aksincha, baxo pasaysa, talab ortadi. Kurpo bu bog'liklikni "Talab qonuni" deb hisoblaydi va uni talab funktsiyasi ko'rinishida quyidagicha ifodalaydi:

D q f(r) bunda, D- iste'molchi talabi, r-tovar bahosi. Tovar sotuvidan tushgan pul tushumi (R) funktsiyasi esa quyidagi ko'paytmadan iborat bo'ladi: $R = q \times D = q \times f(p)$. Bu funktsiya uzluksiz bo'lib, bahoning har bir cheksiz o'zgarishiga, talabning cheksiz o'zgarishi mos ishlashi aks ettiradi. Talab funktsiyasi differentsiyalanadi. Differentsiyalning maksimum qiymati yuqori daromad olishga qaratiladi. Kurpo iqtisodiyotga birinchi marta elastiklik tushunchasini tadbiiq etdi.

Talab funktsiyasining baxoga nisbatan elastikligi tovar bahosining bir foizga o'zgarganda talab miqdorining qanchaga o'zgarishini anglatadi. Kurpo talabning baxoga nisbatan va past elastiklik mavjudligi bilan izohlaydi. Bahoning nisbati katta bo'lmagan o'zgarishiga talabning shakli o'zgarishi ro'y beradi, talabning yuqori elastiklik holati

hisoblanadi. Baholarning sezilarli o'zgarishidan qat'iy nazar talabning o'zgarishi sekin bo'lsa, past elastiklik holati deyiladi. Masalan, tor doiradagi muhlislar uchun, skripka yoki astronomik teleskop narxining ikki baravar o'zgarishi, ularga bo'lgan talaba jiddiy o'zgarishga olib kelmaydi. Shuningdek, narx keskin o'zgarishidan qat'iy nazar, transport vositalari, oziq-ovqat mahsulotlariga talab deyarli kam o'zgaradi.

Kurpo o'z tadqiqotlarida, tabiiy monopoliya, ya'ni noyob ma'danli suv chiqaradigan buyuk egasining, yuqori daromad olish uchun qanday baho qo'yish masalasini taxlil etadi. Bunda yangi omillar-ishlab chiqarish chiqimlari, raqobat kabilar ham hisobga olinadi.

Shuningdek, Kurpo, 2ta raqobatli monopoliya-duopoliya, chekli va ko'p raqobatchilar holatlarini ham taxlil qilgan.

Tahlil matematik aniqliq va kuchli mantiqiylik asosida amalga oshirilgan. Kurpo tadqiqotlarining eng muhim jihatlaridan biri, ishlab chiqarish sohasidagi qiymatning mehnat nazariyasi emas, muomala sohasidagi baholar tahlil etilgan.

Iogan Genrix fon Tyunen (1783-1850)-shimoliy Germaniyalik Yunker (pomeshchik) Qishloq xo'jaligi bilan bevosita shug'ullangan. Kurpo g'oyalarini amaliy material bilan to'ldirgan. Iqtisodiy model yaratgan. Modelga ko'ra, xo'jalik doira shaklidan iborat bo'lgan. Markazda qishloq xo'jalik maxsulotlari iste'molchisi-shahar, atrofda esa, bir hil tuproq unimdorligida bo'lgan yopiq xudud tushuntiriladi.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlari samaradorligi pasayib boruvchi kontsentrik doiralarga joylashtirilgan. Belgilangan baho bilan ishlab chiqarish va transport xarajatlari orasidagi farq asosida qishloq xo'jalik maxsulotlari etishtirishning no-rentabelligi hisoblangan.

Tyunenning fikricha, iqtisodiy jarayon ketma-ket kichik ortirmalar yo'li bilan rivojlanadi. Rivojlanishning ma'lum holatiga kelib keskin sifat o'zgarishi ro'y beradi. bu usul ishlab chiqarish optimal tarkibining ya'ni, mehnat va kapitalining o'zaro to'ldirish jarayonining shakllanishiga imkon beradi. Tyunen qo'llagan

usul keyinchalik iqtisodiyotda kichik ortirmalar va cheklangan sharoitlar uslubi marjinalizm nomini oldi.

Tyunen davlatning qishloq xo'jaligi va milliy iqtisodiyotga munosabati yoritilgan yagona asar yozgan. U Smitning daromad taqsimoti g'oyasini hamda Rikardodan bexabar holda diferentsion renta g'oyasini qiymatning mehnat nazariyasi asosida rivojlantirdi.

Umuman olganda 19-asr kelib, iqtisodiyotga matematikaning targ'ibi mustaxkam asosga ega bo'ldi.

Natijada, keyingi tadqiqotlarning ilmiy negizda bo'lishiga katta xissa qo'shildi. Iqtisodiy jarayonlar tahliliga sinfiy-siyosiy tus berilishidan chetlashildi.

19-asr oxiri 20-asr boshlarida Lozanna maktabi (L.Valras, V.Poreto, K.Viksell va boshqalar) vujudga keldi, ular tomonidan matematikani iqtisodiyotga qo'llash yuksak darajagi ko'tarildi. Hozirgi davrda bu usul ekonometrika sifatida alohida rivojlangan.

Xulosa.

XIX asrning 70-yillarida iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanida bir nechta nazariy maktablar vujudga keldiki, ular o'z maqsad vazifalari va uslubiylatlari bilan o'zaro farq qilar edilar. Ularning ayrimlari Marks va Engels asarlari bilan yaqindan tanish bo'lib, ularnitanqid qilgan bo'lsalar, ayrimlari tamomila yangi yo'nalishni taklif etdilar. Biz yuqorida yangi tarixiy maktabning uch avlodi bilan yaqindan tanishib chiqdik, uning dastlabki vakillari tadqiqot mavzusini faqat belgilagan bo'lsalar, ikkinchi avlod vakillari boy manbalarni to'pladilar. Lekin undan to'liq foydalanib, mavzuni yoritib bera olmadilar. Faqat uchinchi avlod vakillarigina jami manbalarni umumlashtirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bunday ijodiy yondoshuv iqtisodiy ta'limotlar tarixida tarixiy usulning o'z o'rnini belgilab berdi.

XIX asrning 70-yillarida Avstriya maktabining shakllanishi iqtisodiyot fanida katta voqea bo'ldi. Uning nazariyotchilari fanda «marjinalizm» deb nom olgan iqtisodiy nazariyani ilmiy asoslab berdilar. Bu nazariya qoidalari klassik iqtisodiy maktabdan shu darajada farq qiladiki, u ayrim hollarda fandagi to'ntarish deb baholanadi va hozirgi zamon iqtisodiy ta'limotlarining asosini tashkil etadi.

Tayanch ibora va tushunchalar.

Marjinalizm, Brentanoning "sinfiy inoqlik" nazariyasi, Zombartning «Sotsial plyuralizm» kontseptsiyasi; Byom-Baverk; "Robinzonad" usuli; qadriyat, taqsimlash va eng yuqori foydalilik nazariyalari; Klarkning «eng yuqori mehnat unumdorligi» nazariyasi. L.Valras; «noyoblik», eng yuqori foydalik».

Nazorat va mulohaza savollari.

- 1.XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida vujudga kelgan iqtisodiy ta'limotlarga xos xususiyatlar nimadan iborat?
2. XIX asrning 70- yillarida shakllangan qaysi nazariy maktablarni bilasiz?
3. G.Shmoller va L.Brentanoning iqtisodiy mavzudagi asosiy asarlari va uslubiylati haqida gapirib bering.
4. Marjinalizmning iqtisodiy ta'limotlar tarixida tutgan o'zni haqida aytib bering?

5. Kembridj maktabining uslubiyatiga xos xususiyatlari nimadan iborat.
6. A.Marshallning asosiy asari va unda ko'tarilgan bosh mavzu nimalardan iborat?
- 7.Klarkning iqtisodiy nazariyasnga ta'rif bering.

Adabiyot

Asosiy adabiyotlar.

- 1.Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari T., O'zbekiston, 1998 .
- 2.Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. T Fan.1997(12-bob, 274-305- betlar).
- 3.A.Razzoqov, Sh.Toshmatov, N.O'rmonov. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. «Darslik». Toshkent. «Moliya»- 2002 y.

Qo'shimcha adabiyot.

- 1.Istoriya ekonomicheskix ucheniy. Chast1. Uchebnik. Pod. red.A.G.Xudokormova.M.M. GU, 1994.

7- MAVZU. JAHON XO`JALIGI TO`G`RISIDAGI IQTISODIY TA'LIMOTLAR (2 soat)

REJA

- 1.Xalqaro iqtisodiy integratsiyaga oid nazariyalar.
- 2.Xalqaro kapital harakati va investitsiyalarga oid nazariyalar.
- 3.Xalqaro valyuta munosabatlari.
- 4.Jahonshumul iqtisodiy muammolar.

1.Xalqaro iqtisodiy integratsiyaga oid nazariyalar.

Jahon xo'jaligi deganda, qisqacha ma'noda, iqtisodiy munosabatlarni milliy davlatlar miqyosiga nisbatan kengroq doirada tadqiq etish tushuniladi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi integratsion jarayonlar sifatida namoyon bo'ldi. "Benilyuks"(1944) "Umumiy bozor" (1957), hozirgi Evropa Ittifoqi, "Evropa iqtisodiy hamjamiyati" (1957), OPEK(1960), Xalqaro valyuta fondi(1945), Jahon banki(1946) kabi xalqaro iqtisodiy integratsiyaning maxsus tashkilotlari mavjud.

Savdo-sotiq munosabatlari xalqaro iqtisodiy integratsiyaning dastlabki keng tus olgan sohasidir. D.Rikardo (1772-1823) ning "nisbiy afzallik" va "solishtirma chiqim" nazariyalarida xalqaro mehnat taqsimotining ob'ektiv zarurligi birinchi marta ishlab chiqilgan. Unda savdo o'zaro foyda keltirishi ko'rsatilgan. Keyinchalik xalqaro iqtisodiy aloqalar bo'yicha neoklassik (sof ta'limot) va neokeynschilik(davlat aralashuvi mavjud) nazariyalari keng tarqalgan. Iqtisodiy integratsiyaga oid ta'limotlarda "bojxona ittifoqi" masalasiga katta e'tibor beriladi. Bunda o'zaro savdo - sotiq munosabatlarida to'la erkinlik va har qanday cheklashlar bekor qilinishi, "uchinchi mamlakatlar" uchun esa yagona bojxona tarifi joriy qilish zarurligi qayd etilgan. Xalqaro integratsiya jarayonini B.Belash(AQSh) va V.Rebke (Shveytsariya) kabi iqtisodchilar ideal erkin bozor munosabatlariga qaytish shaklida qaraydilar,ya'ni barcha to'siqlar olib tashlanishi, tovar pul, transport, ishchi kuchi va boshqalarning mamlakatlararo erkin harakati ta'minlanishi kerak.

Ch.P.Kindleberger(AQSh), P.Stritin (Angliya), A.Marshall va F.Perru (Frantsiya)larning fikricha, "bojxona ittifoqi"ning kapitallarga qarshi siyosati yirik korporatsiyalarning salbiy tomonlarini neytralizatsiya qilishni, xalqaro integratsiyada antimonopol yo`nalishni ta'minlaydi.

Klassik va neoklassiklar fikricha, jaxon bozorida "mukammal raqobat" mavjud: barcha kontragentlar xalqaro savdoda bir xil imkoniyatlarga ega, taklif doimo talabni vujudga keltiradi, savdoda balansi o`zini-o`zi tartibga soladi,uzoq muddatli rejalarda savdo sharoitlari industrial davlatlar ziyoniga va agrar davlatlar foydasiga o`zgaradi, xalqaro savdo rivoji tendentsiyalari agrar xom ashyo yo`nalishidagi davlatlar iqtisodiyoti tashqi savdo pozitsiyasi yaxshilashuviga olib keladi.

Neokeynschilik ta'limoti vakillarining fikricha, har bir mamlakatda mehnat va kapital bilan bandlikning to`la emasligi ichki bozorda ko`proq ishlab chiqarishga sabab bo`ladi. Bu esa ko`proq eksport hamda kamroq import qilishda uchraydi.

Natijada, xalqaro savdo o`zini-o`zi tartibga soluvchi jarayon bo`la olmaydi. Ayni paytda davlatning faol aralashuvi kerak bo`ladi. Ya'ni tovar eksportini kapital chiqarish bilan raqbatlantirish, importni esa, proteksionistik choralar bilan cheklanishini zarur qilib qo`yadi.

"Ishlab chiqarish omillarining xalqaro taqsimoti" nazariyasi asoschilari (E.Xeksher, B.Olin (Shvetsiya), Samuelson(AQSh) fikricha, har bir mamlakat iqtisodiyoti ishlab chiqarish omillari(kapital,ishchi kuchi,er) bilan bir xil ta'minlanmaganligi, har bir omilning turlicha bahoga egaligini keltirib chiqaradi. Ayrim mamlakatlarda mehnat asosiy omil (boshqasidan son jihatdan ko`p) bo`lsa, uning narxi kapital va erga nisbatan past baholanadi: kapital mo`l bo`lgan mamlakatda, u boshqa ikki ishlab chiqarish(ishchi kuchi,er) omiliga nisbatan arzon bo`ladi. Har bir mamlakat o`zining nisbiy ustunligini realizatsiya qilishga intiladi, jahon bozoriga ishlab chiqarish omili nisbatan arzon bo`lgan yo`l bilan tayyorlangan tovar ko`proq chiqariladi.

Bu nazariyani ishlab chiqarish chiqim(xarajat)larini mutloqlashtiradi va xalqaro ixtisoslashuvning yagona mezoniga asoslanadi. Jahon savdosi esa uyg`un jarayon deb qaraladi.

"Mahsulotning hayot sikli" nazariyasi mualliflari (G.Xofbauer, R.Vernon va M.Pozner va boshqalar)ning fikricha, sanoatda paydo bo`ladigan texnologik jihatdan har bir yangi mahsulot 1) kirish, 2) ekstensiv o`sish, 3)sekinlashuv va 4)tugash siklini o`tadi. Bunday ketma-ketlik ishlab chiqarishga joriy etish, kengayish, kamolot va eskirish jarayoniga to`g`ri keladi. AQSh shunday namunaviy texnologik jarayonga misol sifatida qaraladi.

Iqtisodiy inflyatsiya oldini olish oqibatlari quyidagilardan iborat: ishlab chiqarishning doimo o`sishi va iqtisodiy inqirozning bo`lmasligi ta'minlanadi; iqtisodiyotning o`sishi aholi turmush darajasi ko`tarilishi o`rtasidagi ijtimoiy sheriklik rivojlanadi; mamlakatlar o`rtasida nifoqlar tugatiladi.

2.Xalqaro kapital harakati va investitsiyalarga oid nazariyalar.

Neoklassik yo`nalish vakillari (B.Olin-Shvetsiya), K.Iverson (Daniya), R.Nurkse (AQSh)) asarlarida kapitalning xalqaro harakatda bo`lishi (migratsiya) u

yoki bu mamlakatda kapitalning mo'l-ko'lligi turlicha ekanligi bilan izohlanadi. Bunday izoh marjinalizm kotsepsiyasidan kelib chiqqan. Ularning ta'kidlashicha, kapital harakati toki kapital unumi bir xil bo'lguncha davom etadi, ishlab chiqarish omillari samaradorligi va milliy daromad o'sishi iqtisodiy rivojlanishning tekislashuviga olib keladi.

Neokeynschilik vakillari (F.Maxlup, E.Domar va R.Xarrodd) fikricha esa, kapital harakatlanishi savdo va to'lov balansining o'zgarishi, aktiv balansli mamlakatlarda kapital ortiqchaligi, passiv balansli mamlakatlarda, kapital etishmasligi tufayli ro'y beradi. Kapital

eksporti va importi masalasi iqtisodiy dinamik nazariyasida (Xarrodd) yalpi milliy mahsulotning o'sishi hamda investitsion daromad va to'lovlar bilan boqq'angan. Kapital eksport qiladigan mamlakatlarda to'lov balansida saldosida musbat bo'ladi, ya'ni investitsion daromad investitsion to'lovlardan ortiqcha bo'ladi. Kapital import qiladigan mamlakatlarda buning aksi bo'ladi. Bevosita investitsiyalar nazariyasida kapital chiqarish yirik korporatsiyalar tomonidan amalga oshirilishi qayd etilgan. Bunda mazkur korxonalarining iqtisodiy nazariyalarida (maxsus bozor bo'limlari, kerakli texnologiya, malakali mutaxassislar) bo'yicha raqobatbardoshligi hisobga olingan. Amerikalik E.Chemberlinning monopolistik raqobat nazariyasida raqobatbardoshlik ishlab chiqarish va kapital kontsentratsiyasi emas,

balki firmaning bozorga, iste'molchilarning shaxsiy talablariga muvafaqqiyatli moslashish natijasi deb qaralgan.

Xalqaro monopoliyalalar (trasmilliy va transkorporativ kontsernlar) faoliyatini aks ettiruvchi ta'limotlarda, mazkur monopoliyalarga ilmiy texnika taraqqiyotini targ'ib qiluvchi, har bir mamlakat manfaatlarini himoya qilmaydigan, rivojlanayotgan mamlakatlar taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etuvchi xalqaro tashkilot deb qaraladi. Biroq ayrim nazariyalarda (R.Barkett-AQSh, E.Penrouz, Angliya) xalqaro kontsernlarning o'zlari faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatlardagi milliy iqtisodiyot va siyosatga tazyiq o'tkazish imkoniyati milliy davlat (soliq, kredit, investitsiya, valyuta) siyosatini samarasiz bo'lishiga olib kelishi mumkin deb bayon etilgan.

3.Xalqaro valyuta munosabatlari tahlili.

Xalqaro savdo munosabatlari milliy valyuta birliklarining o'zaro nisbiy bahosi asosida ro'y beradi. Ayni paytda, chet el valyutasi birligini milliy puldagi ifodasi valyuta (almashuv) kursi tushunchasini anglatadi.

Valyuta kursiga bo'lgan ehtiyoj, talab va taklif kuchlarining o'zgaruvchanligini turli xil mamlakatlar valyutalar almashinuvining tashkil etuvchi bozorini- valyuta bozorini taqozo etadi.

Chet el valyutasiga talab xorijiy mahsulotni xarid qilish paytida paydo bo'ladi.

Talab va taklif muvozanati almashuv kursini belgilaydi.

Mamlakat valyuta kursi boshqa mamlakat kursiga nisbatan tushsa, milliy valyuta qadrsizlangan bo'ladi. Aksi bo'lsa, milliy valyutaning

qadri oshgan bo`ladi. Agar rasmiy milliy valyuta kursi pasaysa, devolvatsiya aksi bo`lsa, revolvatsiya deyiladi.

Ayrim hollarda, qisqa muddatli davrlarda, bozor - valyuta kursi tez o`zgarib turadi. Uzoq muddatli davrlar uchun, iqtisodchilarning kuzatuviga ko`ra, valyuta kursi turli mamlakatlardagi tovarlarning nisbiy narxi bilan aniqlanadi.

Yagona narx qonuniga ko`ra, turli mamlakatlar uchun erkin bozor munosabatlari sharoitida har bir tovar mamlakat hududida ham xorijda ham bir xil narxda sotiladi va sotib olinadi.

Bunday hol, harid imkoniyati tengligiga asoslangan valyuta kursi nazariyasi (P.Samuelson) bilan izohlanadi. Misol: ma'lum tovarlar majmuasi AQShda 1000 dollar, Meksikada 10.000 peso bo`lsa, valyuta kursi 100 pesoga 1 dollar bo`lsa, Meksikada mazkur tovarlar 100 dollar bo`ladi.

Bunday holda, amerikaliklar arzon tovarlar xaridi uchun almashuv kursi bo`yicha peso xaridini ko`paytirib yuborgan bo`lardi.

Bunday jarayon almashuv kursining 1% pesoga 1 dollarga keltirilganicha davom etadi.

Mazkur nazariya, milliy pulning qadrsizlanishi yuqori bo`lgan mamlakatlarda, nibiy narxlar o`zgarish tendentsiyasini aniqlashga yordam beradi.

Valyuta kursi tizimlarining 3 turi mavjud.

1. Sof suzib yuruvchi valyuta kursi tizimi.
2. Fiksirlangan valyuta kursi tizimi.
3. "Boshqariladigan" valyuta kurslari gibril tizimi.

Biror mamlakatning xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy shartnoma va bitimlarni jamlashtirishda to`lov balansi qo`llaniladi. Uning tarkibida joriy operatsiyalar va kapital harakati balansi moliyaviy aktivlar hamda mahsulotlar (xizmatlar) eksporti va importini o`z ichiga oladi. Eksport - kredit, import esa - debet hisoblanadi. Birinchisida chet el valyutasining mamlakatga kirishini, ikkinchisi - esa, buning aksini ifodalaydi. Tarixan, mamlakatlarda to`lov balansining quyidagi darajalari kuzatilgan:

1. "Yosh qarzdor";
2. "Voyaga etgan" qarzdor;
3. "Yosh kreditor";
4. "Voyaga etgan" kreditor:

4. Jahonshumul iqtisodiy muammolar.

Jahon hamjamiyatida kambag`allar va boylar o`rtasidagi tafovutning kuchayishi eng muhim muammolardan biri hisoblanadi.

Bu ko`rsatkich 1960 yildagi 13:1 dan 1990 yili 60:1 ga, hozir esa 75:1 ga etdi. Tengsizlik muammosining mohiyati shundaki, aholi tez o`sayotgan joylarda, iqtisodiyot o`sishi sust bormoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ayrimlari taraqqiyot yo`liga kirishga qaramay ko`pchiligi qoloqligicha qolmoqda.

"Noiloj rivojlanish", tashqi turtki nazariyasiga (R.Nurkse, E.Xogen) ko`ra, og`ir ahvoldan chiqish yo`li investitsiyalar hisobiga rivojlanishga

erishish bo`lib hisoblanadi, ya'ni chetdan qarz kiritish yo`lidir. "Industriallashtirish" nazariyasida shaxsiy iste'molni qisqartirish, davlat soliq tizimi orqali iqtisodiyotni moliyalashtirishna kuchaytirish, ayrim hollarda me'yordagi inflyatsiyadan foydalanish taklif etilgan.

Insoniyay rivojlanish kontsepsiyasi BMT tomonidan 1990 yili ilgari surilgan. Daromadlarning ko`payishi va insoniy farovonlikning yaxshilanishi orasidagi bog`lanishga qaratilgan.

Insoniy rivojlanish indeksi ko`rsatkichi kiritilgan. Umrboqiylik, ta'lim va yashash darajalari asosida integral ko`rsatkich ishlab chiqilgan. Bunda iqtisodiy ko`rsatkich asosiy o`rinni egallaydi(sog`liq,ta'lim etakchi).

Xulosa.

Jahon xo`jaligi, jahon bozori va integratsion jarayonlarning uzoq tarixi bor. Ayniqsa Buyuk ipak yo`li (e.a. II asr) davrida aniq namayon bo`lgan bu jarayon XU1 asrda buyuk geografik kashfiyotlar tufayli kuchaydi. 11 Jahon urushidan keyingi davrda esa bu xalqaro iqtisodiy munosabatlar maxsus tashkilotlar orqali amalga oshirilib, hozirgi davrni ularsiz tasavvur etish qiyin. "Benilyuks" (1944), Umumiy bozor (1957), Evropa hamjamiyati(ittifoqi), OPEK (1960), NAFTA, EKO, xalqaro valyuta fondi, Jahon banki va boshqa xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bu aloqalarni ma'lum tartibga solib kelmoqdalar.

Xalqaro iqtisodiy aloqalar bo`yicha neoklassik (sof ta'limot ) va neokeynschilik nazariyalari keng tarqalgan. "Sof" ta'limot tarafdorlari fikricha, iqtisodiy aloqalar xalqaro maydonda ham erkin bozor tamoyillari asosida rivojlanishini qo`llaydilar (erkin raqobat, hamma uchun bir xil imkoniyat, taklif doimo talabni vujudga keltiradi, savdo balansi o`z-o`zini tartibga soladi va boshqalar).Tayanch ibora va tushunchalar."Xalqaro mehnat taqsimoti"; Jaxon bozori to`g`risidagi "sof" ta'limot; ishlab chiqarish omillarining xalqaro taqsimoti; kapital chiqarishning neokeynschilik ta'limoti (F.Maxlup, B. Domar, R.Xarrod); "noiloj" rivojlanish va tashqi "turtki" nazariyalari; "solishtirma chiqimlar" nazariyasi; insoniy rivojlanish kontsepsiyasi; insoniy rivojlanish indeksi; umrboqiylik, ta'lim va yashash darajalari.

Nazorat va mulohaza savollari.

1. Jahon xo`jaligi deganda nimani tushunamiz va u qachon vujudga kela boshlagan?
2. Xalqaro iqtisodiy integratsiya nima, uning ob'ektiv zaruriyati nimaga asoslanadi?
3. Solishtirma afzallik kontsepsiyasi, solishtirma xarajatlar printsiplari nimani anglatadi?
4. "Ishlab chiqarish omillarining xalkaro taqsimoti" nazariyasining asoslari nima?
5. Xalqaro monopoliyalar (transmilliy korporatsiya) nima? Ular to`g`risida qanday ta'limotlar mavjud?
6. Valyuta munosabatlarining mohiyati nima? Valyutaning elastik kursi

qaysi omillarga bog'liq?

Adabiyot.

Asosiy adabiyot.

1. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., O'zbekiston, 1998.
2. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. T., Fan, 1997 (14-bob, 346-370-betlar).
3. A. Razzoqov, Sh. Toshmatov, N. O'rmonov. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. «Darslik». Toshkent. «Moliya»- 2002 y.

Qo'shimcha adabiyot.

1. Lomakin P.K. Mirovaya ekonomika. M., F. Yunit, 1998.

8.-MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ERKIN BOZOR IQTISODIYO'TINI YARATISHNING KONTSEPTSIYALARI VA UNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI (2 soat)

REJA

1. Turkistonning mustamlaka davridagi iqtisodiy ahvoli. «Harbiy kommunizm» siyosatining mohiyati.
2. Yangi iqtisodiy siyosat, uning mazmuni va ahamiyati. Buxoro va Xorazm respublikalarining (1920-1924) iqtisodiy rivojlanishi tajribasi.
3. Nokapitalistik (kapitalizmni chetlab o'tib) sotsialistik jamiyat qurish «nazariya»si va uning tarixiy taqdiri.
4. Iqtisodiyotda ma'muriy buyruqbozlik tizimining g'alabasi (rejali iqtisodiyot). Bozor iqtisodiyotida muqobil tizim va uning inqirozi.
5. O'zbekistonning mustaqil rivojlanish yo'liga o'tishi. Bozor munosabatlariga o'tish davrining tarixiy zaruriyati. Boshqariladigan ijtimoiy bozor iqtisodiyoti yo'lini tanlab olinishi va uning xususiyatlari.

1. Turkistonning mustamlaka davridagi iqtisodiy ahvoli.

«Harbiy kommunizm» siyosatining mohiyati. Turkiston o'lkasi 1865-1917 yillar davomida Rossiya imperiyasining mustamlakasi sifatida rivojlanadi. O'lka Rossiyaning sanoat hududlari uchun qishloq mahsulotlarini, birinchi navbatda paxta tolasini etkazib beruvchi xomashyo bazasiga aylantirildi, shu vaqtning o'zida Rossiya sanoati mahsulotlari uchun realizatsiya qilinadigan tashqi bozorga aylandi. Birinchi o'rinda paxtachilikning rivojiga alohida e'tibor berildi. Ma'lumotlarga ko'ra, dastlab paxta maydonlari barcha ekinzorlarining 20-30% idan ortiq bo'lmagan, donli ekinlar esa 50% atrofida edi. Bu tizimni buzish uchun paxtaning narxi keskin oshirildi va dehqonlar paxta maydonlarini kengaytirdilar. Yangi erlar ochish va sug'orish borasida ham anchagina ish olib borildi. Shu davrda Mirzacho'lni o'zlashtirish va u erlarni asosan paxtachilikka ixtisoslashtirish (90% gacha paxta) kuchaydi. Inqilobiy o'ynagan yana bir hodisa-bu yangi Amerika-Meksika paxta navining keltirilishi bo'ldi. Ishlab chiqarish munosabatlarida ham anchagina o'zgarishlar ro'y berdi, qishloq xo'jaligida yangi sinflar-quloqlar, pomeschiklar paydo bo'ldi. Oqibatda 1908 yilda paxta maydonlari 244,7 ming desyatina (desyatina-

1,1 ga)dan 1917 yil 425,8 ming) desyatnaga etdi (1980 yillarda 2mln. gektaga etkazildi). Birinchi jahon urushi arafasida 597 ming desyatnaga erga paxta ekilgan. Bu barcha sug`oriladigan maydonlarning 20%ni tashkil etgan. Rossiya to`qimachilik sanoati 1900 yil 16 mln. pud (1 pud-16 kg) tola ishlatgan bo`lsa, bu ko`rsatkich 1913-14 yillarda 27,7 mln. pudga etdi. XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Rossiyada nisbatan rivojlangan bozor tizimi vujudga kela boshladi. Ishlab chiqarish omillari: kapital, ish kuchi, er tovarga aylana boshladi, bu jarayonlar Turkistonda nisbatan sekinlik bilan ro`y berdi. Chunki bu erda sanoatning faqat uy

hunarmandchiligi shakli mavjud bo`lib, xatto manufaktura ham yo`q edi. Bu erda yangi tipdagi sanoat korxonalari (manufakturadan «sakrab» o`tilib) zavod-fabrikalar, yangi ishlab chiqarish munosabatlari (yollanma ishchilar) vujudga kela boshladi. Moliya, bank kredit tizimlari vujudga keldi. Birinchi jahon urushiga qadar bu erda tovar-pul munosabatlari, masalan, tovarchilik darajasi ancha yuqori edi.

Rossiya imperiyasining Turkistonda olib borgan iqtisodiy va ijtimoiy siyosati mahalliy aholini mustamlakachilik asoratida saqlash, iqtisodiyotni bir tomonlama agrar, xomashyo asosi sifatida rivojlantirish maqsad qilib qo`yildi va bunga to`la erishildi. Pirovard mahsulot ishlab chiqarishga yo`l berilmadi. Shunga qaramay, tabiiy ob`ektiv rivojlanish tufayli kapitalistik, feodalizmga nisbatan ilg`or ishlab chiqarish usullari namoyon bo`la boshladi; oz bo`lsa ham, xususiy, mashinalashgan fabrika-zavod tizimi, yollanma ishchi kuchi, tovar, pul munosabatlar, savdo, moliya, kredit va bank muassasalari, agrar sohada esa yangi sinf vakillari vujudga keldi.

XIX asr oxiri-XX asr boshlaridagi temir yo`l qurilishi sanoat-savdo kapitaliga keng imkoniyat yaratdi. Sho`rolar hokimiyati (1917) dastlabki paytlardan boshlab etakchi tarmoqlar: bank, og`ir sanoat, transport (temir yo`l), tashqi savdoni milliy lashtirdi, xususiy mulkka, tabirkorlikka qarshi harakat kuchaydi, bozor munosabatlarini imkoni boricha bug`ish eng asosiy vazifa qilib belgilandi. Sotsialistik deb atalgan iqtisodiyotni yaratish harakati boshlandi.

Og`ir iqtisodiy vaziyat sharoitida «Harbiy kommunizm» siyosati amalga oshirildi. Bunda ishlab chiqarish va taqsimot ustidan to`la davlat nazorati o`rnatildi (kartochka tizimi joriy qilindi), qishloqlarda «oziq-ovqat razvertkasi» joriy etildi. Ishlab chiqarishdan manfaatdorlik tugatildi, hammaning ishlashi majbur qilindi, savdo amalda bekor qilindi. Harbiy rejim o`rnatildi va amalda bozor munosabatlariga bolta urildi. Ishlab chiqarish keskin qisqardi. Xo`jalikning naturallashuvi kuchaydi, superinflyatsiya yuz berdi. Shunisi xarakterliki, Turkistondagi dastlabki o`zgarishlar, markazdan farqli o`ziga xos ravishda amalga oshdi. Masalan, «Er haqidagi dekret» faqat 20-yillarda realizatsiya qilindi. Oziq-ovqat razvertkasi markazdagidan engilrok amalga oshirildi. Xususiy savdoni ham tugatishga erishilmadi, ya'ni tovar-pul munosabatlari saqlandi. «Harbiy kommunistik» tajriba inqirozga uchradi. 1918 yil RSFSR tarkibida Turkiston Avtonom Respublikasi tuzildi. 1920 yilda mustaqil Xorazm va Buxoro xalq respublikalari tashkil etildi. 1924-25 yillarda milliy davlat chegaralanishi tufayli SSSR (1922 yil) tarkibida Uzbekiston SSR (Tojikiston ASSR 1929 yilgacha

UzSSR tarkibida bo'ldi, Xorazm va Buxoro respublikalari tugatildi, 1932 yilda Qoraqalpog'iston ASSR O'zbekiston tarkibiga kirdi).

Ana shunday muammolar ichida iqtisodiyot hal qiluvchi o'rinni egallar edi, chunki mamlakat og'ir ahvolda qoldi. Ayniqsa er masalasini hal etish muhim bo'ldi, u ikki bosqichda o'tdi.

1921-22 yillarda birinchi bosqichda mahalliy aholi bilan ko'chib kelgan evropaliklar o'rtasidagi farq tugatildi.

1925-29 yillarda ikkinchi bosqichda barcha erlar dehqonlarga bo'lib berildi dehqonlar er egasiga aylandi. Ammo keyin er tortib olindi va majburiy kollektivizatsiya o'tkazildi.

Og'ir ahvoldan chiqish uchun kapitalistik bozor munosabatlaridan foydalanishga to'g'ri keldi va bu printsip amalda o'zini oqladi.

2. Yangi iqtisodiy siyosat, uning mazmuni va ahamiyati.

Buxoro va Xorazm respublikalarining (1920-1924) iqtisodiy rivojlanish tajribasi. «Harbiy kommunizm» siyosati barbad bo'lgach, yangi iqtisodiy siyosatga (1921 yil) o'tildi, bu aslida kapitalistik munosabatlarga keng imkoniyat berish kontseptsiyasidan iborat bo'lib, iqtisodiyotga yangicha qarash, jiddiy va uzoqqa mo'ljallangan kontseptsiya edi. Uning asl mohiyati shuki, iqtisodiyotda erkin tadbirkorlik va tanlash imkoni berildi, milliy lashtirilgan korxonalar (ayniqsa engil va oziq-ovqat, xizmat tarmoqlari) denatsionalizatsiya (davlat tasarrufidan chiqarish -privatizatsiya) qilindi, ya'ni xususiy qo'llarga berildi, xususiy savdoga yo'l ochildi, eng muhimi mehnatkashlar motivatsiyasini (rag'batlantirilishini) bo'g'uvchi oziq-ovqat razvertkasi o'rniga yagona oziq-ovqat solig'i joriy etildi.

Davlat eng muhim tarmoqlarnigina o'z qo'lida saqlab qoldi, xo'jalikning asosiy qismi ishlab chiqaruvchilar qo'lga o'tdi. Qishloqda tadbirkor dehqonlar-quloqlar faoliyati kuchaydi, ularda tovarlik ancha katta edi. Ekin maydonlari kengaydi, ayniqsa paxta ekish kuchaydi. Sanoat ishlab chiqarishi yo'lga qo'yildi, mayda ishlab chiqarish, kustar hunarmandchilik ham avj oldi.

Xorazm va Buxoro xalq respublikalari (1920-24 yillar)ning tashkil topishi va iqtisodiy rivojlanishida bir qancha o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Bu hududlarning avvalo iqtisodiy rivojlanish darajasi nisbatan pastroq edi. Bo'lib o'tgan inqilob tufayli xalq respublikalari o'rnatildi, o'tkazilgan islohotlar asosan xalq demokratik o'zgarishlarni amalga oshirdi. Olib borilgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy siyosat oxir oqibatda sovet boshqaruv tizimining joriy qilinishiga olib kelgan bo'lsa ham, bu o'zgarishlar asta-sekinlik bilan, ob'ektiv sharoitlarni hisobga olgan holda, shoshilmay olib borildi. Inqilobiy usullar o'rniga islohotlar o'tkazish usuli ustun edi.

Rossiyada sho'rolar hokimiyati o'rnatilishi bilan yangi sotsialistik jamiyatni qurish rejalari belgilandi, uning iqtisodiy poydevorini yaratish ishlari boshlanib ketdi.

Buning uchun o'z davrida uchta asosiy vazifani bajarish zarur deb topildi: 1. Sanoatni industrializatsiyalash. 2. Qishloq xo'jaligini kollektivizatsiyalash. 3. Madaniy inqilob. Buning uchun mavjud iqtisodiy ukladlarni tugatish va yangi sotsialistik xo'jalik ukladini yaratish kerak

edi. Erkin bozor iqtisodiyoti o`rniga buyruqbozlik iqtisodiyotining yaratilishi zarur bo`ldi, bunda umumxalq mulki etakchi o`rinni egallaydi, barcha ishlar markazdan boshqariladigan qat'iy rejalar asosida olib boriladi. Bozorga zid ravishda xususiy mulk (savdo), raqobat tugatildi, qat'iy baho va imperativ rejalar joriy etildi, yakka partiyaviylik o`rnatildi.

3. Nokapitalistik(kapitalizmni chetlab o`tib) sotsialistik jamiyati qurish nazariyasi va uning tarixiy taqdiri.

O`z taraqqiyotida orqada qolgan sobiq mustamlaka xalqlarining kapitalizm qadar tuzumdan uni chetlagan holda yangi tuzum tomon borishlari uchun moddiy- texnik, sotsial-iqtisodiy va siyosiy sharoit yaratishga qaratilgan inqilobiy o`zgarishlar yo`li, nokapitalistik rivojlanish kontseptsiyasi sifatida ilgari surildi.

Qoloq xalqlarning kapitalizmni chetlab sotsializmga o`tishlari ikki asosiy xususiyatga ega:

1.Sotsializmni qurib bo`lgan yoki uni qurayotgan xalqlarga sotsializm uchun intilayotgan xalqlarga har taraflama yordam berishlari kerak.

2.Qashshoq xalqlarning sotsializm tomon borishi ko`p pog`onali bo`ladi, ya'ni bu xalqlar turli bosqichlardan o`tadi.

Bu erda gap Markaziy Osiyodagi Davlatlarda sotsializm qurish masalasidir. Bu g`oya sho`ro va jumladan, O`rta Osiyo va Qozog`iston olimlari tomonidan to`la qo`llab-quvvatlandi.

O`zbekistonda asta sekin avvalo qishloq xo`jaligini, ayniqsa paxtachilikni tiklash bo`yicha talay ishlar amalga oshirildi, ekin maydonlari ko`paytirildi. Yangi sanoat, fabrika-zavodlar ham barpo qilina boshladi.

Amalda nokapitalistik (kapitalizmni chetlab) rivojlanish yo`li o`zini oqlamadi. 1985-1990 yillard ro`y bergan o`zgarishlar tufayli deyarli barcha sotsialistik deb atalgan davlatlar bozor iqtisodiyoti printsiplariga, yangi kapitalizmga qaytishga majbur bo`ldilar. Asosan kapitalistik, ya'ni bozor munosabatlarining yordamida tiklangan xalq xo`jaligini rivojlantirish notabiiy yo`l bilan davom ettirildi. Iqtisodiyotni qat'iy rejalar asosida rivojlantirish ma'qul deb topildi. Asosiy maqsad nisbatan qoloq, asosan, agrar mamlakatda ilg`or industrlashgan iqtisodiyotni yaratish edi. Buning uchun 1928 yilda yillik rejalar asosida ish yuritildi. Ilg`or mamlakatlardan 50, hatto 100 yil orqada bo`lgan xalq xo`jaligini qisqa (10 yil) vaqt davomida ilg`orlar qatoriga etkazish yo`li tutildi. Bunda asosiy e'tibor og`ir sanoatga qaratildi. Unga eng ko`p investitsiyalar ajratildi, oqibatda ko`mir qazish, metal eritish, elektroenergiya hosil qilish mashinasozlik va boshqa tarmoqlarga ustuvor yo`nalishi berildi, xalq iste'mol darajasi past qilib saqlandi. Ishchi kuchlarini qishloq xo`jaligidan sanoatga jalb etish zarur edi. Ishchilarning iste'molini va sanoatini xomashyo bilan ta'minlash uchun agrar sohani o`stirish talab etiladi.

Rejalashtirilgan iqtisodiyotga o`tilishi bilan(1928-29 - 1932-33

yillar uchun) birinchi besh yillik reja qabul qilindi. Bu ikki asosiy o'zgarishga sabab bo'ldi.

Birinchiidan investitsiyalar va harbiy xarajatlarning ko'payishi tufayli iqtisodiyotda shaxsiy iste'mol hissasi o'zgardi (kamaydi). 1928 yil shaxsiy iste'mol yalpi milliy mahsulotning 65% ini tashkil etgan. Keyingi 50 yil davomida bu ko'rsatkich 50% atrofida bo'lgan, xolos.

Ikkinchiidan, qishloq xo'jaligi kollektivlashtirildi. Er to'g'risidagi dekret, er-suv islohoti bo'yicha dehqonlarga bo'lib berilgan erlar majburan kolxoz va sovxozlarga birlashtirildi, aslini olganda dehqonlar erdan, mol-mulkidan va asosiy ishlab chiqarish vositalaridan mahrum qilindi.

4.Iqtisodiyotda ma'muriy-buyruqbozlik tizimining g'alabasi.

Bozor iqtisodiyotiga muqobil tizim va uning inqirozi. Shu yillarda mamlakatda ma'muriy buyruqbozlik tizimi yuzaga keldi, bozor iqtisodiyotiga muqobil (alternativ) iqtisodiyotga o'tildi. Sotsialistik musobaqa bayrog'i ostida erkin raqobat tugatildi, xalq ommasining tashabbusi, mehnatga bo'lgan ishtiyoq (motivatsiya) bug'ildi, boqimandalik kayfiyati oshib bordi. Bu holat ayniqsa II jahon urushi yillarida avj oldi.

Urushdan keyingi yillarda rejalashtirish tizimi davom etdi, bu davrda investitsiyaga 25% yalpi milliy mahsulot sarflandi. Xalq xo'jaligi, paxtachilikni tiklash ishlari avj oldi. Bu ishda ekstensiv yo'l asosiy o'rinni egalladi, yangi erlar ochish, sug'orish tarmoqlari qurishga katta e'tibor berildi. Orol dengizi xuddi shu davrdan boshlab sayozlasha boshladi.

60-yillardan iqtisodiyotning o'sish sur'atlari kamaydi. Iqtisodiyotning o'sish sur'atlari pasayishi sabablari avvalo rejali iqtisodiyotning imkoniyatlari cheklanganligi bilan izohlanadi. Demak, bu usul ma'lum davrgacha samara bergan bo'lsa, endi uning aks ta'siri namoyon bo'la boshladi, yangi sharoitga moslashuv ro'y bermadi. «Inqirozga uchradi» deyilgan bozor iqtisodiyoti esa o'zgargan sharoitga moslashdi, ya'ni bozor iqtisodiyotining yangi sharoitga adaptatsiyasi yuz berdi va uning yangi rezervlari borligi aniqlanadi.

Undan tashqari iqtisodiyot sur'atlarining pasayishiga olib kelgan sabablar quyidagilar bo'ldi. 1. Ishchi kuchlari sonining o'sish sur'atlari yiliga 0,5% pasaydi. 2. Aholining qishloq joylardan sanoatga o'tishi yakunlandi, bu jaryon ishlab chiqarish unumdorligining oshishiga sababdir, chunki sanoatda qishloq xo'jaligiga nisbatan unumdorlik baland. 3. Qishloq xo'jaligi unumdorligi o'smay qo'ydi, chetdan oziq-ovqatni import qilishga ehtiyoj sezildi. Nokapitalistik, sotsialistik rivojlanish yo'li tarixan o'zini oqlamadi. Jahonning uchdan bir qismini egallagan sistemani qo'lladi, bozor iqtisodiyoti yo'lidan rivojlanish tarixiy zarurat bo'lib qoldi.

5.O'zbekistonning mustaqil rivojlanish yo'liga o'tishi.

Bozor munosabatlariga o'tish davrining tarixiy zaruriyati. Boshqariladigan ijtimoiy bozor iqtisodiyoti yo'lini tanlab olinishi va uning xususiyatlari.

1991 yilning 31 avgustida O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi e'lon qilindi. Shu kundan boshlab respublikaning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalarida yangi o'zgarishlar davri boshlandi.

O'zbekistonning tarixiy, milliy, an'anaviy, demografik va boshqa xususiyatlarini hisobga olib, respublikamizda ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish mustaqil jumhuriyatimiz ichki siyosatining negizi deb qabul qilindi. Bu yo'nalish o'z davrida nemis iqtisodchilari Vilgelm Rebke (1899-1966), Volter Oyken (1891-1950), Lyudvig Erxard (1897-1977) lar tomonidan ilgari surilgan edi.

To'liq erkin bozor munosabatlarga o'tish ma'lum taraqqiyot davrini talab etadi, bu tarixan aniq faktdir. Bozor munosabatlari nisbatan to'la amalga oshgan davlatlar tarixiga nazar tashlansa, bu davr bir necha asrlardan tortib bir necha o'n yillarni tashkil etadi. Masalan, klassik bozor munosabatlari tarkib topgan Buyuk Britaniyani oladigan bo'lsak, unga deyarli 200 yil, Frantsiyaga 150 yil, Germaniya va AQShga 50-100 yil vaqt talab etildi.

Insoniyatning tarixiy rivojlanishi davomida iqtisodiyotda bozor munosabatlarining quyidagi shakllari farqlanadi:

1. Yovvoyi bozor (dastlabki paytda);
2. Ma'muriy - buyruqbozlik bozori (bir vaqtlar sobiq SSSRda va "sotsialistik" deb atalgan mamlakatlarda);
3. Boshqariladigan bozor (hozirgi deyarli barcha rivojlangan etakchi mamlakatlarda).

Erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun quyidagi zarur shart-sharoitlar talab etiladi:

- a) tanlash va tadbirkorlik erkinligi;
- b) baholarning erkinligi (bahoni talab va taklif asosida bozor belgilaydi);
- v) erkin raqobat (monopologiyaga qarama-qarshi);
- g) mulklarning turli tumanligi va ularning huquqiy jihatdan qonun oldida tengligi (davlat, xususiy, jamoa mulklari...);
- d) davlatning iqtisodiyotga imkoni boricha kamroq aralashuvi va boshqalar.

Respublikamizning bozor munosabatlarga o'tish kontseptsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, akademik I.A. Karimovning asarlari, risola va nutqlarida izohlab berilgan. O'zbekistonning tarixiy, milliy, an'anaviy, ekologik va boshqa sohalaridagi tajribalariga asoslanib, respublikada ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'li maqbul deb topildi. Bu o'tish yo'li tadrijiy (evolyutsion), ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

O'zbekistonning bozor munosabatlarga tez va bo'xronsiz o'tishi uchun qulay sharoitlar anchagina. Bu avvalo siyosiy mustaqillikning mavjudligidir; halqimizning boy tajribasi va mehnatkashligi, intellektual boyligi tufayli xatto ma'muriy-buyruqbozlik davrida ham bozorlar mavjud bo'lgan va asosiy talab-ehtiyojni qondira olgan. Agar

ishlab chiqarishga ilg'or texnologiya, fan-texnika yutuqlari joriy etilsa, boy moddiy texnika resurslarimiz ishga solinsa, xalqimiz va davlatimiz tezda rivojlanib, nisbatan qisqa davr ichida ilg'or mamlakatlar qatoriga qo'shiladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning "o'zbek modeli" kontseptsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti akademik I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan. Uning besh tamoyili mavjud:

1. Iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi va bunda iqtisodiyotning mafkuradan holi bo'lishi.
2. Davlat bosh islohotchi.
3. Qonunning hamma narsadan ustun turishi.
4. Kuchli ijtimoiy siyosat, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor.
5. Bozorga bosqichma-bosqich, tadrijiy (evolyutsion) yo'l bilan borish.

Xulosa

Jamiyat rivoji tarixi shuni aniq ko'rsatadiki, bir ijtimoiy tizimdan boshqa tizimga ko'chish uchun ma'lum o'tish davri ob'ektiv zaruratdir. Bu zarurat eskirgan hayot ukladi o'rniga yaratiladigan yangi ukkladni vujudga keltirishdagi siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy qiyinchiliklar bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston sharoitida bu o'tish davri bir necha bosqichdan iborat bo'ladi, hozirgi vaqtda birinchi bosqichdan (1991-94yillar) ikkinchi bosqich (1995-1999) amalga oshirildi va 2000yildan yangi bosqich-erkinlashtirish davri boshlandi.

O'tish davrining davom etish vaqti va bosqichlari soni o'tish davrida qo'llaniladigan qator aniq ob'ektiv va sub'ektiv omillar va uslublarga bog'liqdir. Uni nisbatan tezroq va to'fonlarsiz amalga oshirish bosh vazifa hisoblanadi. O'zbekistonda MDH davlatlari orasida birinchilardan bo'lib mustaqillikning 10 yili davomida muhim yutuqlarni qo'lga kiritdi.

Tayanch ibora va tushunchalar.

O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish zarurligi; o'tish davri xususiyatlari va bosqichlari; islohotlarning besh tamoyili; I. Karimov asarlardagi iqtisodiy g'oyalar.

Nazorat va mulohaza savollari.

1. O'zbekistonda "sotsialistik" deb atalgan tuzum davrida ro'y bergan iqtisodiy o'zgarishlarning oqibati qanday bo'ldi? Ma'muriy-buyruqbozlik va rejali iqtisodiyotning yutuq va kamchiliklari nimalarga olib keladi?
2. Rivojlanish sur'atlarning pasayishi, rejali iqtisodiyot inqirozi, siyosiy-ijtimoiy va ekologik muammolarning sabablari nima?
3. Mustaqil O'zbekiston iqtisodiyotida bozor munosabatlariga o'tishning tarixiy zarurati nimalardan kelib chiqadi?
4. Boshqariladigan ijtimoiy bozor kontseptsiyasining mohiyati qanday?
5. Bozorga o'tishning "shok terapiyasi" va tadrijiy usullari bir-biridan nima bilan farq qiladi?

Adabiyot.

Asosiy adabiyot.

1. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., O'zbekiston, 1998.

2. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. T., Fan, 1997(15-bob, 370-405-betlar).

Qo`shimcha adabiyot.

1. To`xliiev N. O`zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti. T., 1998.

2. Tuxliiev N., Taksanov A. Natsionalnaya ekonomicheskaya model Uzbekistana. T., O`qituvchi, 2000.

U M U M I Y A D A B I Y o T.

ASOSIY ADABIYOT.

1. Karimov I.A. Tarixiy o`tmishsiz kelajak yo`q. T., 1998.

2. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Ma'ruzalar matni. T., TDIU, 1992.

3. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. O`quv qo`llanma. T., Fan, 1997.

4. Mayburd E.M. Vvedenie v istoriyu ekonomicheskoy misli. M., 1996.

5. Yadgarov Ya.S. Istoriya ekonomicheskix ucheniy. M., 1999.

6. Razzoqov A.A. Iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureatlari. T., TDIU, 1998.

7. A. Razzoqov, Sh. Toshmatov, N. O`rmonov. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. «Darslik». Toshkent. «Moliya»- 2002 y.

QO`SHIMCHA ADABIYOT.

1. Karimov I.A. O`zbekiston buyuk kelajak sari. T., 1998.

2. Qur'oni Karim .T., Cho`lpon, 1992.

3. Mor T. Utopiya. M., 1953.

4. Campanella T. Gorod solntsa. M., 1954.

5. Sotsialno-utopicheskie idei v Sredney Azii. T. Fan, 1983.

6. Xayrullaev I. Farabi. T. Fan, 1975.

7. Forobiy. Fozil odamlar shahri. T., 1993.

8. Ibn Xoldun. Lavhalar. Ijtimoiy fikr. 1998, №1, 158-165-betlar.

9. Yusuf Xos Hojib. Qutadg`u bilig. T., 1991.

10. Kaykavus U. Qobusnoma. T., O`qituvchi, 1986.

10. Karimov I.A. O`zbekiston buyuk kelajak sari. T., 1998.

11. G`ulomov S. Ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyoti. T., Mexnat, 1997.

Bu fanni o`rganish davomida chiqayotgan yangi hujjat, kitob, vaqtli matbuot materiallariga ham alohida e'tibor berish tavsiya etiladi.

